

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RRTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ARZU AZIMOVA

GARMONIYA

(bastakorlik va musiqashunoslik yo'nalishlari uchun)

(2-qism)

(O'quv qo'llanma)

Bakalavriat yo'nalishlari: 5150200 – San'atshunoslik (musiqashunoslik)

5150100 –Bastakorlik san'ati

TOSHKENT – 2018

Ozbekiston davlat konservatoriyaning Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchilar:

Abdullayev R. Ozbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, Ozbekiston Respublikasi san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, professor.

Ibragimova Sh.E. katta oqituvchi

Qo'llingizdagи, ilk marotaba ozbek tilida yozilgan, o'ta murakkab musiqiy-nazariy fanlardan biri – garmoniya asoslariga doir o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma lad,akkord, ovoz yo'nalishi, modulyatsiya, major-minor tizimi kabi ushbu kursning yetakchi mavzulari izchil yoritilishi tufayli, undan mutaxassis oqituvchilar yordamida oliy ta'lim muassasalari talabalari foydalanishlari mumkin.

Данное учебное пособие впервые написано на узбекском языке. Оно вбирает в себя основные знания и навыки по наиболее сложному музыкально-теоретическому предмету - гармонии и предназначается для студентов бакалавриата высших музыкальных учебных заведений (консерватория, институт искусств и др.).

В этом учебном пособии последовательно рассматриваются основные явления гармонии - лад, аккорд, голосоведение, модуляция, мажоро-минорная система, натурально-ладовая система, а также история гармонии. Это позволяет составить полное представление о гармонии как системном феномене.

This manual was first written in Uzbek. This training manual includes basic knowledge and skills on the most complex musical and theoretical subject-harmony and is intended for undergraduate students of higher musical educational institutions (conservatory, art institute, etc.).

In this tutorial, the basic directions in harmony are consistently considered, such as: harmony, chord, voice, modulation, major-minor system, and therefore it is recommended to study these areas under the supervision of university teachers.

KIRISH

Garmoniya Oliy va o'rta maxsus musiqa bilim yurtlarida o'rganiladigan eng murakkab musiqiy-nazariy fanlardan biri bo'lib, u talabalarni kompozitorlik ijodiyotining muhim masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqiy til tizimi va garmonianing unda egallagan o'rni haqida aniq tushunchalar berishga mo'ljallangan.

Ushbu kitob ilk marotaba o'zbek tilida yozilgan garmoniya darsligidir. U muallifning O'zbekiston davlat konservatoriyasi musiqashunoslik va ijrochilik fakultetlarida garmoniya fanini o'qitish bo'yicha tooplangan tajribasini umumlashtiradi va bakalavriat dasturiga muvofiq yozilgan. Biroq o'rta bo'g'in ta'lim muassasalarida o'zbek tilidagi garmoniya darsligiga bo'lgan ehtiyoj materialni ushbu fanning dastlabki bosqichlarini ham qamragan hajmda bayon etishni taqozo qildi. Darslikka o'quv jarayonida tayanch mavzulardan «Garmonianing lad asoslari», «Garmonik vertikal», «Modulyatsiya», «Ladlarning o'zaro birikishi» kiritildi.

Darslikning mazmuni va tarkibi bugungi kun talablaridan kelib chiqqan qator xususiyatlarga ega. Ta'lim jarayonlarining davlat tiliga o'tkazilishi munosabati bilan ma'ruzaviy materiallarning dolzarbligi kuchaydi va ayni paytda maxsus atamalar, asosiy tushunchalarning ta'rifi bilan bog'liq bo'lgan muammolar vujudga keldi. Shuningdek, umumgarmonik qoidalarning O'zbekiston kompozitorlari ijodida namoyon bo'lishini o'rganish zarurati yaqqol sezilmoqda. Darslik aynan shu masalalarga bag'ishlangan.

Darslikning turli dasturlar bo'yicha o'qitilayotgan va turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan keng o'quvchilar doirasiga mo'ljallanganligi bois unda uy vazifalari va amaliy masalalar keltirilmaydi. Ular nashr qilinishi

mojljallanayotgan va Ozbekiston kompozitorlari asarlari asosida tuzilgan maxsus ilovada keng olin egallaydi.

Darslikdan foydalash jarayonida qulaylik yaratish maqsadida misol tariqasida keltirilgan asarlar va mualliflarning nomlari muayyan nashr tilida koorsatildi.

Muallif qimmatli takliflari va tanqidiy mulohazalari bilan ushbu darslikning yuzaga kelishida komaklashgan musiqa nazariyasi kafedrasidagi barcha hamkasblariga chuqrur minnatdorchilik bildiradi.

II - kurs

I.Ladlar ozaro birikishi


Birgina tonika *nomdosh* va *parallel* tonalliklarakkordlarining birlashishida diatonik major va minor tovush qatorlarini murakkablashtirish yollaridan biridir.

1. Nomdosh major-minor tizimi

Nomdosh major — minor tizimi tabiiy nomdosh tonalliklarning birlashtirilishidan (Do major — do minor) vujudga keladi.

Tizimni ikki varianti mavjud:

- nomdosh minorakkordlari bilan boyitilgan major, bu holda major — minor hosil boladi;
- nomdosh majorakkordlari bilan boyitilgan minor, bu holda avvalgining aksi, ya'ni minor — major hosil boladi.



Tabiiy major (do major)

Tabiiy minor (do minor)

Do major-minorning pogonalni tarkibi:

Do major-minorning akkordli tarkibi:

A musical staff in G clef. It shows five chords: T (Tonic), t (Subtonic), III^P (Dominant), VI^P, and VII^P. The chords are represented by three-note vertical stacks.

Do minor-majorning pogonalni tarkibi

A musical staff in G clef. It shows a sequence of notes: C, C, B, A, C, B, A, B, C, B, A, B. These notes represent the notes of the C major scale.

Do minor-majorning akkordli tarkibi

A musical staff in G clef. It shows four chords: t (Tonic), T (Subtonic), III⁶ (Dominant), and VI⁶. The chords are represented by three-note vertical stacks.

Major-minor akkordlari funksiyaviy tamoyillari bo'yicha guruhlanadi:

A musical staff in G clef. It shows three chords: S (Subtonic), T (Tonic), and D (Dominant). The chords are represented by three-note vertical stacks. The T chord is bracketed above the S and D chords.

Bunda, major-minor tizimining funksiyalanishida majorning boshqaruvchi mazmuni va minorning tobe holatini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, bu major-minorning, minor-majorga nisbatan ertaroq shakllanganligi va ko'proq tarqalganligida ko'rindi.

Major va minorni yagona tizimga birlashtirishning dastlabki zamini garmonik minor bo'ldi. Minorda yetakchi ton (VII— pog'ona)ning paydo bo'lishi uning imkoniyatlarini majorniki bilan tenglashtirish zaruriyati tufayli tug'ildi. Natijada, V bosqich major akkordlarining dominanta guruhi shakllandı, keyinchalik kamaytirilgan yetakchi septakkordni qo'llash imkoniyati ham paydo bo'ldi.

Biroq garmonik minor va uningakkordlari ilgaridanoq maxsus vosita sifatida qabul qilinmay, balki tez orada normallik ahamiyatiga ega bo'ladi.

Minorda yozilgan asarning major tonikasining uchtovushligi bilan tugallash an'anasi, nomdosh major va minorning ilk yaqinlashuv shakllariga taalluqlidir. Bu an'ana I.S.Baxgacha (1685—1750) saqlanib qoldiki, u major uchtovushligining ko'proq akustik turg'unligi bilan izohlanadi:

J.B. Lyulli. «Tezey» operasidan raqs.



Zamonaviy musiqada ham bu usul ba'zi hollarda o'z ifodasini topgan: S.Yudakovni «Maysarani ishi» operasida Maysaraning markaziy ariyasi re minorga asoslangan bo'lsada, asar mazmunidan kelib chiqib Re majorakkordi bilan tugallanadi.

Nomdosh major — minorning koloristik va jilolantiruvchi imkoniyatlari musiqiy romantizm davrida ayniqsa katta qiziqish uyg'otishi va keng qo'llanishiga muhim omil bo'ldi.

Major va minor uchtovushliklari muqoyasasining koloristik imkoniyatlari har bir major yoki minor uchtovushligini nomdosh uchtovushlik bilan almashtirish amaliyotiga olib keladi. Bu dastlabki nomdosh major — minorningakkord tarkibini muhim darajada boyitdi:



Tayanch sozlar: lad, major, minor, tizim, boolingan aylanma, subdominanta, tonika, dominanta, nomdosh tonika,akkord, pasaytirilgan uchtovushliklar.

Mustaqil ish.

1. Nomdosh tizimlar.
2. Umumiyl tovushqator.
3. Major - minor.
4. Minor - major.
5. Maxsusakkordlar.
6. Akkord takibi.
7. Modulyatsiya.

Adabiyot: Бершадская Т. Лекции.(В boylimi)

Azimova A. Garmoniya. 5 bob.

Григорьев С. С. Гармония. (XI bob)

Tahlil : Чайковский “Забыть так скоро”.

Шуберт. Зимний путь. “Путевой столб”.

Betxoven. Sonata №16. 1q.

Yozma ish. Fortepianoda chalish.

Алексеев. Задачи. №№586, 587, 588.

Nomdosh major minor tizimiga xosakkordlar bilan davriyani tuzish va chalish.

Nomdosh tizimiga xosakkordlar orqali modulyatsiyalarni chalish.

Seminar. Nazorat savollar va vazifalar.

- 1.Nomdosh major-minor tizimi va uning pogonalni tarkibi.
2. Nomdosh minor-major tizimi va uning pogonalni tarkibi.
3. Nomdosh major-minorning oziga xosakkordlari.

4. Nomdosh minor-majorning o'ziga xosakkordlari.
5. Nomdosh tizimlariga xosakkordlari orqali modulyatsiyani bajarish.
6. Mavzuga taalluqli adabiyotlar haqida ma'lumot berish

Talabalarni aktivlashtirish uchun :

1. Mi majordan VI pasaytirilganakkordi orqali qanday tonalliklarga bevosita modulyatsiyani bajarish mumkin?
2. Fa majordan Lya bemol majorga qanday nomdoshakkordi yordamida modulyatsiyani bajarish mumkin?
3. Sol minorning nomdoshakkordlarini aytib o'ting.

2. MAJOR-MINORNING O'ZIGA XOS AKKORDLARI

2.1.VI-pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (VI^P)

VI pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi subdominanta guruhiakkordlarining eng dastlabki va ko'proq tarqalganidir. U diatonik VI pog'ona uchtovushligi qo'llanadigan sharoitlarda ishlataladi

V₇ VI^P V₇ VI^P II₄₃^g

VI^P ning «bo'lingan» aylanmalarda (D₇—VII^P) qo'llanishi ko'proqxarakterli bo'lib, ta'sirchanlik effektiga ega.

VI^P dan keyin odatda garmonik subdominanta (S^G, S11^g), qo'sh dominanta (DD)akkordlari keladi.

Betxovenning 7 - fortepiano sonatasidan keltirilgan lavhada «bo \square lingan» aylanma ikki turda mavjud: birinchi marotaba - diatonik, ikkinchisida esa — major — minor ko \square rinishida:

L.Betxoven. Son. №7, IV.

A musical score for piano in 2/4 time, key signature of A major (two sharps). The top staff shows a melodic line with dynamic markings: *p*, *ff*, *p*, *ff*. The bottom staff shows harmonic bass notes. The score consists of two systems of four measures each.

VI^p bevosita bog'lovchi rishta sifatida tonika va subdominanta o \square rtasida qo \square llaniladi. T va VI^p esa faqat garmonik yo \square naliшhda qo \square shiladi:

A harmonic analysis diagram for the bass line of the piano score. The bass line consists of two systems of four measures each. Roman numerals below the bass line indicate the harmonic progression: I, VI^p, IIⁿ₆₅, I, VI^p, IV^g.

VI^p subdominanta sifatida tonikaga to \square g'ridan – to \square g'ri o \square tishida plagal aylanish va plagal kadentsiya sodir bo \square ladi. Major uchtovushliklarining bevosita

A harmonic analysis diagram for the bass line of the piano score. The bass line consists of two systems of four measures each. Roman numerals below the bass line indicate the harmonic progression: I, VIⁿ, I, IV^g, VI^p, I.

tersiya oralig'ida taqqoslanishi yorqin koloristik effekt hosil qiladi va XIX — asr ikkinchi yarmi amaliyotining odat tusidagi garmonik vositasi bolib qoladi:

VI^p — Olib dominantasi, ya'ni III pasaytirilgan pog'onaakkordi yordamida kiritilishi yoki mustahkamlanishi mumkin:

A musical score in G major (treble clef) and C major (bass clef). The score consists of two staves. The top staff shows a sequence of notes: a quarter note (C), a half note (B-flat), another half note (B-flat), a quarter note (A), a eighth note (G), and a half note (F-sharp). The bottom staff shows a sequence of notes: a quarter note (E), a half note (D), a half note (D), a quarter note (C), a quarter note (B-flat), and a half note (A). A large arrow points from the label "V₄₃" to the first note of the second staff, indicating the progression from the dominant seventh chord (V₄₃) to the dominant position (VI^p). The label "VI^p" is placed below the second staff.

M.Ashrafiyning «Shoir qalbi» operasidagi «Vals»da shodiyona avjni tashkil etadigan garmoniya ikki major uchtovushligining (1- VI^P) taqqoslanishi va VI^P o□z dominantasi (D_{6/5} D2) bilan mustahkamlanishiga asoslanad

M.Ashrafiy "Shoir qalbi" op "Vals bilan xor".



2.2. III-pasaytirilan pog'ona uchtovushligi (III^P)

Major — minor tizimining dominanta guruhiakkordlari — III^P, VII^P, V minor uchtovushligi (kam uchraydiganakkord), III^P major uchtovushligi ayniqsa T bilan izchillikda (T- III^P , III^P — T) yorqin tersiyaviy muqoyasa hosil qiladi:

M. Musorgskiy «Xovanshina».

Andante son moto

III^p uchtovushligi ko \square pincha frigiy tetraxordiga o \square xshash aylanmalarda ishlatalidi:

III^p major —minorakkordlari orasida o \square zining subdominantasi (VI^p) va dominantasiga (VII^p) ega va shuning uchun ham ularning yordamida serjilo qorishmalarni amalga oshirish mumkin bo \square lgan markaz sifatida ham namoyon bo \square ladi:

Keltirilgan misolda Fa major nomdosh fa minorakkordlari bilan boyitilgan (d, VII^p , III^p , III_2^p , $\text{IV}_{6/5}^g$). Shu qatorda garmoniya rivoji aynan III^p uchtovushligiga og'ishma tufayli murakkablangan:

A. Kozlovskiy «Ulugbek» op. «Mehmonlar xori».

Allegro

The musical score consists of two systems of music. The top system is in treble clef and common time (C). It features a bassoon-like part with eighth-note patterns and a piano-like part with sixteenth-note chords. The bottom system is in bass clef and common time (C). It features a piano-like part with eighth-note chords and a bassoon-like part with eighth-note patterns. The music is set against a dark background.

2.3. VII pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (VII^P)

Dominanta guruhining navbatdagiakkordi—VII pasaygan pog'ona uchtovushligi kamroq ishlatiladi. Uni major — minorning frigiy aylanmasiga kiritish xarakterlidir:

The musical score shows a progression of chords. It begins with a C major chord (G, B, D) followed by a G major chord (D, G, B). This is followed by a C minor chord (A, C, E) and a G minor chord (E, G, B). The next chord is a C major chord (G, B, D), which is highlighted with a bracket. The final chord is a G major chord (D, G, B), also highlighted with a bracket. The bassoon part provides harmonic support with sustained notes and rhythmic patterns.

R.M. Gliyer, T. Sodiqov
«Gulsara» op. «Final xorii».

Moderato



Kvarta —kvintali va tersiyali munosabatlarda VII^p uchtovushligi qo'llanishi hech qanday maxsus sharoitlar bilan chegaralanmaydi.

2.4. Nomdosh tonika

Nomdosh minor tonikasi ko pincha major tonikasi bilan taqqoslash sifatida kiritiladi. Bunday solishtirishakkordlar o rtasida bo lgan holda (T-t), minor tonikasi asosiy major tonikasini tuslaydi. Aylanmalarining qiyoslanishi esa aks sado effektini yaratadi:

M.Glinka “Ruslan va Lyudmila”. Uvertyura





3. MINOR-MAJOR

Yuqorida aytib oqtildiganidek, minor — major badiiy amaliyotda kamroq qoqlaniladi. VI va III balandlashtirilgan pog'onalar uchtovushliklari minor — majorning maxsusakkordlaridir.

VI^b — odatda subdominanta sifatida ishlatiladi, III^b esa, dominanta funksiyasini bajarishi mumkin:

Musical notation example showing harmonic progression with Roman numerals indicating specific chords. The notation consists of two staves (treble and bass) in common time (indicated by 'C'). The key signature is one flat, indicating F major or D minor. The progression includes chords such as B-flat major (B-flat, D, F), A minor (A, C-sharp, E), and G major (G, B, D). The Roman numerals VI^b and III^b are placed below the staff to identify the chords being discussed.

Keltirilgan lavhada VI^b uchtovushligi re minorga xos hazin kayfiyatni yanada kuchaytiradi:

S. Prokofyev. «Bolalar musiqasi».



Tayanch sozlar: lad, major, minor, tizim, bozilingan aylanma, subdominanta, tonika, dominanta, nomdosh tonika,akkord, pasaytirilgan uchtovushliklar.

Mustaqil ish.

1. Nomdosh tizimlar.
2. Umumiyl tovushqator.
3. Major - minor.
4. Minor - major.
5. Maxsusakkordlar
6. Akkord takibi.
7. Modulyatsiya.

Adabiyot: Бершадская Т. Лекции.(В bozlimi)

Azimova A. Garmoniya. 5 bob.

Григорьев С. С. Гармония. (XI bob)

Tahlil : Чайковский “Забыть так скоро”.

Шуберт. Зимний путь. “Путевой столб”.

Betxoven. Sonata №16. 1q.

Yozma ish. Fortepianoda chalish.

Алексеев. Задачи. №№586, 587, 588.

Nomdosh major minor tizimiga xosakkordlar bilan davriyani tuzish va chalish.

Nomdosh tizimiga xosakkordlar orqali modulyatsiyalarni chalish.

Seminar. Nazorat savollar va vazifalar.

1. Nomdosh major-minor tizimi va uning pog'onali tarkibi.
2. Nomdosh minor-major tizimi va uning pog'onali tarkibi..
3. Nomdosh major-minorning o'ziga xosakkordlari.
4. Nomdosh minor-majorning o'ziga xosakkordlari.
5. Nomdosh tizimlariga xosakkordlari orqali modulyatsiyani bajarish.
6. Mavzuga taalluqli adabiyotlar haqida ma'lumot berish

Talabalarni aktivlashtirish uchun :

1. Mi majordan VI pasaytirilganakkordi orqali qanday tonalliklarga bevosita modulyatsiyani bajarish mumkin?
2. Fa majordan Lya bemol majorga qanday nomdoshakkordi yordamida modulyatsiyani bajarish mumkin?
3. Sol minorning nomdoshakkordlarini aytib o'ting.

4. MODULATSIYA VA NOMDOSH MAJOR-MINORNING VOSITALARI

Major-minor tizimi sharoitida b i r i n c h i d a r a j a l i t u r d o sh tonalliklar doirasi kengayadi. Diatonik o□xhash tonalliklar guruhiga tonikasi major-minor (va minor-major) ning akkord tarkibiga kiradigan tonalliklar qo□shiladi. Masa- lan, dastlabki do major va do minorga – diatonik va major-minor turdoshlik munosabatida quyidagi tonalliklar bo□ladi:

do major (C) a, e, G, d, F, f (diatonik o□xhashlik)

c, As, Es, B, g (major-minor o□xhashlik) do minor (c) Es, f, As, g, B, G
(diatonik o□xhash) C, F, d, a, e (minor-major o□xhash)

VI pasaytirilgan pog□ona (VI^P) uchtovushligi vositasidagi modulatsiya

VI^P pog□ona uchtovushligi vositasidagi modulatsiya ko□p jihatdan garmonik S orqali tezlashtirilgan modulatsiyaga o□xshaydi. VI pasaytirilgan pog□ona uchtovushligi uch, to□rt, besh va kamroq hollarda oltita belgiga ajraydigan major va minor tonalliklarni qo□shish imkoniyatiga ega.

Modulatsiya majordan *bemol* tonalliklari sari bajarilsa umumiy akkord (tonalik) sifatida *birinchi* tonallikning VI pasaytirilgan uchtovushligi qo□llanadi. Masalan, do major- dan quyidagi tonalliklarga o□tish mumkin: C – Es, c, As, f, Des, b, Ges, es.

VI^P quyidagi yo□l bilan kiritiladi: a) «bo□lingan» ayla- nishda, b) bevosita T keyin, d) o□zining dominantasi orqali. Quyidagi misollar dastlabki

tonallikning VI^p pogona uchtovushligi orqali ajraladigan modulyatsiyalar tizimini korsatadi:

do maj. - mi bemol maj.

A musical score for two voices (treble and bass) in common time. The key signature changes throughout the progression. The notes are represented by dots on the staff, with stems indicating pitch. Below the staff, Roman numerals indicate the harmonic function at each step: I, VI^p=IV, II₆₅, DD₆₅, K₆₄, V₇, and I. The progression starts in G major (I), moves to F major (VI^p=IV), then to E minor (II₆₅), D major (DD₆₅), C major (K₆₄), G major (V₇), and finally back to G major (I).

do maj. - si bemol min.

A musical score for two staves (treble and bass) showing a harmonic progression. The progression is: I - V₇ - VI = VII^p - g - 43II - K₆₄ - V₇ - I. The score uses Roman numerals and some non-standard symbols like 'g' and '43II' below the bass staff.

Modulatsiya majordan va parallel minordan *diyez* tonal- liklar sari bajarilsa, umumiyakkord (tonallik) sifatida *yangi* tonallikning VI pasaytirilgan uchtovushligi qo'llanadi. Un- dan keyin, yangi tonallikni mustahkamlash uchun kadensiya kiritiladi.

Yangi tonallikning VI pasaytirilgan pog'onasi uchtovush- ligi orqali bajariladigan modulatsiyalarning odat tusidagi chizmalari:

A musical score for two staves (treble and bass) showing a harmonic progression. The progression is: V₆₅ - I - V₂ → III₆ = VI₆^p - II₇^g II₆₅^g - V₇ - I. The bass staff includes a circled 'F' symbol above the first note of the third measure. Below the score, the text "lya min. - mi maj." is written.

do maj. - lya maj.

I $V_2 \Rightarrow IV_6 = VI_6^p$ II $\frac{g}{65}$ DD $\frac{5}{65}$ K 64 V 7 I

Nomdosh tonika vositasidagi modulatsiya

Nomdosh tonika u m u m i y a k k o r d sifatida qo'llanil- ganda modulatsiya ko'pincha quyidagi tonalliklarga baja- riladi.

Majordan: C - As, As, B. Minordan: c - a, e, d.

Nomdosh tonikani kiritish yo'llari:

- a) avtentik kadansga major tonikasi o'rniiga minor toni- kasining kiritilishi. Bunday almashuv keyingi garmoniya rivojiga ichki turtki bo'ladi, chunki minor tonikasining ma- jor tonikasiga ko'ra turg'unlik xususiyatlari bo'shroqdir. Teskari tartib esa (minor o'rniiga – major tonikasi kiritilishi) modulatsiyalarda kam uchraydi, chunki bu holda to'sqinlik taassuroti tug'iladi;
- b) sezura orqali bo'lingan, ko'pincha o'xshash major va minor tizimlarning qiyoslanishi.

Quyida keltirilgan misol nomdosh tonika orqali baja- riladigan modulatsiya chizmasini ko'rsatadi:

C-с-В



Betxovenning 2-fortepiano sonatasidagi ikkinchi qismda Mi ♭ majordan Sol ♭ majorga modulatsiya *umumiy*, birinchi tonallikka *nomdosh* mi ♭ minor vositasida amalga oshiriladi:

L. Betxoven. Son. № 11, II.

Adagio con molt' espressione

A musical score for piano in 3/8 time. The top staff is in treble clef and the bottom staff is in bass clef. The music consists of two measures of notes and rests. Dynamic markings include "cresc", "sf", and "decresc".

Tayanch sozlar: lad, major, minor, tizim, boolingan aylanma, subdominanta, tonika, dominanta, nomdosh tonika,akkord, pasaytirilgan uchtovushliklar.

Mustaqil ish.

1. Nomdosh tizimlar.
2. Umumiyl tovushqator.
3. Major - minor.
4. Minor – major.
5. Maxsusakkordlar.
6. Akkord takibi.
7. Modulyatsiya.

Adabiyot: Бершадская Т. Лекции.(В boylimi)

Azimova A. Garmoniya. 5 bob.

Григорьев С. С. Гармония. (XI bob)

Tahlil :

Betxoven. Sonata №16. 1q.

Yozma ish. Fortepianoda chalish.

Алексеев. Задачи. №№585, 589, 590.

Nomdosh major minor tizimiga xosakkordlar bilan davriyani tuzish va chalish.

Nomdosh tizimiga xosakkordlar orqali modulyatsiyalarni chalish.

Talabalarni aktivlashtirish uchun :

- 1.Mi majordan VI pasaytirilganakkordi orqali qanday tonalliklarga bevosita modulyatsiyani bajarish mumkin?
2. Fa majordan Lya bemol majorga qanday nomdoshakkordi yordamida modulyatsiyani bajarish mumkin?

3. Sol minorning nomdoshakkordlarini aytib o'ting.

5. PARALLEL MAJOR-MINOR


Parallel major — minor parallel garmonik ladlarni birlashtirish natijasida xosil bo'ladi. Masalan, garmonik Do major — garmonik lya minor.

Maxsusakkordlar:

- a) majorga — garmonik minorakkordlarining o'tishidan
- b) minorga — garmonik majorakkordlarining o'tishidan
(IV^g- II₇^G) paydo bo'ladi.


Natijada major — III pog'onasi major uchtovushligi bilan, minor — VI pog'onasi minor uchtovushligi va kamaytirilgan kvintali kichik septakkord bilan boyitiladi:

Do major



lya minor

«Shubertakkordi» «Raxmaninovakkordi»



Major VI^G pog'onasining (lya bemol) minor VII^G pog'onasi (sol#) bilan engarmonik mos kelishi tufayli garmonik rivojlantirish jarayonida bir laddan boshqasiga osongina o'tish imkoniyati tug'iladi. Bu esa ko pincha har ikkala tonikalarning teng huquqli bo lishiga sharoit yaratadi.

Major III pog'onasining major uchtovushligi (III^{maj})

Parallel tizim shakllanishining dastlabki bosqichlarida III^{maj} parallel minorning dominantasi sifatida namoyon bo ladi. U yarim kadansda D o rnida kelsa, ikkinchi jumlada ko pincha o zining tonikasiga yechiladi.

Asta sekin III^{maj} uchtovushligini qo llashda uning paralleli bilan aloqasiga kamroq urg'u beriladi vaakkord bevosita major tizimiga kiritiladi:

N.Rimskiy-Korsakov «Olmas Kashchey», 2 k.

Allegro non troppo

Navbatdagi misolda III^{maj} pog onasi uchtovushligi bevo sita avtentik aylanmaga kiritilgan:

M. Musorskiy. «Boris Godunov». II k.

Poco più mosso

The musical score is a three-staff arrangement. The top staff is for the Bassoon, showing a continuous eighth-note pattern. The middle staff is for the Trombone, which starts with a sustained note followed by a rhythmic pattern, with a dynamic marking 'f' above it. The bottom staff is for the Double Bass, providing harmonic support with sustained notes and chords. The key signature is one flat. The bassoon part continues its eighth-note pattern throughout the measure. The trombone part ends with a harmonic marking 'V III maj.' and the double bass part ends with a harmonic marking 'I'.

Minor VI-pog'onasining minor uchtovushligi (VI^{MIN})

VI^{MIN} pog'onasi uchtovushligi ko□pincha «Shubertakkordi» deb yuritiladi. Negaki, F.Shubert ijodida mazkur uchtovushlik parallel tizim uchun xarakterli aylanmalarda qo□llanilgan.

Xususan ushbuakkord Shubertning mashhur «Boshpana» qo□shig'iga qulminatsiyasiga kiritilishi diqqatga sazovordir (№ 168).

Biroq, qator hollarda minorda VI^{min} qo□llanishi diatonik VI pog'ona uchtovushligi o□rniga kiritilgan nomloshakkord deb izohlashga ham asos beradi.

F. Shubert. «Boshpana».

Minorning kamaytirilgan kvintali kichik septakkordi

Mazkurakkord S.Raxmaninovning shunga o□xhash garmoniyalarga moyilligi tufayli «Raxmaninovgarmoniyasi» nomini oldi. Bu garmoniya nafaqat

parallel minor — majorakkordi sifatida, balki garmonik minorning tersiyasi oрнida kvartali VII pog'ona terskvartakkordi sifatida ham talqin etiladi (№ 169 a):

The image shows two musical chords side-by-side. The left chord is labeled "parallel lya minor-major" and consists of three notes: B (root), D (third), and F (fifth). The right chord is labeled "lya minor" and consists of three notes: E (root), G (third), and B (fifth). Below the chords, the Roman numeral "VII⁴₃" is written.

parallel lya minor-major lya minor

Quyidagi misolda mazkurakkord «Raxmaninov garmoniyasi»ga xos boлган parallel yurish bilan tonikaga yechiladi:

S. Raxmaninov. «Aleko».

«Nuroniy hikoyasi».

The image shows a musical score for piano and voice. The piano part (top staff) is in 12/8 time, with a dynamic marking of **p**. The vocal part (bottom staff) is also in 12/8 time. The music consists of several measures, with a prominent harmonic change occurring around measure 5, indicated by a sharp sign above the bass clef and a greater than symbol (>) above the piano staff.

Moderato espressivo

Tayanch sozlar: majoro-minor, parallel, garmonik minor, garmonik major, pasaytirilgan uchtovushliklar.

Asosiy tushunchalar va atamalar.

- 1. Garmonik major.**
- 2. Garmonik minor.**
- 3. Akkord.**
- 4. Funksiyaviy tamoyil.**
- 5. “Shubertakkordi”.**
- 6. “Raxmaninov” akkordi.**
- 7. Tersiya qatorlari.**
- 8. Major - minor.**
- 9. Minor - major.**

Mustaqil ish.

Tahlil: Рахманинов. Мелодия. №3.

Рахманинов. Отрывок из Мюссе.

Adabiyot: Бершадская Т. Лекции. (В боюлами)

Azimova A. Garmoniya. 5bob.

Григорьев С. С. Гармония. (XI bob)

Yozma vazifa:

Мясоедов. Задачи. №244, 245, 246.

6. BIR TERSIYALI TIZIMLAR

Bir tersiyali tizim yarim ton oralig'ida joylashgan va umumiyligi tersiyaga ega bolgan major va minor ladlar qoshishli natijasida sodir boladi (Do major—do# minor). Keltirilgan misollarda bir tersiyali tizim umumiyligi tovushqator sifatida shakllanishi jarayonining chizmasi korsatilgan:

The image shows two musical staves. The first staff, labeled "do major", consists of notes A, B, C, D, E, F, G. The second staff, labeled "do diyez minor", consists of notes A, B, C, D, E, F#, G#.

The image shows two musical staves. The first staff, labeled "lya minor", consists of notes A, B, C, D, E, F, G. The second staff, labeled "lya bemol major", consists of notes A, B, C, D, E, F, G. Below these staves is the title "Bir tersiyali lya minor-major".

The image shows a musical staff with numbered notes below it. The notes are: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11. The notes correspond to the sequence: A, B, C, D, E, F, G, A, B, C, D.


Nomdosh tizimga oxshab, bu tizim ham ikki turda mavjud:

1. Bir tersiyali major — minor tizimi. Bu holda major yarim tonga baland joylashgan minor ohangdoshliklari bilan murakkablanadi va major uchtovushligi tonika ahamiyatiga ega boladi:

The image shows a musical staff in common time (C) with a key signature of one sharp. The sequence of chords is: G major, A major, G major, A major, G major, A major, G major, A major, G major, A major.

2. Bir tersiyali minor — major tizimi. Bu holda minor yarim ton pastda joylashgan major ohangdoshliklari bilan murakkablanadi:

Bir tersiyali lya minor-major



Nomdosh va parallel tizimlarga qaraganda bir tersiyali tizimning juda muhim farqi bor, zero, unda maxsusakkordlar ladning asosiy pog'onalarida joylashadi.

Bir tersiyali major — minorda I, IV va V balandlantirilgan pog'onalarda tuzilgan minor uchtovushliklari va ularning parallel major uchtovushliklari:



I, IV va V o'zgargan pog'onalarda tuzilganakkordlar, diatonikakkordlarga o'xshab, T, S va D funksiyalariga ega- dir. Masalan, bir tersiyali do major-minorda ikkita T, ikkita S va ikkita D qo'llanilishi mumkin.

Ladda oltita asosiy uchtovushlik mavjudligi butunlay yangi va o'ziga xos garmonik yonalishlar tug'ilishiga sabab boladi.

Keltirilgan misolda bir tersiyali tonikalar (mi \flat minor va Re major) bevosita taqqoslangandir:

A. Borodin. «Knyaz Igor». I.

The musical score shows two staves. The top staff is in treble clef and 3/4 time, with a dynamic marking 'mf'. The bottom staff is in bass clef and 3/4 time. The music consists of several measures of chords and rhythmic patterns. Labels 'I₆' and 'I₆^{bt}' are placed below the bass staff under specific chords.

Andantino

D. Kabalevskiyning «Vals ohanglarida» asarida avtentik aylanishning oлziga xosligi shundan iboratki, tonikadan keyin oddiy dominanta qatorida bir tersiyali dominanta kiritilgan:

D. Kabalevskiy. «Vals ohanglarida».

Allegretto contabile

The musical score shows two staves. The top staff is in treble clef and 3/8 time, with a dynamic marking 'p'. The bottom staff is in treble clef and 3/8 time. The music consists of eighth-note patterns. Labels 'V' and 'I' are placed below the bass staff at the end of the measure.

Asosiy tushunchalar va atamalar.

Bir tersiyali tizimlar.

Umumiyl tovushqator.

Major - minor.

Minor - major.

Maxsusakkordlar.

Xromatik tizimlar.

Akkord takibi.

Mustaqil ish

Tahlil: Прокофьев. Тарантелла Op.65, №4.

Шопен. Вальс. Op.64, №4.

Прокофьев. Гавот. Fis moll .

Yozma vazifalar:

Мясоедов. Задачи. №247.

Берков. Степанов. № 201.

Fortepianoda chalish.

Bir tersiyali tizimiga xosakkordlari bilan ikki davriyani chalish.

Nomdoshakkordlari orqali bajariladigan modulyatsiyalar.

Adabiyotlar.

Azimova A. Garmoniya. Nazariy kurs. T., 1999.

Мясоедов А. Учебник гармонии. М., 1983

Тифтиди Н.Ф. Теория однотерцовой и тонально хроматической системы\\Вопросы теории музыки, вып.2. М., 1970.

7.Xromatik major-minor tizimi.

Xromatik tizimi XVII – XX asrlarda shakllanib rivojlangan. Bu – majoro-minor tizimidir. Xromatik majoro-minor tizimini xarakterlaydigan holati bu – bir laddagi majorli va minorliakkordlarning va tonaliklarning o‘zaro aloqasi bo‘lib, ular xromatik yarimton oralig‘ida joylashib umumiy tovushga ega bo‘lmaydi (C-Cis yoki c-cis). Birinchilardan bo‘lib 30-yillarda bu hodisaga Yu. Tyulin ahamiyat bera boshlaydi («Uchenie o garmonii» ishida). Kuzatuvlар jarayonida xromatikani kelib chiqishini, tabiatini, turlarini ko‘rib tahlil qilgach, «Xromatika diatonikaning o‘zidan kelib chiqadi» deb ta’kidlaydi. Yoki:

1. diatonik tuzilishdagi tonlarni qisman o‘zgartirish natijasida; yoki
2. turli diatonik tizimlarni nomdosh tonalikda ustma-ust kelishi natijasida (lad modulyatsiyasi); yoki
3. diatonikani tonal sozlanishi sifatida, ular diatonik tizimning turli tonaliklarini birlashtirishga intiladi, natijada tonal doirasi kengayadi (tonal modulyatsiya). Barcha holatlarda ham xromatika diatonika asosini murakkablashtirib, kengaytirib, boyitadi, lekin uni buzmaydi.

Motsart va Betxoven ijodiyotida xromatik tizimni ko‘rish mumkin. Ayniqsa, 1-qismlarning tonal plani o‘ziga jalg etadi (B-G-B-Ges-B). Xususan Betxovenning or.106 fortepiano uchun sonatasida xromatikakkordlarni taqqoslash yo‘li ko‘rsatilgan: III qism yakunida Fis-dur tonikasi va IV qism kirishida B-dur tonikasi keltirilgan.

Xromatik tizimning ifoda vosilalari ko‘pchilik kompozitorlar tomonidan ishlatilgan. Ayniqsa zamonaviy musiqada bu yorqin namoyon bo‘ladi (Prokofyev, Shostakovich). Masalan:

A) V.A. Motsart «Rekviyem» №6 a-as;

- B)** L.V. Betxoven «7 simfoniyasi» 1-qism, koda A-As;
- S)** E. Grig «Lirik pyesa» o□.57, №36 D-Des;
- D)** M.P. Musrgskiy « Boris Godunov» prologdagi xor f-fis;
- E)** D.D. Shostakovich «5-simfoniyasi» 1-qism, h-b.

Xromatik tizim – murakkab lad tizimi bo□lib, u 2 tizimning ko□shilishi (ya’ni bir tersiyali va nomdosh) natijasida hosil bo□ladi. Birtersiyali va nomdosh tizimdan o□zaro farqlanishi:

- 1) Kalit belgilarining farqi ortdi ya’ni (7 ta) birladli xromatik tonaliklarda kalit belgilari ko□paydi (nomdosh tonalikda C-c 3 belgiga farq, birtersiyali tizimda C-cis 4 ta belgiga).
- 2) Xromatik o□zgargan pog□onalarning soni ko□paydi (nomdosh tizimda III, VI, VII; birtersiyali I, II, IV va V) ya’ni barcha pog□onalar 2 variantga ega bo□lishadi.
- 3) Nomdosh tizimda 10 pog□ona, birtersiyali tizimda 11 pog□ona, xromatik tizimda 14 ta – 7 asosiy, 7 ta xromatik o□zgargan. Asosiy uchtovushliklar xromatik aralash kelgan paytda xromatik tizim paydo bo□ladi.

Xromatik majorning maxsusakkordlari I, IV, V ko□tarilgan pog□onalardan tuzilgan major uchtovushligi va ularning parallelari ya’ni C-dur ning tonikasi Cis da xromatik tonika bo□ladi.

Xromatik minorning maxsusakkordlari I, IV, V ko□tarilgan pog□onalardan tuzilgan minor uchtovushligi va ularning parallelari, ya’ni c-moll ning tonikasi cis-moll da xromatik tonika bo□ladi.

Shu tufayli xromatik tizimda oltita asosiy uchtovushlik hosil bo□ladi.

Natijada xromatik major ladi xromatik yarimton yuqorida yoki pastda joylashgan major ohanglari bilan boyitilgan lad hisoblanadi.

Xromatik minor ladi esa xromatik yarimton yuqorida yoki pastda joylashgan minor ohanglari bilan boyitilgan lad hisoblanadi.

C dur

c moll

Zamonaviy musiqada tonikaning turli koordinishlarini keng qo'llanilishi yolg'a qo'yiladi. Bunga misol qilib, Prokofyevning re minor «Tarantella»sini (or.65, №4) olish mumkin, unda nomdosh (d-D), birtersiyali (d-Des), xromatik (Des-D) tonikalar qo'llanilgan.

Xromatik tizim mantiqan tonal nuqtayi nazaridan katta bo'limgagan tuzilmalarda va shuning bilan birga asarning qismlarida ham keng qo'llaniladi.

Xromatik tizim – bu majoro-minor tizimi bo'lib, klassik garmoniya negiziga asoslanadi, ya'ni u tonalik vaakkordlarning funksiyalarini yangicha murakkabroq koordinishlarini rad etmaydi. Shu nuqtayi nazaridan xromatik tizim dodekafoniya, atonal tizimdan farqlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, birinchidan, xromatik tizimning nazariyasi zamonaviy kompozitorlarning ladogarmonik tilini tushunishga va ilg'ab o'zlashtirishga imkon yaratadi; ikkinchidan, hozirgi kunda major va minorning imkoniyatlari batamom yoqolgani yoq, ya'ni major va minorni kengaytirilishi

natijasida ushbu ladlarni keyingi rivoji kompozitorlar tomonidan yuqori darajali badiiy asarlar yaratilishi natijasida isbotlanadi.

Mustaqil ish:

1. Xromatik tizimlar.
2. Umumiy tovushqator.
3. Major - minor.
4. Minor - major.
5. Maxsusakkordlar.
6. Akkordlar tarkibi.

Tahlil: Прокофьев. Тарантелла Op.65, №4.

Рахманинов. «Паганини мавзусига рапсодия».

Григ «Лирик пьеса» оп.57, №36.

Yozma vazifalar: Мясоедов. Задачи. №248.

Берков. Степанов. № 205.

Fortepianoda chalish. Bir tersiyali tizimiga xosakkordlari bilan ikki davriyani chalish.

Nomdoshakkordlari orqali bajariladigan modulyatsiyalar.

Adabiyotlar.

Azimova A. Garmoniya. Nazariy kurs. T., 1999.

Мясоедов А. Учебник гармонии. М., 1983

Тифтикиди Н.Ф. Теория однотерцовой и тонально хроматической системы\\Вопросы теории музыки, вып.2. М., 1970.

II. POLIQATLAMLIK

Ko \square povozli tizimning har xil qatlamlarga ajralishi zamonaviy musiqaga xosdir. Ko \square povozlikning bu turi **poliqatlamlilik** deb ataladi.

Musiqa bayonining qavatlanishi aniq sezilishi uchun, uning har bir qatlami o \square ziga xos (spesifik) xususiyatlarga ega bo \square lishi zarur. Ya’ni mustaqil bo \square lib, mantiqan rivojlanishga, qo \square llaniladigan vositalarga (faktura, tuzilish, tonallik, funksionallik, lad va ritm) ega bo \square lib, boshqa qatlamlarga qarama-qarshi kelishi lozim. Ba’zi vaqtarda esa bu qarama-qarshilik oddiy registrlarning taqqoslanishi natijasida ham paydo bo \square lishi mumkin.

Poliqatlamlilik musiqa to \square qimasini tashkil etuvchi turli negizlari yaxlitligini va o \square zaro uyg \square unlashuvini namoyon qiladi. Ushbu hodisa, avvalambor, garmoniyaning polifoniyalashtirishda yuzaga keladi, chunki poliqatlamlilik doimo turli mustaqil gorizontal qatlamlarning vertikalda birlashganligini ko \square rsatadi. Shuning uchun ushbu hodisa ilmiy adabiyotda «Qatlamlar polifoniysi» deb ham yuritiladi.

Shu bois, alohida ta’kidlash joizki, poliqatlamlilik faqat bir xil musiqa tizimlari asosida tashkil topmay (masalan: garmoniya va garmoniya, monodiya va monodiya, polifoniya va polifoniya), balki har xil tizimlarning birligini namoyon qilishi mumkin (garmoniya va monodiya, garmoniya va polifoniya, monodiya va polifoniya). Qatlamlar soni ikki va undan ortiq bo \square lishi mumkinligi hisobga olinganida, poliqatlamlilikning qavatlarini birlashtirishda turlicha imkoniyatlar yuzaga keladi.

Poliqatlamlilikning ikki farqlanadigan tizimlardan iborat bo \square lgan holatini ilmiy adabiyotda «gomofonik polifoniya» yoki «polifonik garmoniya» deb atashadi¹. Ikki tizimning bir-biri bilan aloqadorligi va chambarchas bog \square liqligini

¹ Bu haqda quyidagi tadqiqotlarni qarang: Холопов Ю. Очерки современной гармонии. –М., 1974, 51-94-бетлар; Бершадская Т. Лекции по гармонии. –Л., 1978.

e'tiborga olgan holda, xar ikkala atama ham nazariy adabiyotlarda keng qo'llaniladi.

Garmoniyada poliqatlamlilikning qavatlarini qarama-qarshiligi uchta asosiy shakllarda namoyon bo'ladi – poliakkordlik, polifunksionallik va politonallik.

1. Poliakkordlik

Musiqa toqimasida ikkita yoki bir necha mustaqil shakllangan va bir-biridan aniq ajralgan ohangdoshliklarning bir vaqtdagi qo'shilishi poliakkordlik deb ataladi.

Poliakkordlikni tashkil qiladigan ohangdoshliklarning har biri o'z tuzilishiga va interval tarkibiga ega. Masalan, umumiyligining vertikalning unsurlari sifatida bir uchtovushlik boshqa uchtovushlik yoki septakkord bilan, tersiyaviy ohangdoshlik tersiyasiz ohangdoshlik bilan, tersiyasiz majmua boshqa tersiyasiz majmua bilan uyg'unlashishi mumkin.

Poliakkordlikni idrok qilinishiga ko'pincha faktura – akkordning bayon etilish yo'li va uning tonlari bir yoki har xil registrlarda joylashganligi sababchi bo'ladi.

Bir xil intervallar tarkibidagi ohangdoshliklar joylashuviga qarab ba'zi holatlarda yaxlit kompleks sifatida, ba'zi holatlarda esa aniq poliakkordlik tuzilmadek anglanishi mumkin. Ayniqsa ushbu xususiyat ko'p tersiyaviy ohangdoshliklarning qo'llanilishida aniq seziladi (5-6-betlarga qarang).

2. Polifunksionallik

Musiqa toqimasining qatlamlarga ajralishi ularning funksional qarama-qarshiligi natijasida kelsa, ya'ni bir ladotonallik ichida har xil garmonik funksiyalar

ustma-ust qo'llanilsa, buni polifunctionallik deb atashadi. Masalan: $\frac{D}{T}$, $\frac{T}{D}$, $\frac{T}{S}$ va hokazo.

Polifunctionallikning eng oddiy shakli organ punktlar orqali namoyon bo'llishi mumkin. Bu usul Yevropa klassik kompozitorlariga juda yaxshi ma'lum bo'lib, XX asr musiqasida o'ziga xos o'zgarishlarga uchragan. Polifunctionallikning ushbu turi musiqaning garmonik tuzilish xususiyatlarida va ohangdoshliklarning ladofunktional o'zaro aloqalarida o'z ifodasini topgan. XX asr kompozitorlari bu vositani kengaytirilgan diatonika va xromatika tizimlari asosida qo'llashgan.

Polifunctionallikning fakturaviy shaklini eng tarqalgan turi – bu yuqoridagi ovozlarni basga qarama-qarshiligidir. Ushbu sharoitdaakkordlarning lad funksiyasini aniqlashda fakturaning ahamiyati juda katta bo'ladi. U har xil tovushli unsurlarni bir garmonik vertikalga birlashtiradi yoki ohangdoshliklarni subsistemalarga ajratadi:


3. Politonallik

Politonalik – musiqa to'qimasi qatlamlarida bir paytda yangraydigan har xil tonalliklarning uyg'unlashuvindir.

Politonalik polifunctionallik va poliakkordlikka o'xshab, turli-tuman tuzilishlarda va fakturaviy shakllarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, tonalliklari farq qiladigan garmonik komplekslar yoki kuylarning birgalikda rivojlanishida ifodalanadi.

Politonalikning eng tarqalgan turi – kuy va uning jo'rligi har xil tonalliklarda uyg'unlashib kelishidadir.

O'zbek kompozitorlari tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy vositalar doirasiga poliqatlamlikning yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch turi (poliakkordlik, polifunctionallik va politonalik) kech kiritilganligi tufayli, ushbu vositalar o'zbek kompozitorlari ijodida nisbatan kam o'rin egallaydi.



Mustaqil ish.

Adabiyot.

1. A.Azimova, Sh.Ibragimova. Ozbekiston kompozitorlari ijodiyotidaakkordlar tarkibi. T.,2015.
2. Мазель Л.А. Проблемы классической гармонии. –М., 1972.
3. Мюллер Т. Гармония. –М., 1982.
4. Паисов Ю. Политональность в творчестве советских и зарубежных композиторов XX века. –М., 1977.

Tahlil: N.Zokirov. «Kichik syuita»; S.Varelas. «Vals».

Seminar. Nazorat savollar va vazifalar:

- 1.Alteratsiya deganda nimani tushunasiz?
- 2.Musiqada alteratsiyaning o'rni?
3. "Prokofyev"akkordini tuzing va yeching;
4. "Raxmaninov"akkordining o'ziga xos tomoni nimada?.
5. Nomdosh major- minorga xosakkordlar ladotonallikka qanday xususiyatlar baxsh etadilar ?
6. Nomdosh minor - majorga xosakkordlar ladotonallikka qanday xususiyatlar baxsh etadilar ?

7. Parallel major- minor tizimiga xosakkordlarni yozib bering.
8. Bir tersiyali minor- major tizimiga xosakkordlarni yozib bering.

Talabalarni faollashtirish uchun savollar bilan murojaat qilish:

1. Bir tersiyali tizimda Sol majorda qanday yangiakkordlar mavjud?
2. Xromatik tizimida Fa majorniakkord tarkibini tuzing.
3. Bir tersiyali tizim qanday tonalliklarni qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi?
4. Mavzuga taalluqli adabiyotlar haqida ma'lumot bering.

III. Lad

1. Lad ta'rifi.

«Lad» tushunchasi slavyanchadan kelib chiqqan bo'lib, balandlik tizimi tonlarining o'zaro moslanishi ma'nosini anglatadi.

Lad turg'un va noturg'unlikning o'zaro dialektik ta'sirida ifodalanuvchi printspidir. U musiqaning asosiy ikkinchi darajali, asosiy — tobe, markaz — doiralanish va boshqa sifatdagi intonatsion — ma'noli holatlarining mantiqiy asosini tashkil etadi.

Musiqiy tilning rivojlanish jarayonida lad haqidagi tasavvurlar sezilarli taraqqiyotni boshidan kechirgan. Ladning so'nggi ikki asrlarda Yevropa kompozitorlari ijodida yuzaga kelgan qonuniyatlarni o'rganishga asoslangan ta'rifi ko'proq ma'lum. Atoqli pedagog — nazariyachi I.V. Sposobi tomonidan ladga berilgan quyidagi ta'rif ana shu nuqtayi nazarni ifodalaydi: «Lad - bir tovush yoki ohangdoshlik ko'rinishida tonika markazi yordamida birlashtirilgan tovush aloqalarining tizimidir». (23, 24 b.). Bu ta'rif ladi yuqori darajali markazlashtirilgan XVIII — XIX asr kompozitorlari musiqasini o'rganish asosida ishlab chiqilgan. Shuning uchun ham olim tonika va ohangdoshlikka alohida e'tibor bergenligi ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga, keyingi oлn yilliklarda XX asr garmoniyasini izchil оrganish, klassik garmoniyagacha mavjud boлgan garmoniyani mufassal tadqiq etish, ladlarning xususiyati yuqorida koлrsatilganlardan keskin farqlanuvchi tabiatga ega boлgan monodik musiqa qonuniyatlarini оrganish bois, lad tushunchasining kengaytirilishi zarurati tugлildi. Ladning oxirgi va kengroq ta'riflaridan biri quyidagicha: «Lad — bu tovush balandligi aloqalarining tizimliligidir» (34, 29 b.). Bu ta'rifda markaziy tovush yoki ohangdoshlikka tortilish тоgлrisida gap yoлq, tizim esa ladning asosini tashkil etuvchi belgi sifatida koлrsatiladi. Bundan kelib chiqadiki, ladni tashkil qiluvchi tovushlar funktsional jihatdan teng ahamiyatga ega emas, ular оз mazmuniga koлra tadrij qilingan va shu bois озaro muayyan munosabatlarda boлladilar.

2. Lad tasnifoti

Lad shakllanishi mexanizmi uchun alohida ahamiyat kasb etgan *lad tovushqatori* nuqtayi nazaridan, lad tizimi bir nechta asosiy turlarga boлlingan:

1. Ekmelika – aniq balandlikka ega boлlмаган tizim hisoblanib, turgлun tonlarning melizmatik (balandligi aniq boлlмаган) kuylanishi bilan xarakterlanadi.

2. Angemitonika – (yarim tonsiz), aniqroq qilib aytganda, angemiton pentatonika koлrinishi Osiyo, Afrika, Yevropa kabi davlatlarning qadimgi madaniyatlariga xosdir. Angemitonikaning konstruktiv tamoyili – tonlarning kuchli konsonanslar bilan munosabatidir.

3. Diatonika (sof kvinta boлyicha joylashgan 7 pogлonali tizimdir) va **miksodiatonika** – eng koлp tarqalgan lad tizimi turlaridan biri hisoblanadi. Diatonikaning konstruktiv tamoyillari xilma-xil boлlib, muhim ikki guruhlardan iboratdir:

a) *kvintaviy* (yoki pifagor) *diatonika*;

b) uchtovushli (yoki sof) sozlangan diatonika;

Miksodiatonika aralash yoki qorishgan shakllarda gavdalanishi mumkin.

4. *Gemiolika* – orttirilgan sekundali tovushqatordan tarkib topgan lad turi hisoblanib, qadimgi yunon, hind, yaqin sharq va b. xalq musiqalari uchun xosdir.

5. *Xromatika* – ikki (yoki undan ortiq) yarim tonlarning ketma-ketligidir. Xromatikaning konstruktiv tamoyillari turlichadir:

6. *Mikroxromatika* – ko□pincha boshqa lad turlari bilan birlashgan holda qo□llaniladi. Mikroxromatika namunalari yunon enarmonik turdag'i tetraxordlarda, sharq va xalq musiqasida uchraydi. XX asrda kompozitorlik ijodida mikroxromatik vositalarning ifodaviy imkoniyatlariga qiziqish tug□ilib, keyinchalik, sonoristika oqimining negizi sifatida rivojlanadi.

Asosiy atamalar va tushunchalar.

- 1. Tabiiy ladlar.**
- 2. Tovushqator.**
- 3. Nomdosh ladlar.**
- 4. Bir tarkibli ladlar.**
- 5. Turg□unlik funksiyasi.**
- 6. Noturg□unlik funksiyasi.**
- 7. Tayanch tovush.**
- 8. Angemitonika.**
- 9. Pentatonika.**

Tahlil uchun asarlar ro□yxati.

Romanovskaya Ye. O□zbek xalq qo□shiqlari. №№ 65, 68, 71, 72.

Adabiyot.

1. Azimova A. Garmoniya. T. 2004.
2. Алексеев Э. Раннефольклорное интонирование. М., 1978.
3. Холопов Ю.Н. Гармония. М., 1988.

4. Кон Ю.Г. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и ее гармонизации. Т., 1978.

Yozma vazifa va fortepianoda chalish:

1. Берков В., Степанов А. Задачи по гармонии. №№267, 269, 270 vazifalarni yozma ravishda yechish.
2. Алексеев. Задачи. 5 tsifrovkani barcha tonalliklarda fortepianoda chalish.

3. Tonal ladlar

Musiqa nazariyasida ladlarning tasnifotlari koʻp. Oxirgi oʻn yilliklarda barcha ladlar ikki katta guruhga boʻlinishi keng tarqaldi. Bu ikki guruhni *tonal* va *modal* ladlar tashkil qiladi. Guruhlarning ajratuvchi belgisi - funktsional birlilikdir. Agarda birlilikni *ton* tashkil qilsa, lad modal deb ataladi, *akkord* boʻlsa-tonal ladi hosil boʻladi.

Tonal ladogarmonik tizimi uzoq tarixiy rivojlanish jarayoni natijasida shakllangan. Uning oʻzgacha qoidalari yuzaga kelishida akustik omillar bilan uзви bogʻlangan cholq[u] musiqasi asosiy ahamiyatga ega boʻladi.

Akustik qonunlarga tayanish, ikki asosiy lad - major va minor tovushqatorlarining mustahkamligi, funktsional munosabatlari barqarorligi kabi xususiyatlarni belgilaydi.

Tonal tizimiga ichki dinamizm, keskinlik, markazlashganlik va funktsional aloqalarning boyligi xosdir.

3.1 Tonal ladogarmonik tizimning asosiy funksiyalari

Eng umumiylardan funksiyalari musiqa tizimining ikki asosiy manbai — turgunlik va noturgunlik boshqachasiga aytganda — statik va dinamik holatlarni ifodalaydi.

Turgunlik funksiyasi — statikaning ifodalanishi, ya’ni tuxtashlik hissiyoti asosida hosil boyladigan holat. Major — minorda ton yoki ohangdosh koordinishdagi markaziy unsur (element) tonikaning (T) lad funksiyasiga ega. Ladning boshqa unsurlari funksiyasi markazga munosabati boylicha belgilanadi, ya’ni tonika — funktsional aloqalarning bosh negizidir.

Noturgunlik funksiyasi — dinamikaning ifodalanishi, ya’ni tonika yoki unga qadar boylgan xarakatning davomini kutish holati. Major — minor tizimida noturgunlik muhiti dominanta (D) va subdominanta (S) qarama — qarshi funksiyalarga ajratiladi. Lad funksiyalari (S va D)ning qarama — qarshiligi tonikaga farq munosabatida ifodasini topadi.

Dominanta funksiyasi tonika tomon kuchli tortilishiga ega. Ayniqsa D — T aloqasi kuchli dinamik munosabatlarni hosil qiladi. Dominanta — markazga intiluvchi kuch, tonikaga faol yonalishi tufayli tonallikni ravshan xarakterlay oladi.

Subdominanta funksiyasi esa aksincha, tonikaga tortilishining mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Subdominanta koordincha boylaysundirish orqali asosiy tonikani inkor etishga intiladi. Shuning uchun subdominanta lad tarkibida markazdan chetlanuvchi kuchni ifodalaydi.

Tonal tizimning oleggisi hisoblangan T - S - D - T formulasi, bu tizimning funktsional yonalishini aks ettiradi. U dialektik inkorni inkor qonunining garmoniyadagi in’ikosi hisoblanadi va quyidagi rivojlanish bosqichlaridan oltadi:

- a) Boshlangich tonika keyingi rivojlanishida oleggalo munosabatda boyladigan mantiqiy tayanch sifatda qabul qilinadi;
- b) Subdominantaning mavjudligi tonikaning inkor etilishi sifatida seziladi. Bu holda tonika subdominantaning dominantasi kabi talqin etilib, tobe ahamiyatga ega boyladi;

v) Tonika tomon kuchli tortiluvchi dominanta subdominantani inkor etadi va uning markazdan uzoqlashga intilishlarini dominantaning markazga intiluvchi kuchi yengadi;

g) Yakunlovchi tonika ladofunktional xarakatdan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa sifatida anglanadi. Tonika subdominantana va dominanta orasida mavjud boʻlgan ziddiyatni yechib, qaytadan yangi xususiyat negizida hosil qilinadi.

XVII-XIX asrda tonallik tamoyili muhim oʻrinni egallagan davr hisoblanadi. Unda dinamik rivojlanish, modulyatsiya xarakatlari, alteratsiyalar asosidagi tovushqator oʻzgarishining butunlay ozodligi, yondosh D lar, xromatikakkordsiz tovushlar, ogʻishmalar kabi xususiyatlarning gavdalanishi namoyon boʻladi.

3.2. Diatonika va xromatika.

Xromatizm, xromatika yunoncha hromatismos – «boʻyash» degan maʼnoni anglatadi. Diatonika tizimidagi lad pogʻonasining yarim tonga koʻtarilishi yoki pasaytirilishi natijasida hosil boʻladi. Pogʻonaning tortilishi, akkordning funktional dinamikasini oshirib, kuy va garmoniyaning ifodaviy taʼsirchanligini kuchaytiradi. Nota yozuvida alteratsiya belgilari bilan koʻrsatiladi.

Bu tizimni tarixan rivojlanishi ladotonal aloqalar gavdalanish jarayoni bilan bogʻliq: akkordlarning kvarta – kvinta doirasida qad koʻtarishi lad markazini aniq ifodalaydi.

Xromatika mustaqil tizim boʻlib namoyon boʻlmaydi, balki diatonikaga intonatsion yangi imkoniyatlarni beruvchi tizim sifatida qabul qilinadi. Musiqa madaniyati tarixida xromatika rivojlanishning turli pogʻonalarida koʻrsatiladi: u

shartli diatonik ladrarda, modulyatsiyalarda yoki bir tonika asosida, ladning o'zgarishida kuzatiladi.

Xususan, xromatikani ijodiy o'rghanish vaqtiga asosan XVII, ayniqsa XVIII va XIX asrlarda kuzatiladi. Engarmonik teng bo'lgan tovushlarda intonatsion rang – baranglik 17 pog'onali kvarta-kvinta qatori misolida namoyon bo'ladi. XX asrga kelib xromatika lad rang-barangligini boyitdi. Diatonik yondosh dominanta va subdominantaakkordlarini xromatikakkordlar bilan o'zgartirilishi yanada kuchayadi.

Asosiy atamalar va tushunchalar.

- 1. Lad.**
- 2. Tovushqator.**
- 3. Major-minor.**
- 4. Funksiya.**
- 5. Turg'unlik funksiyasi.**
- 6. Noturg'unlik funksiyasi.**
- 7. Tonika.**
- 8. Subdominanta.**
- 9. Dominanta.**

Mustaqil ish.

Tahlil uchun asarlar ro'yxati.

1. Глядешкина З. Хрестоматия по гармоническому анализу на материале музыки советских композиторов. №№ 89, 91, 199, 101.

Adabiyot.

1. Бершадская Т. Лекции по гармонии. Л., 1978.
2. Мазель Л. Проблемы классической гармонии. М., 1972. (239-271 б.).

3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2 ж.Т., 2000.
4. Григорьев С. Теоретический курс гармонии. (273-276 б.).

Yozma vazifalar va fortepianoda chalish.

1. Берков В., Степанов А. Задачи по гармонии. №№260, 261, 262 vazifalarni yozma ravishda yechish.
2. Алексеев. Задачи. 5 tsifrovkani barcha tonalliklarda fortepianoda chalish.

Seminar. Nazorat savollar va vazifalar.

- 1.Lad tushunchasi.
- 2.Tushunchaning turli talqinlari.
- 3.Tushunchaning evolyutsiyasi.
- 4.Ladga taalluqli zamonaviy tushunchalar.
- 5.Tonal ladlar tushunchasi.
- 6.Diatonika va xromatika.

Talabalarni faollashtirish uchun vazifalar.

1. Angemiton va gemiton ladlarni *re* tovushidan tuzing va yozing.
2. Funksiyalarning o‘zgaruvchanligi
3. Ekmelik ladlarni o‘ziga xos tomonlarini yoriting.
4. Tonal ladlarni funktsional tizimining markazi- ...?
5. Musiqada tonal ladlarning o‘rnini?

4.Modal ladlar

“**Modal**”- so‘zi lotincha “modus” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, qoida, usul, qiyofa, ma’nosini anglatadi. O‘rta asr lad nazariyasida modus tushunchasi tonus, tropus atamalari bilan bog‘liq bo‘lib, cherkov ladlariga nisbatan qo‘llanilgan va O‘rta asr davrlari Renessans musiqasida lad

tuzilishi va turlarini aniqlashda keng tarqalgan atamalardan biri bolib sanaladi (modus phrygicus, modus authenticus). Osha davrda modus kuyning boshlanishi, davomi va yakuniy boylimlarini tog'ri ijro etish qoidasi sifatida namoyon bolgan.

Modus – lad atamasiga yaqin hisoblanishi tufayli ko pincha “lad” deya tarjima qilinadi. Modus klassik major-minor tizimidan farq qilgan holda, ozining markazsizligi, diatonikligi, yetakchi tonlar tortilishining yoqligi vaakkordli-garmonik tuzilish emas, balki melodik tuzilishga ega bolganligi bilan ajralib turadi.

Modallik – atamasi esa umumnazariy tomondan ladning sinonimi hisoblanadi.

Modal ladlarning asosiy turlari:

- 8 cherkov ladlari. Ular avtentik turdag'i diatonik ladlar (ioniy, doriy, frigi, lidiy, miksolidiy, eoliy, lokriy) va plagal turdag'i ladlar (gipoioniy, gipodoriy, gipofrigiy, gipolidiy, gipomiksolidiy, gipoeoliy, gipolokriy) dir;
- XX – XXI asrlarda, asosan milliy kompozitorlik maktablarida urf bolgan, *tabiiy ladlar*;
- *simmetrik (sun'iy) ladlar*.

Ushbu turlar eng ko p tarqalgan ko rinishlardan biridir. Zamonaviy musiqa texnikasida modallik - tabiiy va sun'iy ladlar asosida asar yaratish uslublaridan biri hisoblanib, modal texnikasi ba'zan seriya texnikasiga yaqinlashishi bilan ajralib turadi. Shu tufayli 12 tonli seriyalik va mikroxromatika ko rinishlari modallikning asosiy tamoyillari sifatida sanaladi. Tovushqator texnikasining yangi bosqichda rivojlanib borishi tufayli qadimgi ladlar, ya'ni moduslar - modallikning asosiy tushunchasini ifoda eta boshlaydi.

3.1.Simmetrik ladlar.

XX asr musiqasida ladlarning xromatizatsiyalashgan ko rinishlari ahamiyati keskin olsadi. Bu yerda birinchi navbatda *simmetrik* ladlarning (Yu.Xolopov atamasi) alohida guruhi ajralib turadi. Simmetrik ladlar oktavani teng

qismlarga bo \square lish natijasida hosil bo \square lib, ularda lad yacheykasi, matriksasi asosida qurish omili aniq namoyon bo \square lgan.

Simmetrik ladlar lad fikrlashuvining yangi mustaqil ko \square rinishi sifatida xizmat qilib, garmoniya rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yu.Xolopov oktava bo \square linishlari asosida simmetrik ladlarning 4 ta asosiy turlarini aniqlaydi.

Birtonli (12:6) lad (2).

Kamaytirilgan (12:4) – lad (2.1)

Orttirilgan (12:3)- ladlar (3.1 , 2.1.1)

Uch tonli (12:3) – ladlar (5.1.5.1 , 4.1.1 ,3.2.1 ,3.1.2 ,3.1.1.1, 2.2.1.1, 2.1.1.1.1.)

Simmetrik ladlarni tavsiflovchi alomatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- strukturaning simmetriyasi: ulanish tamoyiliga ko \square ra lad yacheykasining davriy qaytarilishi (bitta yacheykaning oxirgi tovushi keyingisi uchun boshlang \square ich tovush bo \square lib xizmat qiladi);

- transpozitsiyalarni chegaralash: o \square z tovushli tarkibi to \square liq mos tushmasligi mumkin bo \square lgan 12 tovushning bittasidan lad tuzilishi uchun simmetrik ladlarda transpozitsiyalash imkoniyatlari tez hosil bo \square luvchi tovushli hosilma hisobiga ahamiyatli tarzda chegaralangan. Misol uchun birinchi lad – butuntonli – faqat ikkita pozitsiyaga ega: “c” (c, d, e, fis, b) dan va “des” (des, es, f, g, a, h) dan. Hamma keyingi pozitsiyalar bu tovushli tarkiblardan birini qaytaradi.

Mustaqil ish.

Adabiyot:

1. Ю.Холопов.Модальная гармония.//Музыкальное искусство.Т.,1982, (16-19b)
2. Музыкальный энциклопедический словарь.М., 1991,(349 b)

Tahlil:

M.Bafoev. “Najotiya 1”; R.Abdullaev. “Skertso”; Giyasov N. “Variatsiya shaklidagi sonata”.

5.Tonal va modal ladlarni taqqoslama xarakteristikasi.

XX asr modalligida modallik bilan klassik funktsionallikning printsipial darajada farqlanishi holatlari ham kuzatiladi. T.Etingerning tonallik (tonal garmoniya) va modallik (modal garmoniya) ning quyidagicha ta’rifi aniqlik kiritadi:¹

“Ma’lumki klassik garmoniya – funktsional, tashkillashtirilgan va ohangdoshlar o□zaro aloqasining muttanosibligi bilan namoyon bo□lgan garmoniya hisoblanadi. U keng doiradagi major va minor asosida yuqori darajada rivojlangan lad fikrlashuvidan tarkib topgan. Bunday garmoniyani *tonal* garmoniya deb ataymiz. Funktsional davrdan oldingi garmoniya esa *modal* garmoniya deb atalishi maqsadga muvofiqdir. U O□rta asr ladlari ya’ni, moduslar bilan bog□langan lad fikrlashuvi sifatida xarakterlanadi”. Etinger shuni ta’kidlaydiki, modal garmoniya atamasining ta’riflanishi nafaqat tonal garmoniya bilan bo□lgan solishtirilishni belgilaydi balki, modal garmoniya va tabiiy ladlar garmoniyasi bilan farqni ham belgilaydi.

Bundan tashqari, tonallik va modallikning farqlanishi ushbu jadvalda yaqqol namoyon bo□lgan:

Tonal ladlar	Modal ladlar
1.Ladlar qatori: Major va minor.	1.Ladlar qatori: Diatonik yoki xalq ladlari, cherkov ladlari (grigorian va obixod), pentatonika, gemitolika, sharq xalq ladlari, simmetrik (sun’iy) ladlar

	v.h.k.z.
2.Tonal ladlar ogushida asosan cholgu musiqasi shakllangan boolib, simfoniya, konsert, kvartet, kvintet janrlarda rivojlangan.	2.Modal ladlar sun'iy koinishlaridan tashqari, ko proq vokal musiqasiga xos, vokal ovozning tabiatini va h.k.z. fiziologik tomonlari modal ladlarning quyidagi xususiyatlarini tashkil qiladi: a) oktavalarning bir-biriga funksional tengmasligi; b) turgun tovush ko pincha pastda joylashishi; v) ladning shakllanishida registrlarning ahamiyatliligi;
3.Tonal ladlar <i>avtonom</i> deb nomlanadi.	3.Modal ladlar <i>natiyaviy</i> deb nomlanadi, chunki tovushqatori ko p hollarda asarning oxirida belgilanadi.
4. Tonal ladlarning asosiy mantiqiy printsipi – subordinatsiya, ya ni tovushqatorning barcha pog onalari markaziy pog onaga tobe hisoblanadi.	4. Modal ladlarning asosiy mantiqiy printsipi – koordinatsiya, ya ni tovushqatorning pog onalari ozaro bir-biriga boysunadigan hisoblanadi.
5.Tonal ladlar oktavali tizimlardir.	5.Modal ladlar oktavali tizim qatorida, kichik hajmli - trixord, tetraxord, pentaxord, geksaxord, oktavadan oshadigan tovushqatorlardan tashkil topishi mumkin.
6.Tonal ladlarda pog onalar funksiyasi va aloqalari ozgarmaydi.	6. Modal ladlarga ozgaruvchanlik xos boolib, quyidagi alomatlar bilan

	xarakterlanadi: a) O'zgarmas tovushqator asosida turg'un pog'ona o'zgaradi; b) O'zgarmas turg'un pog'ona asosida tovushqator o'zgaradi;
7.Tonal ladlar markazlashtirilgan ladlardir. Turg'unlikni ifodalovchi vositalar: a) D ni T ga kuchli tortilishi; b) metr-ritm orqali ovozlarni bo'rttirib qo'llash; v) tonikani kuchli hissada kiritish; g) T ni shakl jihatidan muhim qismlarda joylatirish;	7. Modal ladlar sust markazlashtirilgan ladlar hisoblanadi. Bu yerda T tushunchasi umuman ishlatilmaydi, ya'ni tayanch, turg'un kabi atamalar qo'llaniladi. Sust markazlashgan ladlar asosan quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: a) turg'un tovush aniq belgilanmagan; b) turg'un tovush asarning boshi va oxirida namoyon bo'lgan;
8. Tonal ladlarda turg'un va noturg'un pog'onalarning soni aniq bo'ladi.	8.Modal ladlarda turg'un va noturg'un pog'onalarning soni o'zgaruvchan bo'ladi.
9.Tonal ladlarga xos ichki birligi funksional aloqalarga asoslanadi.	9. Modal ladlarning birliligi tovushqatorga asoslanadi.
10.Tonal ladlarning asosiy tayanch tovushlari uchtovushlikni tashkil qiladi. Pog'onalarning aloqalari asosan kvarta-kvinta, kam hollarda esa sekunda, tersiya nisbati asosida gavdalanadi.	10. Modal ladlarda turg'un tovushlar ko'pincha I, IV, V pog'onalarda joylashadi,

Xulosa qilib shuni aytish joizki, zamonaviy musiqashunoslikda ladlarning tarixiy koʻppirraliligi ikki fundamental tamoyil, yaʼni modallik va tonallilikga olib keladi. Shunday qilib, modal ladlar – lad tovushqatorlariga boʻysunadigan, tonal ladlar esa markaziy tovush yoki ohangdoshga tortiladigan tizim sifatida xarakterlanadi. Tonal va modal alomatlar aniq bir musiqiy asarda turlicha qorishishi ham mumkin.

Asosiy atamalar va tushunchalar.

1.Tonal ladlar

2.Modal ladlar

3.Cholgʻu va vokal musiqa

4.Registr

5.Tembr

6.Koordinatsiya

7.Subordinatsiya

Mustaqil ish.

Adabiyot:

1. NURITDINOVA H. Oʻzbekiston komʼozitorlari ijodiyotida modallik. T.,2015.(Konspekt.1 bob).
2. Холопов Ю.«Гармония». Теоретический курс. М., 1988.

Yozma vazifalar:

Берков,Степанов. Задачи. Приложение. №№ 1,2.

Tahlil: F.Yanov-Yanovskiy. «Idee Fixe».

\

IV. TABIIY LADLAR GARMONIYASI (1,2)

1.KIRISH

XIX asrdagi yangi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar turli mamlakatlarda oʻz isteʼdodini milliy kompozitorlik maktabini shakllantirishga bagʼishlangan bir guruh ijodkorlarni yetishtirib chiqardi. Ularning nomlari bilan umuman garmonik

ko□povozlik rivojlanishini boyitgan ulug□ kashfiyotlar, topilmalar bog□liq. Ushbu jarayonga har biri o□z o□rnida – F.Shopen, M.I.Glinka, N.A.Rimskiy-Korsakov, A.P.Borodin, M.P.Musorgskiy, Ye.Grig kabi kompozitorlar karvonboshlik qilishgan.

Rus, polyak, chex, venger, norveg va boshqa milatlarning xalq musiqasi tabiiy ladlar negizida asoslangan. Milliy kompozitorlik musiqaning namoyon bo□lishi uchun mazkur ladlarga asoslangan kuylar bilan mos bo□ladigan garmonik vositalarining qonuniyatlarini izlab topish o□sha davrning dolzarb muammolaridan biri edi. Ushbu murakkab masalani ijobiy hal etishda har bir milliy musiqa maktabi uzoq izlanish yo□lini bosib o□tgan.

O□zbekistonda esa, bunday jarayon boshqa Sharq mamlakatlari qatori, XX asrning birinchi yarmidagina boshlangan. Unda dastlabki avlod kompozitorlari V.A.Uspenskiy, A.F.Kozlovskiy, G.A.Mushel, M.Burxonov, Muxtor Ashrafiy va boshqa ijodkorlarning xizmatlari katta.

2.Tabiyy ladlar garmoniyasida tersiya bo□yicha tuzilganakkordlar

Tabiiy ladlar guruhini – ioniy, doriy, frigiy, lidiy, miksolidiy, eoliy va lokriy ladlari tashkil qiladi. Ushbu ladlarni tasniflash quyidagicha bo□ladi:

The image displays six musical staves, each representing a different mode:

- ioniy ladi**: C major scale (C-D-E-F-G-A-B-C)
- doriy ladi**: G major scale (G-A-B-C-D-E-F-G)
- frigiy ladi**: F major scale (F-G-A-B-C-D-E-F#)
- lidiy ladi**: E major scale (E-F#-G-A-B-C-D-E)
- miksolidiy ladi**: C major scale with a B-flat (C-D-E-F-B-flat-G-A-C)
- eoliy ladi**: C major scale with a G-sharp (C-D-E-G-sharp-B-C-D-E)
- lokriy ladi**: C major scale with a G-sharp and a B-flat (C-D-E-G-sharp-B-flat-C-D-E)

Tabiiy ladlar bir tovushqatori pogonalarida tuzilib, bularda faqat tayanch tovush o'zgaradi. Ushbu holda ladlar “bir tarkibli” deb nomlanadi. Tabiiy ladlar bir tovushdan tuziladilar (masalan “do” tovushidan va “nomdosh” deyiladilar):

The image shows two musical staves illustrating specific modes with altered notes:

- Top Staff:** Shows three modes with alterations:
 - frigiy ladi**: F major scale with a B-flat and an E-sharp.
 - doriy ladi**: G major scale with a B-flat and an E-sharp. A bracket labeled "dor.6" spans the first six notes.
 - frigiy ladi**: F major scale with a B-flat and an E-sharp. A bracket labeled "fr.2" spans the last two notes.
- Bottom Staff:** Shows three modes with alterations:
 - ioniy ladi**: C major scale with a B-flat and an E-sharp.
 - miksolidiy ladi**: C major scale with a B-flat and an E-sharp. A bracket labeled "miks.7" spans the first seven notes.
 - lidiy ladi**: C major scale with a G-sharp and a B-flat. A bracket labeled "lid.4" spans the last four notes.

Tabiiy ladlar garmoniyasi ikki xil tuzilmaga, ya’ni *tersiya* bo□yicha tuzilgan va *notersiyali*akkordlarga tayanadi. Dastlab shakllangan *tersiyaviy* tabiiy ladlar garmoniyasi mumtoz major-minor tizimi ta’siriga duchor bo□lganligi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun tabiiy ladlar garmoniyasi asosini quyidagi qonunlar tashkil qiladi.

Tersiya bo□yicha tuzilganakkord me’yoriy birlik sifatida belgilanadi. Asosiyakkord uchtovushlik. Septakkord va nonakkordlarning qo□llanishi cheklangan, chunki tabiiyladlarning o□ziga xosligi aynan konsonanslar izchilligida ta’sirchan namoyon bo□ladi.

Akkordlar qo□llanishida bir necha o□ziga xos usullar bo□lib kvartsekstakkordlar, uchtovushlik va sekstakkordlarga o□xshab erkin yuritiladi. To□liqsizakkordlarning kvintasi emas, balki tersiyasi tushirib qoldirilgan ko□rinishi keng tarqaladi. Ovoz yo□nalishida kuychanlikka katta urg□u berilganligi tufayli,akkord tovushlarining erkin juftlanishiga yo□l qo□yadi.

Tabiiy ladlar garmoniyasidaakkordlar va tonalliklar munosabati o□zaro funksional aloqalarga asoslanadi. Major-minor garmoniyasiga o□xshab tabiiy ladlar garmoniyasida ham uch asosiy funksiya – T, S, D mavjud.

Tabiiy ladlar garmoniyasida dominanta – ko□pincha minor uchtovushligidir. Ya’ni tonikaning asosiy toniga nisbatan yarim tonlik tortilishiga ega emas. Shuning uchun bunda avtentik izchillik – d-T ning kuchi, major-minorga qaraganda ancha zaiflashib, tonikaning markazlashtirish va umuman turg□unlik xususiyatlari pasayadi.

Subdominanta major-minor tizimida dominanta singari noturg□unlik xususiyatini namoyon qiladi. Lekin uning noturg□unligi butunlay boshqa qoidalar asosida yuzaga keladi. Dominanta tonika bilan bog□lanib, shu funksiyaga tortilsa, aksincha subdominanta o□xshash holatda mustaqillikka intiladi. Bu tonika va subdominanta o□rtasida sodir bo□lgan qarama-qarshilik dominanta paydo bo□lishi bilan yechiladi.

Tabiiy ladlar garmoniyasiga xos funksional aloqalar subdominantani tonikaga tortilishi kuchayishi bilan ajralib turadi. Tonika va dominanta funksiyalari bo\u043fshligi vaziyatida subdominanta muhim ahamiyatga molik bo\u043flib, plagal aloqalar keng tarqaladi.

Natijada, agar major-minor tizimida asosiy funksiyalar aloqalari aniq va kuchli ifodasini topgan bo\u043flsa, tabiiy ladlar garmoniyasida ushbu funksiyalar aloqalari birmuncha zaifdir.

Tabiiy ladlar garmoniyasida asosiyakkordlar qatorida, yondoshakkordlar keng qo\u043fllaniladi. Ularning ahamiyati shunchalik kuchlik major-minorga o\u043f xshabakkordlarni asosiy va yondosh guruhlarga bo\u043flish ko\u043f pincha o\u043fz mazmunini yo\u043f qotadi. Foydalanadiganakkordlarning kengayishi ularning bir-biri bilan bo\u043f ladigan munosabat shakllarini boyitadi. Kvarta-kvintaga asoslanganakkordlarning nisbatlari qatorida tersiya va sekunda nisbatlari katta joy egallaydi.

Tabiiy ladlarda asoslangan kuylar ko\u043f pincha lad-tonallik tomonidan xilmashil izohlarga yo\u043f l ochadi. Sodir bo\u043f lgan o\u043fzgaruvchanlik ladlarda yetakchi ton bo\u043f lmasligi, ladlarning barcha turlari bir tovushqatoriga (birtarkiblikka asoslanishi ehtimoli bilan bog\u043f liqdir).

Shu qator o\u043fzgaruvchanlikning yuzaga kelishi tonikani markazlash funksiyasi zaiflashuvi markazdan chetda joylashgan yondoshakkordlarning keng qo\u043fllanishi va ularning ichki aloqalarining faollashuvi bilan ham bog\u043f liqdir. Bunday vaziyat major va minor uchtovushliklari tonika sifatida izohlanishiga sharoit tug\u043fdiradi. Masalan, miksolidiy ladida tonika sifatida II, IV va VII pog\u043f onalarida tuzilgan uchtovushliklar qo\u043fllanilishi mumkin. Ushbuakkordlarning dominantalari VI, I va IV pog\u043f onalarda joylashadi.

2.1. EOLIY LADI

Eoliy ladiakkordlari jaranglashining o\u043fziga xosligi VII pog\u043f ona bilan bog\u043f liqdir. Shuning uchun VII pog\u043f onani o\u043fz tarkibiga kiritadigan dominantaakkordlari guruhi bu lad uchun xarakterli degan ta’rifga ega.

Eoliy ladi dominanta guruhiakkordlari bilan doriy guruhi tuzilishi va funktsional imkoniyatlari bo'yicha aynan bir-biriga o'xshashdir. V pog'ona uchtovushligidan III pog'ona o'tish uning bor kuchini sezilarli darajada yo'qotadi. Bundan tashqari, subdominanta guruhining butunlay aniq muhim holati bo'lib ishlatiladi: ayniqsa uniakkordikasi birovozlik ladning xarkterli belgilarini o'z ichiga oladi va tonal markazni mustahkamlashga yordam beradi. Bu guruhda VI pog'ona uchtovushligi funksional aloqalari sust, II faolroq, kamaytirilgan uchtovishlik pog'onasining xarakatlanishi yolg'iz namunasidir. Uni barcha tonlari tonika bilan asosan kvintali xarakatda melodik munosabatda bo'ladi. II ladning ikkala II va VI pog'onalari o'ziga xosligini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shu boisdan II – t izchilligi lad-xarakterlidir. Shu sababli eoliy ladida plagal kadensiyalarning ahamiyati katta.

B. Zeydman «Qo'shiq»

Ushbu qo'shiqdan parcha asosidagi lad – *c eoliyda*. Bundaakkordlar izchilligi: VI pog'ona, VII pog'ona uchtovushligi va septakkordi, tonika. VI va VII pog'onalalar xarakati ladning xarakterini berishga qaratilgan.

2. 2. DORIY LADI.

Doriy ladiga xos xarakterliakkordlar “doriy sekstani” o‘z tarkibiga kiritishi bilan shakllanadi. Bu subdominanta guruhini tashkil qiladigan major IV, II pog‘onada minor uchtovushligi va septakkodi. Tonika bilan IV va II pog‘ona uchtovushliklari birikishida plagal tusini yuzaga keltiradi.

Dominanta guruhining markaziyakkordi – IV pog‘ona major uchtovushligidir. II pog‘ona uchtovushligi markazdan uzoqroq bo‘lib, u bilan faqat melodik tortilishli aloqada bo‘ladi. Shuning uchun doriy ladining mohiyatini plagal aylanmalar, xususan S – t aloqlari belgilaydi.

S. Varelas «Afsona»

Andantino

2.3.FRIGIY LADI.

Ushbu ladning II pasaytirilgan pog‘onasi tonikadan kichik sekunda oralig‘ida joylashgan bo‘lib, “frigiyl sekunda” deb nomlanadi. Frigiyl toni bilan tuziladiganakkordlar II major uchtovushligi va septakkordi, VII pog‘onaning minor uchtovushligi o‘zining jozibali yangrashi bilan diqqatni jalb etadi.

Frigiy ladini boshqa ladlar bilan solishtirganda dominanta guruhining individuallashganakkordlariga ega: kamaytirilgan V pog‘ona uchtovushligi, minor VII pog‘ona va III pog‘ona majorlar. V pog‘onaakkordida qo‘shimcha

tovushning yetishmasligi, uning tarkibida triton mavjudligiakkordning funksional qiyimatini belgilab beradi.

VII pogona uchtovushligi tilga olinganda, uni funksional tabiatiga juda qarama-qarshi: u balki subdominantadan kuchliroq dominantaga qaraganda, uni asosiy tovushi – kuchsiz dominanta belgisi boilib kvintasi – shubhasiz subdominanta, tersiyasi esa dominantaga nisbatan subdominantaga yaqinroq deyish mumkin. III pogona uchtovushligi umumiy koinishidan buzilmaydi va yana bitti kuchsiz dominanta akkordidan dalolat beradi.

N. Narxodjayev «Sozsiz qoshiq»

Con moto

Asar asosida mi –frigiy da kelgan. t - II aylanmasi, toortinchi taktda doriy ladi dagi S ni paydo boilibishi ozagacha mazmun bergen. Tonika va IV pogona uchtovushligi butun asarning asosiy akkordlaridir.

2.4.MIKSOLIDIY LADI.

Miksolidiy ladi – bu major ladi boilib, yetakchi pogonasi pasaytirilishi bilan xarakterlidir. Bunda ham dominanta guruhiakkordlari kuchsizroq: *d* va *d7* lari kuchsiz, VII pogona uchtovushligigina tonikaga melodik tortiladi va III pogona uchtovushligi kamaytirilgan boilib, faqat bitta tovush bilan tonikadan farqlanadi. Tonika bilan aloqalarda *d* – *t* va VII – *t* avtentik aylanmalari oliga xos ushbu ladning xarakterida namoyon boilib, dominanta guruhining ikkita uchtovushligi korsatishi mumkin. III pogonaakkordi kamaytirilgan uchtovushligi tufayli kam qollaniladi.

D. Zokirov. Prelyudiya №5.

Allegro

Kuy boshdan oxirigacha sol miksolidiyda yozilgan. VII pog[□]ona uchtovushligida yetakchi tonning yetishmasligi funktsional faolligini pasaytiradi va minor yangrashi bo[□]yoq beradi (7-8t). Kompozitor bu yerda noto[□]liq uchtovushliklardan foydalanadi (3-4t – T³, 7-8t – VII³ uchtovushligi, 9t – III³ uchtovushligi).

N. Narxodjaev «Musiqiyluqmalar» №2

Ushbu parcha do miksolidiyda yozilgan. Basdag'i tonika organ punktiga tepadagi ovozda VI – VII g[□] – V – IV – III – I pog[□]ona septakkordlari parallel xarakatda bo[□]lib kelgan.

2. 5. LIDİY LADI.

Lidiy ladi – major ladi bo[□]lib, to[□]rtinchi pog[□]onasi ko[□]tarilishi bilan bog[□]liq. Ushbu lad boshqa tabiiy ladlarga qaraganda kam qo[□]llanilishi bilan ajralib turadi. Asosan polyak va norveg xalqlari musiqasiga taaluqli bo[□]lgan bu ladning o[□]ziga xosligi “lidiy kvarta” va tonika tonlari o[□]rtasida sodir bo[□]lgan triton bilan bog[□]liqdir. Ladning ladning xarakterlaakkordlari “lidiy kvarta” bilan shakllanadilar.

X. Azimov «Xoy-xoy otamiz!»

Allegro

The musical score for the Allegro section is presented in two staves. The top staff uses a treble clef and the bottom staff uses a bass clef. Both staves are in 2/4 time. The music features eighth and sixteenth note patterns, with some notes having stems pointing up and others down. The bass staff includes several bass clef changes.

Ushbu misolda do-lidiy ladidagi noto \square liq VII pog \square ona(tersiyasiz) uchtovushligi ko \square rishimiz mumkin(5-7 t). Ushbu parchada quyidagiakkordlardan foydalilanilgan: T – III₂⁻³ – VI₆ – D – T₆₄ – III₂⁻³ - VI – D – S – VII – D⁴ – S – VII – D⁴ – T⁻³. “Lidiy kvartasi”ning paydo bo \square lishi, asosiy e’tiborni tritonga qaratish kerakligini qayd qilib o \square tish lozim. Ushbu inervalning diatonik tersiyaga yechilishi lidiy ladi uchun xarakterlidir.

2.6.IONIY LADI.

Ushbu ladning tovushqatori major tovushqatori bilan bir xil, lekin tabiiy ladlarga xos garmonik qonunlari ushbu ladning qo \square llanilishida aniq namoyon bo \square ladi. Xususan, subdominanta guruhiningakkordlarini va yondoshakkordlarning e’tibori kuchayganligi, tersiya va sekunda nisbatlarining ahamiyatligi va plagal kadentsiyalarining yuzaga kelishi.

B. Zeyzman «Pastushok»

Allegretto



Asar asosidagi lad - do ioniyda bolib, garmonik tili juda oddiydir. T va II₆ aylanmasi basda tez-tez takrorlanib, ushbu ladning xarakterini korsatadi.

3.Tabiyy ladlar garmoniyasida notersiyaviyakkordlar

60-70-yillarda iste'dodli kompozitorlar oz otmishdoshlarining malakasiga tayangan holda tabiiy ladlar garmoniyasini yanada rivojlantirishadi. Yangicha fonizm effektlarini topish hamda eng asosiysi, kompozitorlik musiqasini milliylik xususiyatini, garmoniya vositalarining boyoqdorligini kuchaytirish maqsadida *tersiyaviy* garmoniya bilan bir qatorda, *notersiyaviy* garmoniyani qollanilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Aynan shu davr kompozitorlarning milliy tilini shakllanishida yangi bir pogona bolgan.

*Notersiyaviy*akkordlar turli tuzilishga egaakkordlarning katta guruhini tashkil etib, ularni interval tarkibi asosida tasniflaganda bir turli va kop turli aralash shakllarini ajratish mumkin.

Bir turdag'i interval tarkibi bOyicha hosil bOladigan (monointervalli)² notersiyaviyakkordlarga – kvinta, kvarta va sekunda boyicha joylashganakkordlar kiradi. Milliy musiqadagi sekundaviy ketma-ket xarakat, kvarta, kvinta intervallarining ahamiyati ularning kompozitorlik amaliyotida ham keng qollanilishiga muhim omil bolib xizmat qiladi. Kvarta va kvinta intervallari tabiatan milliy musiqalarimiz uchun xos bolganligi sababliakkordlarning tuzilishida eng faol element bolib hisoblanadi. ularning kopovozli musiqada ifodalaniishi milliy cholgularning sozlanishi hamda folklor

kuylari ladlaridagi tayanch tonlarning o‘zaro munosabatlaridan kelib chiqadi. Kvarta va kvinta intervali bo‘yicha joylashganakkordlar o‘ziga hos koloritni vujudga keltirib, ketma-ket berilganda, xalq cholgi u ikkiovozligiga o‘xshash ohanglarni eslatadi. O‘zbekiston kompozitorlari bu turdagিakkordlarga ko‘plab murojaat qilib, asosanakkordli fakturada qo‘llashadi, chunki aynan shu fakturadaakkordlarning koloriti va o‘ziga xos ta’sir kuchi yanada seziladi. Shuningdek, amaliyotda ko‘pincha ikki, uch (kamdan kam holatlarda) kvarta va kvintalardan tashkil topganakkordlar qo‘llaniladi. Bunga sabab -akkordlar tarkibida intervallar sonining qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularning dissonansligi ham oshib boradi. O‘zbek milliy musiqasi tabiatidagi uchun esa kuchli dissonanslik, ya’ni ko‘povozlik xos emas.

Asosiy atamalar va tushunchalar.

- 1. Tabiiy ladlar garmoniyasi.**
- 2. Akkord.**
- 3. Funksiya.**
- 4. Struktura.**
- 5. Akkordlar izchilligi.**
- 6. Notersiyaviyakkordlar.**
- 7. Yondoshakkordlar.**
- 8. Shakllantiruvchi xususiyatlar.**
- 9. O‘zgaruvchanlik.**

Vizual materiallar.

X.Azimov. "F-no uchun 3 pyesa"

Allegretto

I⁴ I⁴

G.Nabiiev.Tanaovar.

Allegro moderato

f sp f > > > mp

N.Zokirov. Fantaziya.

f/ff

v.

E.Grig. «Sonsa»

Allegretto tranquillamente

Сос - на сто - ит у - грю - мо, од - на в стра - не сне - гов и

дрем- лет... Ал - ма - зов льди-стыхна ней свер-ка - ет по - кров.

Mustaqil ish.

Tahlil:

1. Григ. “Сосна”.
2. Taqqoslama tahlil: “Chaman ichra”- M.Burxonov va S. Boboyev qaytiaishlashida.

Adabiyot:

1. Azimova A. Garmoniya. T., 2004.
2. Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркмении. Т., 1979.

Yozma vazifalar va fortepianoda mashqlar.

1. Берков Н, Степанов А. Задачи. №№ 43, 50, 58, 59.
2. Miksolidiy, eoliy, doriy va frigiy ladrarda davriyalar tozish va chalish.

~~Talabajarishi~~ kerak bołgan vazifalar:

Savollarga javob berish:

- 1.Tabiyy ladlar garmoniyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Musiqada tabiyy ladlarning ołrni?
- 3.Tabiyy ladlar tushunchasining evolyutsiyasi haqida aytib bering;
- 4.Modal ladlarning ołziga xos xususiyatlari.

Yozma ishlar:

- 1.Tabiyy ladlar garmoniyasining qołlash yangi pogonasi nechanchi asrda shakllandı? - Eoliy (frigiy,miksolidiy)ladirida akkord izchilliglarini tuzing.
- 2.Tabiyy ladlar garmoniyasiga qanday funksional aloqalar xos. Yozib, misol keltiring.

V. GARMONIYA TARIXI

KIRISH

Garmoniyaning paydo bo\u043f\u043b\u0438\u043d\u0438\u0439 va rivojlanishining boshlangich bosqichi — yoritish uchun eng murakkab bo\u043f\u043b\u043e\u0433\u043e\u043d\u0438\u0439 davrlardan biri. Musiqa tarixi va jumladan garmoniya tarixinining ilk bosqichlarini tavsiflashda va o\u043d\u0430rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklardan eng muhimlari quyidagidir.

- 1) Badiiy madaniyatning boshka sohalariga qaraganida (maishiy tasviriy sa'\nat, arxitektura va adabiyot) umuman musiqa, shu qator garmoniyaning ilk tarixiy bosqichlari haqida aniq fikr bildirishga yordam beradigan bevosita haqqoniy dalillar yo\u0437q. Masalan shu davrgacha yaxshi saqlangan qadimiy musiqa asbobining topilishi uning aniq bir davrda mavjud bo\u043f\u043b\u043e\u0433\u043e\u043d\u0438\u0439ligi, nimadan va qay usulda yasalgani uning tovush qatori va sozlanish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berishi mumkin, ammo mazkur asbobda ijro etiladigan musiqa haqida hech qanday taassurot tug\u043fdira olmaydi. Boshqacha qilib aytganda musiqaning saqlanmaganligi sharoitida tadqiqotchini saqlanib qolgan yozma va chizma ma'lumotlarni tanqid ko\u0437zi bilan ko\u0437rib chiqishga majbur qiladi, chunki haqiqiy dalil sifatida tushunilishi gumon tug\u043fdiradi.
- 2) Yozuvning boshqa turlaridan farqli o\u043d\u0430laroq musiqiy yozuvning kech paydo bO\u043f\u043b\u0438\u043d\u0438\u0439li va keyinchalik uning mukammalashuviga uzoq vaqt ketgani va ko\u0437p hollarda noaniqligi XVII asrgacha kuzatiladi. Bu yerdan kelib chiqadiki, qadimiy musiqa yozuvlarining noaniq va qisman zid bo\u043f\u043b\u043e\u0433\u043e\u043d\u0438\u0439 bo\u043f\u043b\u043e\u0433\u043e\u043d\u0438\u0439 notalashtirilgan misollar va «tahrir»lar juda ko\u0437p, gohida ular she'riy matn yozushi bilan birlashib ketgan. Murakkab, shu bilan birga, shartli belgilarning aniqsizligi ko\u0437plab yozma yodgorliklarning haqqoniy anglanishini qiyinlashtiradi. Musiqiy yozuvlarning ilk namunalari cherkov musiqasi bilan bog\u043fdangan. Uzoq vaqt mobaynida xalq musiqasi yozuvlari deyarli yo\u0437q bo\u043f\u043b\u043e\u0433\u043e\u043d\u0438\u0439. Shu qator garmoniyani ilk tarixga nazar tashlasak, u ham ko\u0437p holatlarda noaniq yozuv yodgorliklarga asoslanganligi tufayli, ko\u0437plab tarixiy jarayonlar, shuningdek, garmoniyaning qaror topishi jarayonini qator muhim masalalari ochiq qolgan.

3) Bir ovozli va ko p ovozli yozuvlarda muhrlanib qolingan musiqiy amaliyotning namunalari ilk tarix davrlarning musiqa nazariyasida jamlangan ma'lumotlarga to g ri kelmaydi. Masalan, bir necha asrlar mobaynida nazariy is,hlarda bayon etilgan avtentik va plagal ladlarning yakunlangan tizimi va qadimiy musiqa yozuvlarida taqdim etilgan mazkur tizim va lad tuzilmalari orasida ko plab kelishmovchiliklar mavjud. Shu qator XVI asrgacha musiqa nazariyasida tersiyani dissonans sifatida belgilanishi musiqiy amaliyotida o z aksini topmaydi, chunki XIII asrdan boshlab musiqiy namunalarda tersiya konsonans sifatida erkin ishlatiladi. So ngra, ilk ko povozlikning ayrim namunalari tavsifi shubha tug diradigan bo lib, ularni o sha davrlarda yangragan musiqanining haqiqiy misollari deb qabul qilish mumkinligi munozarali. Chunki u yoki bu qadimiy risolaning nazariy nizomini ko rsatish uchun berilgan chizma misollar deb ham qabul qilish mumkin.

Xulosa qilib quyidagini aytish lozim. Ilk musiqa davriyasiga taalluqli barcha mulohazalar, g oyalar, tushunchalar va ma'lumotlar ko pini faraz sifatida tanqidiy nazar bilan baholash zarur.

1. Garmoniyaning IX-XIII asrlargacha shakllanishi va rivojlanishi.

Garmoniyani shakllanishi ko p ovozli musiqaning ilk namunalaridan kelib chiqadi, unda sistematik ravishda ohangdoshlar va ularning ketma-ketligi paydo bo ldi. Bir ovozli musiqa tarkibidagi intervallarning ohangdoshlar sifatida ajralib chiqishi, pedal tovush va kuy yo llarining alohida qatlamlanishiga yo l ochilishi ko p ovozlikning xalq musiqa amaliyoti doirasida paydo bo lganligi ehtimolini ko rsatadi.

Mazkur holatga bundan keyingi kechki davrlarga hamda turli millatlarning ko p ovozlik madaniyatiga xos bo lgan geterfoniyaning sodda ko rinishining paydo bo lishini qo shish mumkin.

Musiqiy-ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan fikr shundan dalolat beradiki, ko□povozlik tadrijiy ravishda g□arbiy Yevropa cherkov musikasida VI-X asrlar davrida qaror topdi. Biroq X asrgacha paydo bo□lgan ko□p ovozli musiqa namunalari noma'lum bo□lib, faqat bir necha risolagina saqlanib kelgan. Ularda intervallar, ohangdoshlar sifatida ko□rilib, konsonans yoki simfoniyalar (oktava, kvinta, kvarta) va dissonanslar (qolgan intervallar)ga bo□llingan. Ushbu ma'lumotlardan tashqari, musiqa nazariyasi VI asrgacha paydo bo□lgan ladlar xaqida ta'limotni ham o□z ichiga oladi. Bu ladlar avtentik va plagal turlarga bo□linib, bir ovozlik doirasidan tashqariga chiqmagan.

Ikki ovozli bayonning ilk shakllari (X-XI asrlar) — **organum yoki diafoniya**. Bu haqida Gukbald (IX asr) quyidagini yozadi: “Simfoniyalarda asoslangan kuylash diafoniya yoki organum deyiladi». Ikki asrdan keyin Kottoniy “diafoniya – bu ikki ashulachi ijro etadigan, ikki har xil tovushning aniq bir qoida bo□yicha qo□shilishi; ashulachilardan biri asosiy kuyni, ikkinchisi esa asosiy kuyni atrofida boshqa tovushlarni mahoratli ishlatadi; har bir to□xtovda ikkala tovush unison yoki oktavada qo□shiladi” deb ma'lumot beradi.

Organum **grigorian** kuylarida asoslanib, sakkizta cherkov ladlariga tayangan. Ushbu ladlar haqidagi ilm g□arbiy Yevropa nazariy adabiyotida VIII asrda tashkil topgan va ko□pgina vaqt davomida o□zgarishlarga uchramagan. **Sakkizta cherkov** ladi diatonik tovushqatorida tashkil topib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) oktavadan oshmagan holda ton va yarim ton joylashuvida asoslangan;
 - b) faqat yakunlovchi tovush **finalis** orqali ladning turi aniqlangan.
- Finalislarga ko□ra ladlar uchun to□rtta balandlik xos, bular:

v) ikkinchi ladning tayanch tovushi **reperkussa**. U ladning kvinta tonida joylashib, kuyning o□rtasida yaqqol ifodasini topadi.

g) **Ambitusga**, ya'ni diapazonga qarab sakkizta cherkov ladi avtentik va plagal turlarga bo□linadi. Asosiy avtentik ladlarda kuy rivoji finalisdan to

uning yuqori oktavasigacha yetib, yakunlovchi tovushda tugallanadi. Plagal yoki gipoladlar esa finalisga qaraganda kvartaga past joylashgan tondan boshlanib yuqori kvintagacha rivojlanadi va finalis balandligida yakun yasaydi. Cherkov ladlarning tizimi:

Doriy	
Gipodoriy	
Frigiy	
Gipofrigiy	
Lidiy	
Gipolidiy	
Miksolidiy	
Gipomiksolidiy	

Ladlar tizimi

Ladla r	Ambit us	Reperkus sa	Finalis	Ladla r	Ambitu s	Reperkussa	Finalis

I	d—d ¹	A	D	V	f—f ¹	c ¹	F
II	A—a	F	D	VI	c—c ¹	A	F
III	e—e ¹	c ¹ (avval h)	E	VII	g—g ¹	d ¹	G
IV	H—h	a (avval g)	E	VIII	d—d ¹	c ¹ (avval h)	G

Organumning ikki asosiy turi mavjud. Birinchisi kvinta va kvarta, ayrim vaqtarda, oktavalarning parallel xarakatida asoslangan.

Nos qui vi - vi - mus be - ne - di - cu - mus Do - mi -
 num ex hoc nunc - et us - que in sae - cu - lum.

Parallel organumda ovozlar bir kuyni kvinta yoki kvarta oralig*□*ida, ayrim vaqtarda esa bir vaqdning o*□*zidayoq kvinta va oktava oralig*□*ida bir xilda xarakatlantiradi. Parallel xarakatning aniq saqlangani intervallarning atayin shunday tanlangani haqida dalolat beradi. Shu bilan birga, vokal ovozlarning yorqin turli tembrlari ularning birlashuviga qarshilik ko*□*rsatgan holda gorizontal chiziqlarni bir-biridan aniq ajratib turadi. Lad — kuyga bo*□*ysunadi. Lad munosabatidagi ohangdoshlik neytraldir.

Organumning ikkinchi turida kuy unisondan boshlanib qiya yo*□*nalishda kvarta yoki kvinta intervalini hosil qilib, so*□*ng bu intervallar parallel xarakatda

boilib, oxirida unison holatiga kiradi. Ya’ni bunday ikki ovozlikni xarakati geterofon fakturasini yaqqol aks ettiradi.

Gukbaldning mashhur nazariy risolasi «Musica enchiriadis» dan namuna organumning ikkinchi turiga misol boila oladi.



Organumga xos parallel kvarta va kvintalarning yangrashi kechki davrlarda qadimiy musiqani ramzi sifatida anglanar edi.

Asosiy tushunchalar va atamalar.

- 1. Organum.**
- 2. Diafoniya.**
- 3. Parallel organum.**
- 4. Interval.**
- 5. Dissonans.**
- 6. Konsonans.**
- 7. Cherkov musiqasi.**
- 8. Avtentik ladlar.**
- 9. Plagal ladlar.**

Mustaqil ish.

Tahlil:

1. Евдокимова Ю. История полифонии до 14 века. №№ 1, 2, 7, 40, 44.
2. Пэрриш К., Оул Дж. Образцы музыкальных форм от григорианского хорала до Баха. №№ 6, 19.

Yozma vazifalar.

1. Reprizali ikki qisqli shaklda prelyudiyani yozish. Misol: Betxoven. Sonata №1(2q).

Adabiyotlar

1. Бершадская Т. Лекции по гармонии.
2. Евдокимова Ю.История полифинии до 14 века.
3. МЭ.5т.

2. O'rta asr ladlarining taraqqiyoti

2.1.Cherkov ladlar tizimi

VIII asrda G'arbiy Yevropa nazariy adabiyotlarda 8 ta cherkov ladi yoki tonlarini o'rghanish shakllandi va uzoq yuz yilliklar mobaynida saqlanib qolindi. 8 ta ladda diatonik tovushqator mavjud xususiyatlari:

- a) oktavadan chiqmagan holda ton va yarim tonlar bo'yicha joylashishi;
- b) finalisga yaqin tovush bo'yicha (faqat u ladga nom bera olishi mumkin, oxirgi notalar ladni aniqlab beradi hamda ular faqat 4 ta yakunlovchi notalar D,E, F, G bo'lishi mumkin);
- v) kuylashning ambitusi (diapazoni) bo'yicha;
- g) reperkussa bo'yicha (tovushning kuylaganliklardagi hokimligi).

Cherkov tonlariga milliy va dunyoviy musiqa mos kelmagan. Xalq qo'shiqlari cherkov qo'shig'i bilan chiqishmaydi va ushbu qonuniyat bilan aslo muhokama qilinmaydi.

Musiqa san'atida dunyoviy jihatdan takomillashishi eski modal tizim ahamiyatini oshiradi.

Ioniq va eoliy ladlarining qo'shilishi va asosiy lad sifatida ioniy ladi tasdiqlandi. 1547 yilda Gloreanning "Dodekaxordon" risolasida unda 8 ta cherkov ladi qatoriga *ioniy*, *gipoioniy*, *eoliy*, *gipoeoliy* ladlarini qo'shgan.

“Dodekoxordon”da eng koop qoollanilgan va doim “birinchi” deb ataladigan doriy ladiga katta ahamiyat bergen:

D. Sarlino “Le Istitutione harmoniche ” (“Garmoniya asoslari” yoki, “Garmonik joylashish” 1558 y.) traktatasida Glareanning izidan borib, uning lad tizimini takrorlaydi. Ammo 30 yil olib, boshqa bir kitobi “Dimostrione harmoniche” (“Garmoniyani isbotlash” 1571 y.) da tizimni do ioniy ladidan boshlab, ladlar tartibini ozgartiradi:

Yangi lad tizimi musiqiy nazariyada tezda ornashib oldi. Shu sohada Sarlino goyalarining davomchilari D. Artuzi, S. Kolvizius, F. , T. Shyutts, I. Valter va boshqalar.

2.2.Doriy, frigiy, lidiy, miksolidiy ladlarining tranformatsiya yollar.

Ioniy va eoliy ladlari bilan birga cherkov moduslari ham bir tizimda qamrab olingan.

Musiqa nazariyasida cherkov ladlarning 2 ta o‘zgarish yo‘li belgilanadi: *lidiy* va *miksolidiy* ladlarni ioniy ladiga, *doriy* va *frigiy* esa eoliy ladiga o‘tishi.

Si tovushini alteratsiya qilish orqali tovushqatorga o‘zgartirish kiritish jarayonida, ladlarning turg‘un pog‘onalarini aralashtirish orqali erishiladi. Alteratsiyalagan pog‘onalarning paydo bo‘lishi cherkov ladlarining tovushqatordagi diatonik tovushqatorida “dlezeugmenon” (e, a, c,h), “synem menon” (d, c, b, a) deb ko‘rsatilgan. Doriy ladidan eoliya transformatsiya qilish “b quadratum”ning “b ratundum” ga almashtirilishidan kelib chiqqan.

Gloreat so‘zlariga ko‘ra miksolidiy ladi qadimgi musiqachilar tomonidan ko‘p qo‘llanilgan. Uning fikricha bu holat ko‘p va uzoq qo‘llanadigan ioniy ladida kvinta ut sol mavjudliga qaramasdan, baribir miksolidiy ladi deb foydalangan. Lekin ashulachilar doim miksolidiy re-sol kvartasini ishlatmasdan, balki, ioniy ladining *ut-fa* yuqoridagi kvartasini urg‘u beradilar.

Aks holda, frigiy ladining eoliy bilan yaqinlanishi yuzaga keladi. Bu holat ladning kadentsion pog‘onalariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. XVII asrning nazariyachilari frigiy ladida III, V (g, h) tovush kadentsiyalarini eoliy ladidagi IV , VI pog‘onalarga (a, c)almashtirishga yo‘l qo‘yishgan. Natijada frigiy va eoliy ladlarining kadentsion pog‘onalari a-c-e bo‘lib, finalisda e(mi) bilan tugallanishi o‘ziga xos bo‘lgan gibriddi hosil qiladi.

Shunga o‘xshab, frigiy ladidagi miksolidiy kadentsiya III pog‘onasi (h) IV pog‘onaning kadentsiyasiga almashtiriladi va u ioniyga o‘ta xos bo‘lgan xususiyatga ega bo‘ladi.

2.3. Plagal ladlardan voz kechish

Lad tizimining muhim jarayonini avtentik va plagal shakldagi ladlardan voz kechish tashkil qiladi. Ular orasida xususan hech qachon tengliklar bo‘lmagan. Birinchilari hamisha asosiy, ikkinchilari esa ikkinchi darajali bo‘lgan. VIII asrda plagal ladlarning xattoki tartib raqami ham bo‘lmay, avtentik jihatdan nomlangan: plagal ‘rotustan(birinchi doriy), Deuterustsn

(ikkinchi frigiy), Tritustan (uchinchi lidiy), Tetrachiustan (toqtinchi miksolidiy).

Biroq, Glorean qadimgi qoishiq kuylash kvinta hajmidan oshmasligini, zamonaviyda esa, oktavadan ham oshishini ta'kidlaydi. Demak, avtentik ladar plagal diapazonga kirishi mumkin va aksincha. Bundan tashqari birovozliklarda avtentik va plagal ladlarni birlashtirish mumkin. U holda “mixti” deb nomlanuvchi aralash ladlar yuzaga keladi. Oqz navbatida savol tugiladi: kofovlik sharoitida ladning plagal yoki avtentik ekanligini qanday aniqlasa boaldi?

Garmonik fikrlash sharoitida lad alomatlari shubhasiz oqlchab chiqilishi kerak edi. Mersenni birinchilardan boilib, ba'zi bir ladlarni soddalashtirishni taklif etadi. Uning fikricha faqatgina yettita ladni qoldirish kerak. Shu orqali u sakkizinchi lad (gipomiksolidiy) va birinchi lad (doriy), toqqizinchi lad (eoliy) va ikkinchi lad (gipofrigiy) va hokazolarni aniq ekanligini korsatib oltadi. Demak, avtentik va plagal shakllar ham oxshash. Sebastian de Brossar “Musiqiy lugat”da plagal ladlar haqida oktavani 12 xromatik yarimtonliklarga ajratayotganimizdan buyon avtentik va plagal ladlardagi farqlar rad etildi deb oltadi.

Plagal lad mustaqil emasligi aniq boaldi va u avtentikning shunchaki kengayishi boilib, (extension)hamma ladlar avtentik hisoblanishi kerak degan fikrlar yuzaga chiqadi.

Sarlino birinchilardan boilib, kofovliklarning asosi uchtovushliklar degan fikrga keldi. U III pog'onani lad strukturastdagi muhim rolini aniqladi va lad qarindoshligini asosiy tondan katta tersiya va kichik tersiya ekanligini korsatadi.

Asosiy atamalar va tushunchalar

1.Cherkov ladlar

2.Cherkov musiqasi.

3.Avtentik ladlar.

- 4.Plagal ladlar.**
- 5. Transformatsiya**
- 6. Ko□povozlik**
- 7. Diapazon**

Tahlil.

1. Евдокимова Ю. История полифонии до 14 века. №№ 5.6.12.
2. Пэрриш К., Оул Дж. Образцы музыкальных форм от григорианского хорала до Баха. №№5.8.

Yozma vazifalar.

1. Reprizali ikki qisqli shaklda prelyudiyani yozish. Misol: Betxoven. Sonata №2(2q).

Adabiyotlar.

1. Баранова Т. «Переход от средневековой ладовой системы к мажору и минору в музыкальной теории XVI – XVII вв.» / «Из истории музыки» вып. 4. 8-25b (konspekt).
2. Евдокимова Ю.История полифинии до 14 века.
- 3.МЭ.5т.

Seminar

Talabalar bajarishi kerak bo□lgan vazifalar.

Savollarga javob berish:

1. Ko□povozlikni boshlangich pog□onalarini yoritish jarayonida qanday kiyinchiliklar mayjud ?
- 2.Organum – bu nima ?
- 3.Parallel organumga xos izchillikka yozma holda misol keltiring..
- 4.Uch tovushlikni paydo bo□lishi kimni nomi bilan bog□langan?.

Talabalarni aktivlashtirish uchun savollar bilan murojaat qilish.

Diafoniya –bu nima?

Kanday intervallarga simfoniya deyiladi?

Qanday intervallar dissonans hisoblanadi?.

Mavzuga taalluqli adabiyotlar haqida ma'lumot berish.

3. Renessans davri garmoniyasi.

3.1.KIRISH

XV-XVI asrlardagi musiqa san'atiga boshqa san'at turlari singari Uygonish davri va Renessans ijobiliy ta'sir etgan va shu bilan birga qator yirik ijodiy maktablarni ilgari surgan. Bu maktablarning namoyandalari - Franchesko Landini (XIV asr), Giyom Dyufai, Ioxannes Okegem, Yakob Obrext (XV asr), Josken Depre (XVI asr) va yuqori Renessans davrining mumtoz ijodkorlari – Palestrina, Orlando Lassolardir.

Renessans davri Yevroopa mamlakatlarida baravariga paydo bo'limgan. Musiqa san'atida bu davr XIV asrda Italiyada ilk qadamlarini qo'lygan. Niderland polifonik maktab XV asrda shakllangan. Frantsiyada esa Renessans xususiyatlari musiqada XVI asrdagina qo'ringan. Shu yuz yillikda Germaniya, Angliya va boshqa mamlakatlar san'atida yuksalish sodir bo'ladi. Shunday qilib, Renessans XIV-XVI asrlarda shakllanib rivojlangan.

Renessans davri – insoniyatning ma'naviy madaniyat tarixi davri. Nemis olimi Glarean o'zining musiqiy-nazariy asarlari bilan mashhur bo'lib, XVI asr o'rtaida zamonaviy musiqa 70 yillarga yaqin mavjud ekanligini va XV asrning oxirgi choragi uning bolalik davri, XVI asr boshi – rivojlanish vaqtiga, asrning ikkinchi choragi – mukammal san'at yetilish davri deb ta'kidlaydi.

XVI -XVII asrlarda nazariya va amaliyat, san'at va fan yaxlitligi Uygonish davri uchun xos bo\u043fgan, ya'ni bitta shaxs nazariya va kompozitorlik sohalarini birgalikda egallagan: D.Sarlino, Ya.P.Svelink, M. Pretrorius, G. Shyutts, I.Valter, I Mattezon, J. F.Ramo. Ba'zi nazariy g\u043foyalari, qisman Shyutts va Svelink g\u043foyalari, pedagogik faoliyat bilan shug\u043dullanganliklari natijasida paydo bo\u043fgan. Uygonish davri nazariyachilari jonli musiqiy amaliyat voqeligi to\u0433g\u0438risida fikr yuritishga intilganlar. Bu XVI -XVII asr nazariya fani merosiga qimmat baholikni ato etadi. Shu intilish o\u0437sha davr musiqachilari tafakkur jihatlarini va badiiy amaliyotda bo\u043flib o\u0437tgan jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

Musiqa san'ati ko\u043cp yo\u0437nalishlarda, ya'ni xalq musiqasi, kasbiy musiqa sifatida rivojlangan.

Kasbiy musiqa, o\u0437z navbatida, cherkov va dunyoviy musiqa sifatida rivoj topgan. Dunyoviy musiqada, mavjud manbalardan ma'lumki, garmonik tafakkur cherkov musiqasiga qaraganda avvalroq paydo bo\u043fgan. Chunki dunyoviy musiqa (XV-VI asrdagi lyutnya musiqasi) polifoniyaning qat'iy uslubini saqlab qolgan cherkov musiqasiga qaraganda garmonik tafakkurga avvalrok yetgan. Kadimgi davr va ilk O\u0437rta asr davrlardagi musiqa monodik xususiyatlarga boy edi. Ilk O\u0437rta asrlarda vokal ko\u043cpovozlik paydo bo\u043fladi va keyinchalik u rivojlangan polifoniya xarakterini oladi. Uning gullah davri XVI asr – Palestrina va Orlando Lasso davrlariga tog\u0430ri keladi. XVI asr oxiri XVII asr boshida kasbiy san'atda gomofon tizim katta ahamiyatga sazovor bo\u043fladi va XVII -XVIII asrlarda u tez rivojlanadigan opera va cholgo\u043fu musiqa janrlarida o\u0437zining mustahkam o\u0437rnini egallaydi.

3.2.Cherkov ladlar tizimi

Yevropa kasbiy musiqasi taxminan VII asrdan to XVI asrgacha O\u0437rta asr nazariyachilari barpo etgan *cherkov ladlar tizimiga* tayangan. Bu tizim modal tizim deb atalib (lotincha "modus"-lad), monodiyasi grigorian kuylash amaliyotida

paydo bołgan va major - minor tizimidan tamoyillar jihatidan qattiq farqlanadi. Oṛta asr va Uygonish davridagi modus avvalam bor funksional - garmonik yaxlitlik jihatidan emas, balki kuy jihatidan farqlangan, ya’ni uning ichki tuzilishi S D T funksional uchlik bilan emas, melodik tartibdagi faktorlar tovushqator tuzilishi, finalis, reperkussa, ambitus bilan aniqlangan. Modusga xos bołmagan markazlashtirish xususiyati major - minor tizimiga xos. Modal tizim mumtoz tonal tizimdan kołp ladlilik va qat’iy diatonika bilan farqlanadi.

3.3. Gomofon-garmonik tizim shakllanishi

Grigorian monodiya sharoitida shakllangan modal tizim kechki Oṛta asr, Ars nova, Renessans kołpovozlik polifonik musiqasida ham ołz ahamiyatini saqlab qolgan."Qat’iy uslub garmoniyasi bizning qatorakkordlarni bitta markaziy tonika akkordi atrofida guruhlaydigan tonal tizimga bołysunmagan... Kadentsiyasiz qat’iy uslub tonal birlashgan garmoniyalarini taqdim etmaydi, tonal aloqa umuman bołmasligi mumkin, har bir akkorddan keyin usha diatonik asosda har bir boshqa akkord kelishi mumkin."³

Modal garmoniyasining rivojlanishi qiyin sharoitda, ya’ni an’anaviy shakl va janrlarning yangi shakl va janrlar bilan aralashi paytida ołtgan. U vaqtida motet va messa bilan dunyoviy janrlar – madrigal va shanson ołzaro rakobotlashgan. Asta-sekinlik bilan cholgu asarlar – fantaziya, richerkar, tokkata, rake pyesalar ahamiyati ołsib boradi. Bu cholgu janrlarining XV-XVI aslarda rivojlanishi bilan tayyorlangan gullash davri XVII asrga tolgorsi keladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, yangi vositalar ham polifonik, ham gomofonik janrlar orqali namoyon boładi. Garmonik uslubining gavdalanishi, cholgu musiqaning rivojlanishi ayniqsa, lyutnya va keyinrok, paydo bołgan klavesin ahamiyati kuchayishi bilan bevosita bogliq bołgan.

³ Танеев СИ. «Подвижной контрапункт строгого письма». М, 1959, 9-бет.

Gomofon-garmonik tizim shakllanishida xalq musiqasi katta ahamiyatga ega edi. Xalq tafakkurida tersiyani konsonans sifatida his etish va tan olish kasbiy musiqa va musiqashunoslikdan avvalroq sodir bołgan. Shuning uchun xalq ijodida kasbiy san'atga qaraganda uchtovushlik (ba'zan sekstakkord) turidagiakkord tuzilmasi va u davr uchun yangi bołgan major va minor ladlari avvalroq ildamlanadilar.

Yuqorida aytib ołtilganidek, XV- XVI asrlarda "*cherkov ladlari*" [Kirchentone] qołlanilgan. Ammo boshqa nuktayi nazarga karaganimizda shuni kołrishimiz mumkinki, major va garmonik minor ilk davrlarda ołzlarini tasdiqlaganlar, ammo nazariya tamonidan tan olinmagan. Eski lad tizimi rivojlanishi turli yołlar bilan mumtoz ladlar - major va minorga olib keladi. Frigiy, doriy, eoliy ladlari minorga, lidiy miksolidiy, ioniy ladlari esa majorga guruhlanadi. Melodik minor - doriy ladining juda eski turi. Melodik minor VII bosqichning kołtarilishi bilan garmonik minordan (VI bosqichning kołtaralishi bilan) emas, balki doriy ladidan kelib chiqqan.

Eski ladlar an'analari yozuvda aks etgan. (Masalan, *g-moll* asarlarida kalit belgisi bitta qołyilgan - si - bemol, mi bemol esa tasoddifan uchraydigan alteratsiya belgisi sifatida ishlatilgan).

Ołra asr va Uygonish davri olimlari lad nazariyasini hozirgi zamon lad nazariyasi bilan taqqoslasak, shuni sezish mumkinki, atamalarni har xil kołrish mumkin. Eski musiqa nazariyasi yangi davrdayoq, klassik garmoniyasi mexanizimini tushunganlik natijasida paydo bołgan kołp tushunchalarni hali ishlatmagan. (Qisman, qadimgi risolalarda “tonallik”, “major”, “minor” atamalar (zamonaviy tushunchasida) ishlatilmagan, klassik lad funksiyalar haqida tasavvur ham yołq. Sabab shundaki, modal lad uyushmasining klassik tonal uyushmasidan prinsipial farqi bor. Ołra asr va Uygonish davr musiqasiga tonal garmoniyaning terminologiyasini qołlash uslubiyot jihatidan notołgöri (ya'ni T, D, do-major, lya-minor va h.k.)). Ivanov-Boretskiy "Polifonik musiqa lad tuzulmasi haqida"

maqolasida shunday yozgan: "XV-XVI asrlar musiqasida cherkov ladlari niqobi ostida faqat major va fakat minor va frigiya aylanmalari yashiringan."⁴

Modal *garmoniya* doimo o'zgaruvchan voqelikdir. Uning negizida funksionallik va garmonik tonallik hissiyoti yetila boshlagan. Modal garmoniya yangi ifoda vositalari qatoriga kirib, u orqali ijodkorlar insonning ma'naviy dunyosini ifoda etishga va shu bilan avvalgi davrdagi san'atdan hissiyotlarga boyroq va ta'sirchanroq san'atni bunyod etishga intilganlar.

Akkord yaxlit kompleks yoki majmua sifatida XV asrda tasavvur qilingan deb aytish mumkin.

XV-XVI asrlarda garmoniya major va minor uchtovushliklarida, ularning sekstakkordlarida, kamaytirilgan uchtovushlikning sekstakkordlarida asoslangan.


Septakkordlar mustaqil ohangdoshliklar sifatida qo'llanmagan, lekin dissonanslar ishlatilgan. Ko'pincha ular tayyorlangan to'xtalma yordamida vujudga kelgan XVI-XVII asrlarning chegarasida garmoniyada yangilik sodir bo'ladi. Shart bo'lgan dissonans tayyorlanishi man etiladi va natijada buakkord mustaqilakkord sifatida tug'iladi. Shuni aytish kerakki, bu garmoniyaga kiritilgan yangilik zamondoshlarda juda kuchli taassurot qoldirib, ulug' bir mojiza sifatida sezilgan edi. (Birinchi bo'lib *D₇*akkordni K. Monteverdi o'zining "Orfey"operasida qo'llagan va shunday kilib kashf etgan.)

*Garmonik funksiyalar*ning aniqlanishi tadrijiy ravishda o'tgan va faqat XVII asrda muayyanlashtirilgan. Garmoniya funksiyalari shakllanishida quyidagi melodik aylanishlarining ahadmiyati muhim, ya'ni bu II va VII bosqichlarning I bosqichiga kadentsiyaga o'tishidir.

Kontrapunktda, ya'ni 2-3 ovozlikda bu yonalishlar elementar avtentik kadentsiyalar vujudga kelishiga olib kelgan:

⁴ «Вопросы теории музыки». Вып.2. М., 1978.

Kuchli tortilishlar



Natijada D funksiyasi XIII asrda aniq sezilishi boshlanadi, S funksiyasi esa ancha keyin shakllanadi. Funksional guruhlarini kozdan kechirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin.

XV-XVI asrlar musiqasida lad ko pincha asar boshida aniqlanmagan edi. Lekin keyinchalik ko p asarlarda bitta *tonika* asar boshida va oxirida joy topadigan bo oldi. Bu holatda tonika major yoki tersiyasiz uchtovushlik shaklida qo llanadi. Minor uchtovushligi konsonans sifatida sezilmagan. Faqatgina XVI asrlarda minor uchtovushligi tonika, ya ni yakunlovchiakkord rolini oynaydi, ammo major tonikasi bilan mutlaqo tenglasha olmaydi.

Adabiyot:

1. Баранова Т. «Переход от средневековой ладовой системы к мажору и минору в музыкальной теории XVI – XVII вв.» / «Из истории музыки» вып. 4.
2. Казарян Е. «О мадригалах Джезуальдо»/ «Из истории музыки» вып.4.25-29б.(konspekt).
- 3 Пузей Н. «Формирование и развитие гармонии до И.С.Баха». Урал давлат консерваторияси / «Научные литературные записи» вып.8. Св1973.
4. Бершадская «Лекции по гармонии» 1978г.
5. И.В.Способин «Лекции по гармонии» 19 г.
6. Григорьев. С. «Программа по гармонии»
7. Холопов Ю.Н. «Гармония» 19,20,21б.

4. Ilk klassik garmoniyasi. Bax va uning zamondoshlari ijodiyotida garmoniya o'rni.

4.1.KIRISH

Professional musiqa san'atida XVI asr oxiri, XVIII asr boshida shakllangan yangi uslub ko'p tadqiqotlarda «borokko musiqasi» yoki «ilk klassik musiqasi» nomini olgan.

Bax va uning zamondoshlari davrida garmoniya ifodaviy va konstruktsiv imkoniyatga ega bo'lgan musiqa tilining muhim komponenti sifatida rivoj topdi. Oldingi davrga qaraganda XVII asr oxiri XVIII asr 1-yarimi garmoniyasi melodik funksiyalar nomga ega bo'ldi va musiqa san'atining omiliga aylandi. Ilk klassik garmoniyasi vokal musiqasi tabiatidan uzoqlashmagan u cholg'u janrlariga (concerto grosso, sonata) ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

XVII asrda garmoniya asoslari, xususan funksional tizim, ikki ladlik – major va minor, tersiya bo'yicha tuzilgan vertikal Yevropa kompozitorlari Bax, Gendel, Ramo, Skarlati va boshqalar ijodiyotida butunlay shakillandi.

Italiyan va nemis musiqa madaniyati funksional garmoniyaning qonuniyatini ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ular ishlab chiqqan instrumental janrlari Gaydn, Motsart, Betxoven simfonizmiga yo'll ochib berdi. Frantsuz klavissinchilar ijodi o'zining badiiy yo'nalishi bilan Germaniya va Italiya

kompozitorlari san'atidan ko□rinarli darajada ajralib turadi. Kuperen va Ramo ijodiyotida qo□shiq, lyutnya uchun prelyudiya kabi janrlar ahamiyatli o□rinni egallaydi. Natijada frantsuz klavissinchilari yirik shakl muammolarini yechish yo□llarini topishga muhtoj emas edilar. Ular musiqaning oddiy garmonik vositalarini talab qilardi.

O□rganiyotgan davrimiz musiqasida kuy va garmoniya munosabatlari masalasi katta qiziqish uyg□otadi. Chunki musiqa matni gammofoniyaga xos ikki qatlamga - kuy va garmoniyaga bo□linadi. Bax, Gendel va ularning zamondoshlari asarlarida T tovushlari, kamaytirilgan yetakchi, dominant septakkord va hatto nonakkord tovushlari bo□yicha rivojlangan mavzu kuylari kuzatiladi. Natijada garmonik vertikaldaakkordli vaakkordsiztovushlarni bir-biridan anik ajratilishiga olib keladi. Kuylarning barcha turlari xususan figuratsiyalarning shakillanishi ijrochilik uslublari bilan bog□lik.

Bu davrning musiqasida tez rivojlanayotgan opera va cholg□u janrlarda gammofon uslubi mustahkam o□rinni egallay boshlaydi. Bir xil ilmiy ish, tadqiqotlarda XVII asrning musiqasini ta'riflashda ko□pincha polifonik fikr yuritish o□rniga gammofoniya kelishiga katta urg□u beriladi. Lekin shuni aytish joizki, bu jarayon nihoyatda murakkab o□tgan va bir yo□nalishda uni ko□rib chiqish mumkin emas.

XVII asr musiqasida polifonik janrlari o□z rivojini topib, aynan shu davrda polifonik musiqasini yuqori cho□qqisi hisoblangan - fuga janri shakllandi. Shuning uchun bu davrda polifonik va gammofonik uslubi parallel va hamjihat yashagan desak to□g□riroq bo□ladi.

XVIII asrning 1-yarmida garmoniyaga tayangan «erkin uslub» nomli polifonianing yangi rivojlanish davri boshlandi. Umuman olganda ko□p polifonik asrlarda garmonik funktsional asos juda yorqin seziladi.

4.2. Ilk klassik garmoniyasidaakkord.

Akkord ko'rinishlari: Bax, Gendel va ularning zamondoshlari asarlarida yoruglik va tinchlikni ko'rsatishda tonika tovushlari, dramatizm va jiddiylikda VII 7; I, IV, V pog'ona uchtovushliklari; tugallanmagan davriya va kadentsiyalarda - IV pogona; I, IV, V, VII va II pog'onalarda sekstakkordlar; V va VII pog'ona septakkordlari; minorda V pog'onada nonakkordlar; kadansli yordamchi va otkinchi kvartsekstakkordlar; major va minorning hamma diatonik pog'onalarida avtentik tipda tuzilgan sekventakkordlar; tabiiy minorda frigiy aylanmalar; alteratsiyalangan subdominanta; VI past pog'onada ortirilgan sekstalar keng ishlatiladi. Xromatik basostinato asosida buakkordlarning murakkablanishi ifodalaniladi. Natijada garmonik vertikaldaakkordli vaakkordsiztovushlarni bir-biridan aniq ajratilishiga olib keladi.

Akkordlarning funksional aloqalari. Bax zamondoshlari davrida, ayniqla boshlangich tuzilmada ohangdoshliklarning aniq, funksiyaga egaligi o'ziga xos bo'lgan. Fisher o'zining ilmiy ishida XVIII asrda yaratilgan asarlarning boshlan-gich ohangdoshligini quyidagicha izohlagan: 1) TSDT 2) TTT ; T DT ; yoki TST. 3) Past xarakatda bo'lgan basda joylashuv. 4) Tonika organ punkti ishlatilishi.

Subdominanta ko'pincha tolik aylanmada kelib, avtentik uslubda yechiladi. Boshlangichakkord tonika uchtovushligi ko'rinishida kelib tonalgarmonik asosning markazi sifatida ifodalanib, kuyda tersiya yoki kvinta toni qo'llanilgan.

Lekin biz Monteverdining ijodiyotida buning aksini ko'ramiz. Monteverdining barkarollarida asarning boshida 5ta funksiyasini ishlatish odattusiga kirgan: (Монтеверди «Плач Ариадны»). Asar subdominantaga toxtalma bilan boshlanib, asar davomida SII 7 doirasidagiakkordlarga boy. Subdominanta juda ham bo'rtirib ko'rsatilgan. Bir vaqtning o'zida har xil tonalik kelgan. Pastki ovozda re minor, yuqoridagi ovozda esa sol minor. Har bir jumla oxiri re majorda tugagan. Oxirida major tonaligi qo'llanilgan.

Bax davrida tonikadan keyin dominantaning kelishi tonika funksiyasiga keskin tortilishni ifodalagan. Asarda tonika va dominantaning takrorlanishi anikq tonalikni korsatishda yetarli asos hisoblanmagan.

Buni biz Gendel ijodiyotidan keltirilgan lavhada korishimiz mumkin. (Гендель клавиры. Сюита N 3 d moll Presto). Shuningdek boshlangich garmonik izchilikda kozguli simmetrik birikma TDDT ohangdoshligi Vivaldi, Ramo, Gendel, ijodida xarakterli bolgan. Lekin Bax toliq garmonik izchilikni (TSDT) korsatishni ma'qul korgan.

Bax zamondoshlari ijodiyotida plagal ishchilik boshlangich jumlada ishlatilmagan. Faqat vokal asarda kuychan ohangda vazminlikni korsatishda qollanilgan.

Kadentsiyalar. Asosan avtentik, kam hollarda plagal korinishda keladi. Kop hollarda polifonik korinishga ega bolgan bolingan aylanmalar va kadentsiyalar uchraydi: V -VI; V-IV6 ; V-VII7 -V ; **V-V7-IV; VII7-V-VII7.**

4.3. Ilk klassik garmoniyasida lad tizimining ayrim xususiyatlari

XVIII asr musiqasida ikki kontrast *lad* tuzilishlari hisoblangan – major va minor ustunlik qila boshlaydi. Buni Joskene de Pre, ayniqsa – Orlando Lasso va Palestrina, bundan tashqari Bax, Skarlatti, Gendel, Ramo, Kuperen va boshqa kompozitorlar asarlarida korishimiz mumkin. *Major* – asosan tabiiy korinishda qollanilib, faqatgina kadentsiyalarda garmonik korinishda boyitilishi mumkin bolgan. *Minor* – esa uch turda, ya’ni tabiiy, garmonik, melodik turlarida uchrasha ham asosiy korinishda garmonik minor gavdalanadi.

Bax Ozining xromatik fantaziyasida, ham tabiiy, ham garmonik, ham melodik minor (birinchi 2ta taktida) turlarini qollaganligini korishimiz mumkin:

FANTASIA



Tabiiy minor qisqa muddatlarda, melodik minor esa ko \square pincha pog \square onama-pog \square ona qo \square llaniladi. Barokko davrining kompozitorlari ijodida majorga qaraganda minorga bo \square lgan qiziqish kuchli bo \square lgan. Masalan, buni Baxning asarlarida ham ko \square rishimiz mumkin. U qayg \square uli holatlarni yaratishda minordan juda ko \square p foydalanadi. shuningdek, Vivaldi, Ramo, Kuperen san'atlarida ham minorning ahamiyati muhimdir. Lekin Skarlatti asarlarida bu holatning aksini uchratamiz. Uning klavir uchun yozilgan asarlarida majorning o \square rni katta, sonatalarning to \square rtdan bir qismigina minorda yozilgan:

Minor qayg \square uli obrazlarni ifodalashi bilan birga, optimistik holatlarda ham o \square z aksini topgan. Masalan, Bax o \square z syuitalaridagi raqsbop pyesalarda ham minordan keng foydalangan. Major ba'zi asarlarda har doim ham optimistik

yorqin emotsiyalar doirasini ifodalamagan. Masalan, "Samson"dagi dafn marshi – D-dur, Glyukning "Poteryal ya Evridiku" – C-dur. Minor ladining majorga qaraganda ustunlik sabablaridan biri minorda tuziladigan kamaytirilgan septakkord bilan bog□liq. Ushbuakkord birinchidan – o□zining nihoyatda keskinligi bilan, ikkinchidan esa – engarmonik modulyatsiyalarga yo□l ochib, tonal xarakatlarni boyitish imkoniyatiga ega ekanligi bilan kompozitorlar e'tiborini o□zida jalb etgan.

Shu qatorida barokko davri garmoniyasida *modal ladlar* o□z ahamiyatini yo□qotmagan. Tonal ladlar bilan birga modal ladlar ham ishlatilgan.

Bax va uning zamondoshlari asarlarida major va minor ladlari bilan birga cherkov janrlari va xorallarda qadimiy modal ladlarning qo□llanilganligiga guvohi bo□lishimiz mumkin. Masalan, M.Etinger aytib o□tganidek, Bax xorallarida eoliy ladi bilan birga, frigiy, doriy, miksolidiy ladlari ham qo□llanilgan:

И. С. Бах. Английская сюита d-moll, гавот II



Berilgan misolning belgilangan taktidagi *gis* tovushi qo□sh dominanta tushunchasiga bog□liq bo□lishi mumkin emas, bu yerda lidiy ladi qo□llanilganligini ko□rishimiz mumkin. Quyidagi keltirilgan yana bir misolda miksolidiy ladi keltirilgan:



Qadimiy modallik tamoyillarining yana bir korsatkichi – bu kalit belgilarining hozirgi kalit belgilari bilan tog'ri kelmasligidadir. U davrda tonallik tushunchasi oxirigacha shakllanmaganligi tufayli kalit belgilari faqat nota oqishda qulaylik tugdirishi uchun qoyib chiqilar edi. Masalan, Baxning h-moll va E-dur partitalarida kalit belgilari quyidagicha qoyilgan:

аллеманда

Партита E-dur

XVIII asrning 1-yarmida tonallik markazlashtirilgan tizim sifatida uzil kesil shakllanib, kalit belgilarini yozish qoidalari barpo etiladi.

Asosiy tushunchalar va atamalar.

1. **Ilk klassik musiqa garmoniyasi.**
2. **Bir tekis temperatsiyalangan tizim.**
3. **Barokko musiqasi.**
4. **Akkord koordinishlara.**
5. **Kadentsiyalar.**
6. **Lad.**
7. **Major.**
8. **Minor.**
9. **Organ punkti.**

Vizual materiallar.

Bax.Inglizcha syuita d-moll

Sarabanda

Lento

Musical score for D.Scarlatti's Sonata mi minor. The score consists of two staves. The top staff is in G minor (dolce express.) and the bottom staff is in A minor (più express.). The key signature changes between the two staves.

D.Skarlatti. Sonata mi minor.

Musical score for D.Scarlatti's Sonata mi minor. The score consists of two staves. The top staff starts at measure 48 and the bottom staff starts at measure 49. The key signature changes between the two staves.

Tahlil uchun asarlar.

1. Старинная клавирная музыка из репертуара Голубовской: Скарлатти. Сон. До мажор; Рамо. “Курица”; Люли. “Нежная ария”.

Yozma vazifalar.

1. Берков В, Степанов А. Задачи. Прелюдиялар учун мавзулар. №№ 1,4. Reprizali ikki qismli shaklda yozish.

Adabiyot.

Этингер П. Раннеклассическая гармония. М., 1978.

Seminar.

1. Renessans davrining namoyandalari.
2. Renessans davrining estetikasi.
3. Renessans davrining musiqa nazariyasi.
4. Cherkov musiqasi.
5. Grigorian monodiyasining ahamiyati.
6. Modal garmoniyasi.
7. Ilk klassik musiqasi
8. Ikki ladlik.
9. Modal ladlarning o'rni.
10. Funksiyanal tizim.
11. Akkord ko'rinishlari.
12. Bax ijodiyoti.

5. Vena klassik kompozitorlari garmoniyasi

(XVIII asr va XIX asr boshlari)

5.1. Kirish

Garmonianing asosiy qonuniyatlari vujudga kelishi XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asr boshlari (Vena klassiklari davri)ga toʻgʻori keladi. Bu davrda garmoniya kridalarida ancha aniqlik, yorqinlik paydo boʻlishi natijasida sonata-simfonik janri, yirik shakllar hamda ularning garmoniyasi ham sekin-asta vujudga kela boshlaydi va bu bilan davrning musiqiy-badiiy maqsadlari amalga oshadi. Vena klassiklari musiqasida maishiy va xalq janrlari ahamiyati oʻsib boradi. Shu bilan birga, yirik janrlar qatori davr garmoniyasining xususiyatlarini olgan holda opera janri ham bab-baravar rivojlanib, unda sonata-simfonik janrlarining ham taʼsiri seziladi. Davr garmoniyasini aniqlashda aynan sonata-simfonik janr muhim ahamiyat kasb etib boradi.

Vena klassiklarining musiqasidagi serqirraligi va mohirligi – garmoniya xususiyatlarining mantiqiy toʻgʻori rivojlanishi, keng qamrovli ladofunksional impulsning markazlashuvi va aniqlashuvi, musiqiy asarning har qanday darajasini, yaʼni, yondosh boʻlgan ohangdosh tovushlarning qoʻshilishidan tortib, to tonalliklar va ularning guruh, doiralari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirning tugallangan, butun koʻrinishga ega boʻlishi, garmonianing dinamik roli kuchayganligi bilan belgilanadi. Ularning garmoniyasida – oʻzaro dinamik munosabatlar, yaʼni gorizontal garmonianing ladofunksional qiyofasi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bu davrning yana bir oʻziga xos tomoni shundaki, garmoniya xususiyatlarining tarixiy shakllanish va rivojlanishidagi kulminatsiyani hamda qadimdan boshlangan garmoniya tarixining asosiy rivojlanish pogʼonasini oʻzida aks ettirgan.

Klassitsizm estetikasining mohiyati – major-minor tizimining imkoniyatlari, ifodaviy, mantiqiy uyushgan shakli bilan uzviy bogʼliqdir. Vena klassiklarining estetikasida – uygʼonish davrida paydo boʻlgan gʼoyalarni davom ettiruvchi umumiy qirralar mavjud. Sanʼat rivojlanishi bosqichining XVIII asr va XIX asr boshlaridagi musiqiy garmoniyada davrning buyuk gʼoyalari – idrok, insonparvarlik, yuksalish va taraqqiyot, shaxs erkinligi, insonning hayotga

yangicha qarashlari va munosabatlari, aniqlik hamda tartib kabi yuksak maqsadlaridan iboratdir. Bu qirralar davr kompozitorlari ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

5.2. Major va minor tizimi

Major va minor tizimining Yevropa musiqa san'atida XVII asr boshlarida paydo bo'lishiga musiqa san'atining cherkov iskanjasidan ozod bo'lib, interval tuzilmasining aniq prinsiplari bilan birga to'liqakkord tizimi ham shakllanib borganligi, akkorlarning oddiy fakturalari aniqlanganligi, garmonik ladning shakllanganligi, oktavali, uchfunksiyali tizimning, uyushgan markaz sifatida - tonallik ahamiyatining aniqlanganligi – oldindan, davrlar mobaynida tayyorlanib kelingan qirralaridir.

Major va minorning muhim jihatlari –akkordlarning nisbatan serharakat, erkin, ya'ni, chegaralanishdan, tarkibi dissonanslikdan mustasnoligi, funksional jihatdan nisbatan aniq, ravshanligidadir. Shunday qilib, major-minor tizimining hukmronlik davlari uch asrlar chamasi davom etib, bu davrlar ichida tizim bir nechta bosqichlardan o'tadi. Uning eng gullab-yashnagan davri XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlariga to'g'ori keladi. XIX asrning oxirgi uchdan ikki qismidan boshlab esa, asta-sekin chekinish davri boshlanadi.

Vena klassiklari davridan boshlab, barcha major-minor turlari (nomdosh, parallel, bir tersiyali tizimlar)ning vositalari tonal rivojini boyitish maqsadida tobora xilma-xil va muntazam ravishda kompozitorlar ijodida qo'llanila boshlandi. Major-minor tizimining shakllanishi va rivojlanishi garmoniyada bo'yox vositalaridan keng foydalanish jarayoni bilan bog'langan.

Vena klassiklarida major va minorning bir butun tizimga haqiqiy birikishi mavjud emas, degan fikr keng yuritiladi. Lekin ba'zi bir tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, major va minorning navbatlanishi jumla yoki qismning aksi sifatida qaytarilishi bilan bog'liqdir (Beethoven, "Avrora" final asosiy mavzu).

Modulyatsiya bemolli tomonga ko□p hollarda nomdosh tonika orqali amalga oshiriladi (odatda major minorga aylanadi). Minorli subdominanta orqali harakatdan ko□ra bu yo□l aynan ular uchun juda xos.

Betxoven, 2-sonata, II qism.

Adagio con molt' espressione

Nomdosh tizim – eng kuchli buyoq imkoniyatlariga ega. Chunki parallel tizimga qaraganda nomdosh tizim assosida ancha uzoq masofadagi major va minor tonalliklari birlashtiriladi va natijada tovushqatorga sezilarli o□zgarishlar kiritiladi. Nomdosh tonalliklar yokiakkordlar qiyoslanishining kuchli taassuroti – tonal markazi o□zgarmasdan umumiyl holda saqlanib, major yoki minor ladlarini yakka ta’riflaydigan tovush - tersiyaning o□zgarishida namoyon bo□ladi.

Nomdosh tonika – modulyatsiyalovchi vositaning asosiy obrazi sifatida namoyon bo□lib, ko□p hollarda sonatali shaklning majorli yondosh yoki yakunlovchi partiyalaridan oldin ishlatilishi odat tusiga kirib qoladi. VI uchtovushligi – ba’zi hollarda to□xtatilgan aylanma yoki kadensiyalarda biron birakkordga tenglashtirilishi modulyatsiya jarayonini kengaytiradi. Misollar: Bethoven, 6-simfoniya, III qism. Bunda fa major va re major VI pogonaning majorli tonalligi sifatida takrorlanadi. 7-sonata, menuet, repriza ning asosiy mavzusidagi – mi minor dominantasi parallel major tonikasiga yechiladi.

Nomdosh tonikaning taqqoslanishi ikki yo□l bilan amalga oshiriladi.

1. Murakkab uch qisqli shaklga trioning kiritilishi (Bethoven, 1-sonata, menuet);
2. O□zgaruvchan, beqaror modulatsion qurilma (Bethoven, 3-simfoniya, 1-qism, rivojlanuvchi qism).

Vena klassiklari musiqasida **parallel major-minor** tizimining rivojlanish alomatlari uchraydi. Parallel minordagi majorli dominanta uchtovushligi keyinchalik majordagi III pogona uchtovushligida major xususiyatining yana bir koordinishi paydo bolishiga olib keladi. Bundan tashqari, minordagi majorli dominanta uchtovushligi - major tonikasi bilan garmonik yoki melodik qoshilish hamda takrorlanish kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ya'ni, majorda III pogonaning majorli, hamda minordagi VI minorli pogonalarining kiritilishi (shular qatorida boshka xromatik mediantalar ham).

Bir tersiyali tizimning boyoq xususiyatlari murakkabroq. Bu tizim uzoq tonalliklarning qoshilishi natijasida sodir boladi. Nomdosh tizimga qaraganda, bir tersiyali tonalliklar yokiakkordlar qiyoslanganida ladni ta'riflovchi tersiya tovushi ozgarmasdan tonallik yokiakkordning ladi ozgarishi bilan sodir boladi.


Major va minorning birlashtirilishining ifodali koordinishlaridan biri, bu asosiy lad xususiyatlarining kuchayishidir. Xususan, majorga xos bolgan shodiyona, quvonchli qiyofalar major-minorakkordlarining yangrashi natijasida yanada kuchayadi. Chunki nomdosh va parallel tizimlarda maxsusakkordlarining barchasi - major uchtovushliklaridir. Minorda esa, major-minor vositalari minorga xos qayguli, gamburgin kayfiyatlarni chuqurlashtiradi.

5.3. Funksional tizim

Vena klassiklari musiqasida, markazlashtirilgan ladofunksional munosabatlar an'anasi, garmoniyadagi barcha muhim xususiyatlarning asosi boilib xizmat qildi. Kooproq dinamik shakllardagi, markazlashtirilgan major va minor lad tizimi, asosiy lad vazifalarini yaqqol koorsatib bera olgan. Funksional aloqalar orasida avtentik davralar oz ahamiyatiga ega bolib, ular keng tarqalgan. Kuchli va yorqin tonika asarda turli xil koordinishlarda garmonik harakatlarning xarakterli yonalishlarida namoyon bolgan. Garmonik harakatlarda tonika funksiyasiga intiluvchi dominanta funksiyasining ham roli juda

katta. Ladofunksional tizimda bunday avtentiklik ko \square proq savol-javob ko \square rinishida (TD - DT) keng tarqalgan.

V.A.Motsart. "Figaroning to \square y"



Xattoki, butun mavzu ham faqat ikkiakkorddan - tonika va dominanta uchtovushligidan tuzilishi ham mumkin (Bethoven 8-simfoniya, 1-qism va 20-sonata, menuet mavzusi). T va D organ punktlari ladni mustahkam va kuchli ko \square rsatib bera oladigan tasvir bo \square lib xizmat qilgan. S funksiyasi ko \square proq kadensiyalarda, davriyaning avjida va musiqiy shaklning rivojlanuvchi va tugallovchi qismlarida qo \square llanilgan. Mediantalar esa asarlarda ikkinchi darajali rolda namoyon bo \square lgan.

Musiqaning bu davrini XVII asr bilan solishtirilganda, garmoniyada hech qanday yangilik sezilmaydi. Dominanta guruhidagiakkordlardan ko \square proq V₇ va V pog \square ona uchtovushligi (aylanmalari bilan) va VII₇ (aylanmalari bilan) lar qo \square llanilgan. Majorda kichik VII dan ko \square ra, katta VII dan kengroq foydalanishgan.

Asarlarda VII₇ V₇ga o \square xshab ko \square p qo \square llanilmagan. Kamaytirilgan VII₇ga - asosiy tasvirda kuchli dramatik xarakterni ifodalash zarur bo \square lgan holatdagina murojaat etilgan. Masalan: Glyukning "Orfey" operasi 1-aktidagi do minor xorida deyarli subdominantaakkordlari mavjud emas; tugallovchi kadensiyada subdominantaakkordi o \square rniga VII₄₃dan foydalanilgan. Bu yerda kamaytirilgan septakkord qo \square llanilishi g \square amgin kayfiyatni tasvirlashga yordam bergen.

Glyuk "Orfey", 1-sahna

[Moderato]

Bethovenning 7-sonatasi Largo e mesto - garmoniyasida gamburginlikni tasvirlash uchun birinchi taktdanoq kamaytirilgan septakkordlardan ketma-ket 5 marta foydalangan, yana shunday misolni Glyuk "Armida" operasining oxirgi 3-aktida, bir necha taktlarda takrorlangan kamaytirilgan septakkordni ko'rishimiz mumkin.

Vena klassiklari davrida V9 mustaqilakkord sifatida emas, balki D ga to'xtalma sifatida tushunilgan. Bethoven 32-sonatasining 1-qismi reprizasida shuningdek 3-simfoniyasining mi minor epizodidan oldin, rivojlovda (II65 dan keyin) nona - oxirida to'xtalma sifatida qo'llanilganligini ko'ramiz.

Bu davrda subdominanta garmoniyasini, asosan, asarning kadensiyalarida uchratish mumkin. Vena klassiklarida subdominantaakkordlari asarning kulminatsiyalarda ko'proq qo'llanilgan (bunday xususiyat hozirgacha saqlanib kelmoqda). Masalan: Bethovenning 2-sonatasidagi boshlanish qismida bunday holatni kuzatamiz.

Subdominanta guruhidagi birinchi o'rinda turuvchi eng ko'p qo'llaniladiganakkord bu – II6 dir. Shuningdek, kadension davralarda II65 va II43akkordlari ham

ishlatilgan, basda II pog \square onaning asosiy tonini kamdan-kam hollarda uchratish mumkin. IV pog \square onaakkordi ham keng tarqalgan. II2 boshlang \square ich davralardanoq qo \square llanilgan holatlar ham mavjud. (Motsart sol minor simfoniyasi).

VI pog \square ona uchtovushligidan bo \square lingan kadensiya va davralarda tonika va yorqin subdominanta oralig \square ida foydalanilgan. Bu davrda VI pog \square onaning boshlang \square ich qismlardanoq qo \square llanilishi tez-tez uchraydigan holatdir.

Andante

Гайдн.104- симфония, II қисм.

G-dur I V7 VI

Bethoven musiqasida subdominantaakkordlari o \square ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, 18-sonatasida birinchi taktlardanoq II65akkordini qo \square llagan. Kompozitor subdominantaakkordlaridan, barcha noturg \square un funksiyalar o \square zaro ta'sirligida katta qarama-qarshilikni yuzaga keltirish uchun foydalangan.

Bethoven ijodida subdominantaga og \square ishmalar tez-tez uchraydi (do-minor kvarteti asosiy mavzusi). Bu davrda boshqa subdominantaakkordlari orasida II pog \square ona alohida ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turgan.

5.4. Modulyatsiyalar va og \square ishmalar

Mumtoz garmoniya davrida modulyatsiyalar katta ahamiyati ega. Asosiy tonallikdan chetlashish va umumiyl shakl aniqlikligiga va mustahkamligi uchun beziyon tonal munosabatlar murakkablashuvi, bu davr musiqasini Bax davri musiqasidan farqlab, ajratib turadi. Modulyatsiyalar – Vena klassiklari ijodida asarni kuchli rivojlantiruvchi va tematizm, faktura, dinamikaning qonuniy tartibda o \square zgarishi bilan o \square zaro aloqador vosita bo \square lib hisoblangan.

Bu davr garmoniyasida keng turdag'i modulyatsiyalardan foydalanishgan. Odatiy tekis va pog'onama-pog'ona harakatlarda turli diatonik qardosh tonalliklarga, shuningdek, dominanta orqali modulyatsiyalar, nomdosh tonika (Gaydn "Yil fasllari"), majorning minor subdominantasi, VI pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi, neapolitan subdominantasi orqali bajariladigan modulyatsiyalar bu davr uchun xosdir.

Vena klassik kompozitorlari engarmonik modulyatsiyalardan ham keng foydalanishgan. Engarmonik modulyatsiyalar uchun qollaniladiganakkordlar, ko'pincha dissonanslar bo'lib, kamaytirilgan septakkordlar, D7 va orttirilgan uchtovushlikning engarmonik ko'rinishi kabilar keng tarqagan. Musiqiy amaliyotda kamaytirilgan septakkord (VII⁷), birinchi engarmonik o'zgacha talqinlanganakkorddir. Vena klassik kompozitorlari ijodida esa D₇ engarmonizmi paydo bo'lган.

Motsart, engarmonik modulyatsiyada – kamaytirilgan yetakchi septakkordni dominanseptakkorga engarmonik tarzda qollaganini ko'rishimiz mumkin:

Motsart. "Rekviem", Confutatis

Bu davrda ogishmalar o'z xususiyatini saqlab qolgan. Vena klassiklari, garmonik rivojlanishda ko'proq qardosh tonalliklarga ogishmalardan foydalanishgan. Majorda III pog'onaga, minorda esa VI va VII pog'onalarga kamdan-kam hollarda ogishmalar mavjud. Ogishmalarda dominantalar - yengil hissalarga, yechilishi esa ogir hissalarga joylashtirilgan. Bu davr kompozitorlari

ijodida asosiy tonallikka tezda qaytuvchi uzoq ogishmalar ham uchraydi (Beethoven skripka konserti, birinchi epizodda alteratsiyalangan yetakchi septakkord engarmonizmi orqali A-dur - es-moll tonalligiga ogishma). Ogishmalar sekvensiya tarzida navbatlashishi ham mumkin (Beethoven 18-sonata 1-qismi). Ogishmalarning otkinchi va kadansli koinishlari mavjud bolgan. Kadansli ogishmalar - biror musiqa jumlasining yakunida yoki uning biror qismi oxirida qollanilgan. Otkinchi ogishmalar - tizim orasida, kadentsiyasiz paydo bolgan. Otkinchi ogishma ma'lum darajada otkinchi tovushga va otkinchiakkordga oxshaydi. Beethovenning fortepiano sonatasi, op.26, 1-qismida bunday turdagи ogishmadan foydalanganini korishimiz mumkin:

L.Betxoven. F-no sonata op.26, 1 qism



Asosiy tushunchalar va atamalar

1. Klassik musiqa garmoniyasi.
2. Klassitsizm estetikasi.
3. Major-minor.
4. Funksional tizim.
5. Modulyatsiya.
6. Shakl.
7. Nomdosh tizim.
8. Parallel tizim.
9. Organ punkti.
10. Kadensiyalar.

Vizual materiallar

V.A.Motsart. Sonata 13. 3 qism

Allegro grazioso



L.Betxoven. Sonata 2. 3 qism

Allegretto



Tahlil uchun asarlar

1. Betxoven. Sonatalar № 5,14. 1qismlarning tonal rejasini yozish
2. Motsart. “Staruxa”. Tahlil ikki nuqtai nazardan: ilk klassik va Vena klassik uslublari.

Adabiyot. Qisqa konspekt yozish

1. Бершадская Т. Лекции по гармонии. Л., 1978.

2. Способин и. Лекции по курсу гармонии. М., 1969.
3. Мазель Л.А. Проблемы классической гармонии. М., 1972.
4. Эtinger П. Раннеклассическая гармония. М., 1978.

6. XIX asr garmoniyasi

6.1. Kirish

XIX asr uchun jadal va garmoniyaning har tomonlama rivojlanishi xos boʻlgan. Shu asrda garmoniyaga tegishli boʻlgan individual yorqin uslublar paydo boʻlgan. Kompozitorlarning garmoniyaga boʻlgan munosabati oʻzgaradi, shundan kelib chiqqan holda ijodiy dunyo qarash qirralarini xarakterlaydigan funksiyalari ham oʻzgaradi. Bularning hammasi ijodiy intilishlarini tasvirlaydi.

Ijodkorlar sanʼat fanining oʻziga yangicha yondashishadi. Bu yondashish sanʼatning estetik chegaralarini kengaytiradi. Ular nafaqat hissiyot yoki kayfiyatning mohiyatini ifodalaydi, balki uning nozik qirralarini mujassamlashtiradi. Shu bilan birga real yoki fantastik koʻrinishda ifodalangan tashqi dunyo timsollarini musiqa sida tasvirlari boyitiladi. Manzaraviy musiqiy koʻrinishlar, oʻziga xos portret va chizgʻilar nihoyatda koʻpayadi.

Programmalik XIX asrda musiqaning subyektiv va obyektiv koʻrinishlarini konkretlashtirish tendensiyasining alohida va keng tarqalgan ifodasi boʻlib chiqadi. Bu hol musiqaning nutqiy va tasviriy sanʼatlarning turli koʻrinishlari bilan aloqasining kuchayishiga olib keladi (sanʼatlar sintezi tamoyili). Masalan, Shumannning “Karnaval” asarida yaqqol koʻrinadi.

Garmoniya aytib oʻtilgan tamoyillar bilan nozik va koʻp qirrali nyuanslarga alohida qobiliyatni orasidagi aloqalarini aniqlaydi. Nyuanslar psixologik – ifodaviy bilan bir qatorda tovush – koloristik musiqiy majmui koʻrinishiga ega.

XIX asr garmoniyasining rivojlanishi o‘zining fanga bo‘lgan yangi qarashida nafaqat bitta boshqaruvchi musiqa janri bilan (Vena klassik davridagi sonata-simfonik janri bilan), balki bir vaqtdagi ko‘p janrlar ishlatilgan: operadan boshlab qo‘shiq va romanslarga, simfoniyadan boshlab har xil instrumental miniyaturlargacha.

Shu asr musiqasida an’anaviy maktablar o‘z rivojini topganlar va ular xalq an’anaviy san’atdagi janr va shakllarga tayanishgan. Bularda katta o‘rinni rus musiqa klassiklari egallagan.

6.2.XIX asr garmoniyasida ohangdoshliklar.

XIX asr musiqasi uchun obrazlarning aniqligi va tovushning yorqinligi estetik ahamiyatining o‘sishi, maksimal realizatsiyaning ifodali va yorqin potensiyalarning intilishlari xos bo‘lgan.

Ohangdoshlik lad funksiyalarining jadal o‘zgarilib turilishi o‘sdi. O‘zgarib turadigan fuksiyalarining maksimalligi ko‘pincha xalq musiqa ijodiga tegishli bo‘lgan (ayniqsa, rus musiqasida, XIX asrning ikkinchi yarmi).

Lad funksiyalarining o‘zgarib turilishi garmoniyaning fonik, ifodali va yorqin turini kuchaytiradi. XIX asrning garmoniyasida o‘zgarilib turadigan lad funksiyalari va fonizm ohangdoshligi kuchaygan.

Klassik musiqasida uchta funksiya ishlatilgan (T, S, D). Lekin XIX asr garmoniyasida kvarta va kvinta aloqalari bilan bir qatorda sekunda va tersiya aloqalar paydo bo‘ladi – medianta.

Struktura – ohangdoshlikning shakli va har xil fonik effektlarning rivojlanishi XX asr garmoniyasida ham uchraydi:

1. Ko‘p ovozlikakkordlar paydo bO‘lishi keyinchalik polefuktsional oxangdoshlikka olib keladi.
2. Aytib o‘tilgan antitest (ko‘pincha uchtovushlikning tersiyasiz yoki kvintasiz bo‘lgan). Bu, masalan, Bethovenning 9-simfoniyasida, Shubertning “Dvoynik” asarida ko‘rsak bo‘ladi.

3. Har xil ohangdoshlikning modifikatsiyalangan shakli yondosh tonlarni o□z ichiga oladi. Boshida tepadagi sekstalarni (V, VII va I pog□onadagiakkordlarda) va kvartalarni (VII pog□onadagiakkordlarda), keyin pastki tersiyalarni (“subtersiyalar” bir xillarda “Shubertakkordlarida”, bir xillarida tonika uchtovushligiga qo□shiladi). Shunda mustaqil dissonans ohangdoshlarining darajasi o□sadi.

4. Notersiyaviy struktura ohangdoshligining rivojlanishi, sof kvinta, sof kvarta va katta sekunda qatlamlarini ichiga olgan, vertikal birlashtirish asosida har xil noyarimtonli tovushqatorlar sabab bo□ladilar. Boshida diatonik (pentotonika va uning qismlari), keyin esa xromatik (butun ton gammasi va uning qismlari) keladi. Bunaqa garmoniyani List va Borodinda ko□rsak bo□ladi.

5. Ohangdoshlikning xromatik o□zgarishi (alteratsiya) har xildir. Alteratsiya ohangdoshligining mustaqilligi XIX asrda o□z tarixiy avjiga ega bo□lgan: tayyorlanishsiz paydo bo□lishi, kelayotgan davr uchun Vagnerning “Tristan” operasida ko□rsak bo□ladi.

6.3. XIX asr garmoniyasida ohangoshlikning ladofunksional guruhlari

Tonika. Tonika XIX asrga kelib ham o□z ahamiyatini yo□qotmagan. Shu bilan birga tonika akkordining yangi sifatlari paydo bo□lgan. Bu struktura ladofunksional holati yangilanishi bilan bog□liqdir. Tonika yanada yorqin va ifodalib bo□ladi.

Shu asrga kelib deferentsiatsiyalangan lad strukturalari o□sadi. U o□zgaruvchan tonika rolini kuchaytiradi. XIX asr garmoniyasi uchun markaziy tonikaning kam jadalligi xos bo□lgan. U o□tgan davrga qaraganda kamdan kam uchraydi va yana yakunlovchi qismlarda melodik tersiya va kvinta toni holatda keladi. Bosh va o□rta mazmunini ifodalash uchun yoki sekstakkord, yoki kvartsekstakkord holatida olinadi.

Yirik va kichik musiqa shaklining garmoniyasini farqlash uchun, XIX asrdan boshlab, tonika sifatlari bilan aniqlangan. Ayniqsa, uning aniq, turg'un va mustahkam darajasi bilan. Bu, masalan, Shopen ijodida (prelyudiyalarida, mazurkalarida) yaqqol ko'rindi.

Musiqa asarlarida boshidagi tonika har xil metodlar bilan birga kelishi keng tarqalgan. Bir vaqtda tonikaning ochilishi ko'p ushlab turilgan, fonik-rangdorlik ohangdoshligi sifatida keladi (ayniqsa, List, Wagner, Rimskiy- Korsakov).

Tonika yana metro-ritmik va pedal tasdiqlash sifatida ham paydo bo'ladi (tonika pedal tovushi, bir xillarda bitta registrdan boshqasiga o'tadi va shu bilan birga har doim har xil garmoniyani "bezaklaydi").

Ko'pincha kichik shakllarda tonika oxirida keladi, so'nngiakkord sifatida. Bir xillarda esa katta bo'limgan asarlarda tonikada tugatilmaydi (oxiriga yetkazilmagan effektini beradi. Bu Shumannning "Kapalaklar" asarida, List va boshqalarda uchraydi).

XIX asr garmoniyasida tonikaakkordlarining tuzilishi har xil bo'ladi. Tonikaakkordlarida oddiy va stabil shakli katta shakllar shartlarida paydo bo'ladi (major va minor uchtovushligida). Qiyin va har xil modifikatsiyalanganlari ko'pincha kichik shakllarda paydo bo'ladi. Shu bilan bir qatorda yirik opera va simfonik asarlardagi alohida bo'lgan epizodlarida uchraydi. Haqiqiy tonikaning paydo bo'lishi nafaqat absolyut shaklida, balki modifikatsiyalangan shakllarida ham paydo bo'ladi.

Asrning ikkinchi yarmiga kelib tonikaning bir xil shartli shakllari paydo bo'ladi (masalan, kam.7akkordining tonikalligi yoki kamdan-kam ort.53). Tonikaakkordining shakli rivojlanib, XIX asr garmoniyasining struktura ohangdoshligining rivojlanishiga katta ta'sir qilgan (alteratsiyalardan tashqari). Tersiyasiz, ayrim paytlarda kvintasiz bo'lgan bo'sh tonikakkordlariga ko'pincha seksta yondosh tonlarning kiritilishi xosdir (List, Borodin, Shtraus, Chaykovskiy, Musorgskiy)¹.

Asosiy atamalar va tushunchalar

1. Romantik musiqasi.
2. Major-minor.
3. Akkord.
4. Tabiiy ladlar.
5. Funksional tizim.
6. Alteratsiya.
7. Diatonika.
8. Xromatika.
9. Tonal tuzimlar.
10. Modulyatsiya.

Vizual materiallar

R.Shuman. “Albom dlya yunoshestva 21”

The image shows two staves of musical notation. The top staff is in common time (C) and common key (C). It features a dynamic marking 'p' (piano) and includes a basso continuo line below the treble clef staff. The bottom staff is also in common time (C) and common key (C), featuring a basso continuo line below the bass clef staff. Both staves include measure lines and bar lines, with some measures containing eighth-note patterns and others sixteenth-note patterns. The notation is typical of early 20th-century piano music.

F.Shubert. "Vals"

Op. 9a, 15

Musical score for F. Shubert's "Vals" Op. 9a, 15. The score consists of two staves. The top staff is in treble clef, 3/4 time, and B-flat major. It features eighth-note chords in the bass and sixteenth-note patterns in the treble. The bottom staff is in bass clef, 3/4 time, and B-flat major. It features eighth-note chords. The dynamic marking "pp" (pianissimo) is indicated in the bass staff.

M.Glinka. "Ruslan va Lyudmila" Uvertyura



Tahlil

1. Shopen. Mazurka Do major.
2. Лист. “Цвет и запах”.
3. Shopen. Preljudiya №20.

Adabiyotlar

1. Бершадская Т. Лекции по гармонии. Л., 1978.
2. Способин и. Лекции по курсу гармонии. М., 1969.
3. Мазель Л.А. Проблемы классической гармонии. М., 1972.
4. Ushbu adabiyotlarga tayanib ma’ruzalar tayyorlash.

Yozma ish

Seminar

Talaba bajarishi kerak boʻlgan vazifalar

Savollarga javob berish:

1. Markaziy Yevropa romantik musiqasi bilan birgalikda qanday milliy kompozitorlik maktablari shakllangan?
2. Shu davrning mashhur kompozitorlarning nomlarini ayting.
3. Klassik major-minor tizimi XIX asrda rivojlanishida qanday janrlar ahamiyatli boʻlgan?
4. XIX asr musiqasi garmoniyasiga taalluqli asosiy tushunchalarga taʼrif bering.
5. XIX asr musiqasining:
 - 1.akkordlar tarkibi;
 - 2.funksional tizimi;
 - 3.alteratsiya;
 - 4.lad tizimlari;
 - 5.diatonika va xromatika.

7. Zamonaviy garmoniya asoslari (XX asr)

7.1 Akkord

XX asr musiqa tajribasi shuni koʻrsatdi-ki, vertikal oʻlchamining yangi-yangi muammolari paydo boʻlmoqda, chunki kompozitorlar tafakkuri, musiqiy tilning rivojlanishi, ifodalash vositalari xilma-xil uslubiy yoʻnalishlarni yuzaga keltiradi va ohangdoshliklarning turi koʻpayishiga hamda boyishiga olib keldi.

Ko'povozli tersiyaviy vertikallar – bu an'anaviy klassikakkordning tersiya (tersiyalar) qo'shilishi bilan murakkablashishidir. Ushbu vosita tersiya bo'yicha tuzilganakkordlarning murakkablashtirish uslublari ichida eng oddysi bo'lib, amaliyotda muhim o'rinn tutadi. Ko'povozli vertikallar XVII-XIX asr klassik va romantik musiqasida vujudga kelib⁵, XX asr kompozitorlari ijodida yanada rivojlangan.

Ushbu ko'povozli ohangdoshliklar guruhida birinchi bo'lib shakllangan nonakkord, XIX asrdan boshlab qo'llanilib kelingan. Nonakkorddan keyingi murakkablashgan ohangdoshliklar soni undetsimakkord (11), tersdetsimakkord (13) va kvintdetsimakkord (15) lar bilan boyitilgan.

Kvintdetsimakkord tersiya qatorini ikki oktava hajmida tugatadi va tersiya bo'yicha tuzilgan sakkiztovushlikni hosil qiladi (№ 1 misolni qarang):

№ 1.

D₉ D₁₁ D₁₃ D₁₅

Tersiyalar soni ko'payishi natijasida, masalan undetsimakkord – *do-mi-sol-si-re-fa* yoki tersdetsimakkord *sol-si-re-fa-lya-do-mi* yettitovushli diatonikaning tovushqatoridagi barcha tonlarni o'z ichiga qamrab olganligi tufayli, tovush tarkibi bir-biridan deyarli ajralmaydi (№ 2a misolga qarang).

Ko'povozli tersiyaviy vertikallarning faktura va tuzilish jihatlarining shakllanishida akustika qonuniyatları katta rol o'ynaydi. Ushbu ohangdoshliklarning yaxlit kompleks sifatida idrok etilishi – oberton qatoriga qaramlidir. Masalan, ko'ptersiyaviy ohangdoshliklarning eng oddiy turi – nonakkordning hamma tovushlari oberton qatorining birinchi tonidan to toqqizinchisigacha toqg'ori kelsa (*do-mi-sol-sib-re*), u soqzsiz, yaxlitakkord sifatida baholanadi (№ 2b). Agarda, nonakkordning tuzilishi oberton qatorining

⁵ Ko'povozli ohangdoshliklarning ilk namunalaridan birini D.Skarlatti re major sonata (№ 8)sidan olingan lavhada uchratamiz. Ushbu misolni T.Myuller o'zining "Garmoniya darsligi" (-M., 1982, 61-b.)da keltiradi.

tovushlariga toqori kelmasa (*do-mib-so-si-re*,) yaxlitligi ancha susayib, kopincha ikki uchtovushlikka (*do-mib-sol* va *sol-si-re*) boolinganligi seziladi (№ 2v). Shundan kelib chiqadi-ki, ayrim hollarda nonakkord oqotib, ikki qatlamga bolinadi va polifunktional ohangdoshlik sifatida namoyon boladi.

Ushbu qoidaning ahamiyati boshqa kopovozliakkordlar (undetsimakkord, tersdetsimakkord, kvintdetsimakkordlar) qollanilishida yanada kuchayadi.

Shu bois bundayakkordlar registr orqali bolinishi ham mumkin. Bunday holatlarda yaxlitlik eshitilmay, qatlamlanish, ya'ni polifunktionallik aniq seziladi (№ 2g).

Kopovozli tuzilmalarga xos *bifunktionallik* sharoitida kopincha bir qatlamning funksiyasi asosiy baholanib, boshqasi esa ikkinchi darajali sifatida baholanadi. Asosiy funksiyani aniqlashda pastki qavatdagi bas toni muhim rol oynaydi.

Mazkurakkordlar aylanmalarining qollanilishida, ayniqsa, bifunktionallik xususiyati yaqqol oz ifodasini topadi. Masalan: *sol-si-re-fa-lya* – *Do majorda* – *D* funksiyasiga ega bolsa, *re-fa-lya-do-sol-si-re*, ya'ni undetsimakkordning basda kvinta toni joylashgan holatida, uning S xususiyatlari yuzaga chiqadi (№ 2d).

№ 2. a) b) v) g) d)

Shuning uchun ham, nonakkordlardan boshlab kOpovozli tersiyaviy ohangdoshliklarning aylanmalari kam qollanilib, ozlarining rasmiy nomiga ega bolimgan. Bunday bifunktional kopovozli ohangdoshliklar ladning asosan I, V va II bosqichlarida tuziladilar.

Kopovozli tersiyaviy tuzilmalarning tersiya soni kopayishi bilan ularning dissonansligi kuchayishi, shu bilan birga, funksiyasi susayishi natijasida

bu tuzilmalarning bo□yoq dorligi, ya’ni fonizm tomonining ahamiyati kuchayishiga olib keladi. Ushbu ohangdoshliklarning mazkur xususiyatlari ularning ichki interval tuzilishi, tarkibi, tovushlarning umumiy soni, joylashuvi, juftlashuvi, registr sharoitlari, tembri va hokazo omillar bilan chambarchas bog□liqdir.

Akkordning tersiya tarkibiga kirmaydigan tovushlarini shuakkord bilan birga qo□llanilishi *qo□shimcha* tonlarni⁶ tashkil qiladi.

Qo□shimcha tonlar bilanakkordlarning murakkablashuvi zamonaviy garmoniyaning asosiy tamoyillaridandir. Akkordlarning tersiyaviy tuzilishining o□zgarishi boshqa tuzilmali (o□zga interval bo□yicha) ohangdoshliklarning vujudga kelishi bilan bog□liq.

Qo□shimcha tonliakkordlarning shakllanishi XIX asr oxiri - XX asr boshlariga taalluqlidir.

Mazkur tonlar almashuvchi va kiritilgan turlariga ajraladi. Bunday tonlarga sekunda, kvarta, seksta tovushlari kiradi. Ular diatonik va xromatik tarzda ishlatilib, bir nechta bo□lishi mumkin.

Ohangdoshliklarda almashuvchi tonlar akkordning tovushlari o□rnigaakkordsiz tonlar qo□shilishi bilan hosil bo□ladi. Almashuvchi tonlarning kiritilishi bir shart bilan bog□liqdir: avvalambor akkordning negizi saqlanib qolishi kerak. Shu bois, uchtovushlikda – kvinta, septakkordda – septima saqlanishi lozim.

Ma’lumki, klassik kompozitorlar ijodidan boshlab, akkordlarda almashuvchi tonlarakkordsiz tovushlar yordamida (to□xtalmalar, yordamchi va o□tkinchi tovushlar, kambiata, pred’yom) vujudga kelib, o□rnashgan. Ular birinchi bo□lib D₇ da, kvinta t_{oni} o□rniga seksta kiritilishi natijasida paydo bo□ladi (D₇⁶). Keyinchalik shu tarzda akkordlarning murakkablanishi keng qo□llanilgan: DVII₄₃^{3,4}, DVII₇^{5,6} SII₇^{3,4}, T⁶, T^{3,4} ya’ni tersiya toni o□rniga kvarta, kvinta o□rniga seksta joriy etilgan (№ 18 misol):

⁶ “Qo’shimcha tonlar” atamasini Yu.Tyulin o’z darsliklariga kiritib, uni ikki turga ajratadi: Ю.Тюлин, Н.Привано. Учебник гармонии. –М.,1959.

№ 18.

The musical score consists of two staves. The top staff is in treble clef and the bottom staff is in bass clef. The progression starts with a dominant seventh chord (D7) followed by a dominant seventh chord with a third (D7/VII7), then a dominant seventh chord with a third and a fifth (VII43), followed by another dominant seventh chord with a fifth (VII7). This is followed by a dominant seventh chord with a third and a fifth (VII7), then a dominant seventh chord with a third (II7), and finally a dominant seventh chord with a fifth (II7). The progression then moves to a tonic chord (T), followed by a dominant seventh chord (T), and finally a dominant seventh chord with a fifth (T).

XX asr tonal musiqasida kvarta va kvinta bo□yicha tuzilgan ohangdoshliklar juda keng tarqalgan.

Ushbu intervallar o□zbek milliy musiqasiga xos bo□lganligi tufayli, aynan, shular asosida qurilganakkordlar O□zbekiston kompozitorlari ijodida birinchi bo□lib mustaqil ohangdoshlik sifatida tasdiqlandi va hozirga qadar ko□povozli musiqaning asosiy unsurlaridan biri bo□lib qolmoqda⁷.

Kvarta va kvintaliakkordlar ladning har bir pog□onasida tuzilib, diatonika hamda xromatika sharoitlarida qo□llanilishi mumkin.

Mazkur ohangdoshliklarning ladogarmonik funksiyasini aniqlashda bas asosiy garmonik tayanch toni bo□ladi. Masalan, aniq bir tovushli tuzilmadagi ohangdoshliklarning joylashuviga qarab, turli funksiyalarni aniqlash mumkin: Domajor tonalligida *do-sol-re-lya* – tonika, *sol-do-re-lya* esa – dominanta funksiyasini ko□rsatishi mumkin:

The musical notation shows a dominant seventh chord (D) consisting of four notes: G, B, D, and F-sharp. Below it, the word "D" is written. The next note is a G, which is part of a tonic chord (T) consisting of four notes: G, B, D, and E. Below it, the word "T" is written.

Funksional tomonidan kO□p holatlarda bo□sh yoki bir necha ahamiyatiga ega bo□lgan ushbuakkordlar fonizm (bo□yoqdorlik) jihatdan nihoyatda taassurotliligi bilan ajralib turadi. Sof kvartalardan yoki kvintalardan besh

⁷ Bu haqida qaralsin: С.А.Закржевская. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. –Т., 1979; Т.Б.Гафурбеков. Фольклорные источники узбекского профессионального музыкального творчества. –Т., 1984.

tovushgacha bo'lganakkordlar yumshoq eshitilib, konsonanslikni ifodalashi mumkin⁸, olti tovushligi esa (ayniqsa kvartakkord) va tovushlar soni undan ortiqroq bo'lganakkordlar keskin dissonans sifatida seziladi (№ 44a,b misollarga qarang).

Mazkurakkordlarning tarkibida sof kvarta yoki kvinta va uchton (ortirilgan kvarta yoki kamaytirilgan kvinta) intervallarning birga qo'shilishi⁹ ham dissonanslikni tashkil qilib, katta yoki kichik darajadagi ziddiyatni tug'diradi (№ 45v).

№ 44.

Kvintakkord $\frac{5}{5}$ Kvartakkord $\frac{4}{4}$

- b) olti va yettitovushli kvintakkordlar va v) Aralash tarkibidagi kvartakkordlar
- v) Aralash tarkibidagi kvintakkord (uchton, sof kvinta) va kvartakkord (uchton, sof kvarta)

⁸ Yu.N.Xolopov o'zining "Современные черты гармонии Прокофьева". (M., 1967), nomli tadqiqotida ushbuakkordlar shunday yoziladi: "... beshtovushli kvart va kvintakkordlar alohida bir xususiyatga ega bo'ladi. O'zining tovushli tarkibiga ko'ra, pentatonika tovushqatori bilan teng bo'lganligi sabab, ularni pentakkord deb atash mumkin", 72-b.

⁹ Bundayakkordlarni Yu.N.Xolopov yuqorida keltirilgan kitobida "katta kvartseptakkord" deb yuritadi, chunki ularning tarkibida katta septima (sof kvarta yoki kvinta va ortirilgan kvarta yoki kamaytirilgan kvinta) tashkil topadi, 76-b.

7.2. Kvart, kvint, sekundakkordlar

Kvarta bo'yicha tuzilgan ohangdoshliklar *kvartakkord* deb belgilanadi.

Kvartakkordlarning tashkil etadigan kvartalar soni ikkidan, to o'n ikkigacha yetib borishi mumkin (№ 45a, b).

O'n ikki tovushli kvartakkord katta tarkibli ko'povozli ohangdoshliklar guruhiga kirib, yetti pog'onali diatonika chegarasidan chiqib, xromatika tizimida tashkil topadi. Nazariy tomondan qaraganda, bundayakkord qo'llanilishi mumkin. Lekin amaliyotda bunday ko'ptovushli (olti, yetti tovushdan ko'proq) kvartakkordlar (kvintakkordlarga ham bu hodisa taalluqlidir) kamdan-kam uchraydi.

Kvartakkord o'z tuzilishi jihatidan turlanishi mumkin. Bu kvarta intervalining sof va orttirilgan turlariga qaramlidir (№ 45v misolga qarang):


№ 45.

b) O'n ikki v)

tovushli

kvartakkord

a)



s.4 s.4 ort.4

+ + +

s.4 ort.4 s.4

Kvinta bo'yicha tuzilgan ohangdoshliklar *kvintakkord* deb yuritiladi. Ularning kvartakkordlarga o'xshab, tashkil etadigan kvintalar soni ikki, uch, to'rt, to o'n ikkitagacha yetishi mumkin va tuzilish tarkibida ham sof va orttirilgan intervallar qo'llanilishi mumkin (№ 60a,b misolga qarang).

Kvintakkordning yana bir keng tarqalgan funksional turi bu «kvintoktava»¹⁰ (№60v misolga qarang).

№ 60.

The image shows three musical examples labeled 'a', 'b', and 'v'. Each example consists of two measures of music in G major (one measure) followed by one measure of music in A major (one measure). Example 'a' shows a progression from G major to A major through various chords. Example 'b' shows a similar progression but with different harmonic details. Example 'v' shows a progression where the harmonic function changes more rapidly, possibly indicating a more complex harmonic structure or a specific compositional technique.

Zamonaviy musiqanining barchaakkordlari majmuida eng ajoyib va ḡayritabiyy tuzilmalar – bu sekunda bōyicha shakllangan ohangdoshliklardir. Sekundali ohangdoshliklarni dastlabki paydo bōlishi XIX asrda butuntonli lad hamda tersiyaviy tuzilmadagiakkordlarning bahzi bir murakkablashuvlari (alteratsiyalar, qōshimcha va juftlangan tonlar)dan kelib chiqqan. Ushbu ohangdoshliklar vertikalning mustaqil turiga ajralib, XX asr musiqasida keng tarqalgan. *Sekundakkordlar* qatoriga sekunda intervalidan ketma-ket qatlamlashgan ohangdoshliklar kiradi. Ular yarim yoki butun tonlardan, hamda yarim va butun tonli aralashma intervallardan hosil bōlib, ikki, uch, tōrt va bundan kōproq (to ōn ikkitagacha) tovushlardan iborat bōlishi mumkin. Ya’ni, sekundakkordlarda tovushlar soni, interval tuzilmasi va fakturaviy bayon etilishi xilma-xil turlanishi mumkin (№ 77 a, b, v, g misolga qarang).

Sekundakkordlar bir holatlarda garmonik funksiyaning vakili (ayniqsa, ular I, IV va V poḡonalarda uchrasa), ba’zi holatlarda esa – faqat koloristik ahamiyatiga ega bōlishlari mumkin.

Sekundali ohangdoshliklarning dissonanslik darajasi katta yoki kichik sekundalar ustun chiqishiga va tonlarining soniga boḡliqdir.

7.3. Lad asoslari

Zamonaviy musiqa ifodaviy vositalarga juda boy. Ayniqsa ladli tuzilmalarning umumiy kōrinishi juda serbōyoqdir. XX asr kompozitorlarining

¹⁰ Akkordga ushbu nomni S.A.Zakrjevskaya qo’ygan. Bu haqida qarang: Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркмении. –Т., 1979, 83-б.

ladli tafakkurida keskin burilish yuz berdi: genezisi, diapazoni, strukturasi, talqini, o□zaro ta'sir usullari va albatta, o□zining ifodaviyligi bilan farqlanuvchi lad shakllari birinchi bor shu qadar ko□p va turlicha namoyon bo□ldilar. Bularning hammasi nafaqat ladtovushqatorli asosning kengayishi va boyitilishiga yordam berdi, balki zamonaviy musiqada lad hosil bo□lish jarayonlarining intensiv o□sishidan ham dalolat berdi. Agar avvallari kompozitorlar tashabbusi, ma'lum ma'noda, aniq ishlab chiqilgan an'anaviy ladlar tizimi bilan chegaralangan bo□lsa, hozirda ular bu sohada faollik bilan izlanib, tajribalar o□tkazayaptilar.

XX asr garmoniyasining muhim ahamiyatli hodisalaridan biri - lad tuzilishlarining yangicha talqini hisoblanadi. Bir tomonidan qadimgi lad turlarining yanada ko□p qirrali rivoj topishiga amin bo□lsak, yana boshqa tomonidan sun'iy atonal tovush tizimlarining ladotonal tashkiliy tamoyillariga qarshi bo□lgan negativ munosabatini ko□rishimiz mumkin.

XX asr garmoniyasida turfa lad tuzilishlari mavjud. Ular o□z tuzilishi, xarakteri, ko□rinishi va ifodaviy vositalariga ega. O□tgan davr kompozitorlari ma'lum miqdorda an'anaviy lad tizimlari bilan kifoyalanib qolishgan bo□lsa, hozirgi davr kompozitorlari esa ana shu vohada faol izlanishlar hamda eksperimentlar bilan ishlaromoqdalar. Lad tizimining murakkablashishi mazkur mohiyatlar bilar bilan bog□liq:

1. Lad tizimi rivojlanishining yangi impulsleri kuy va polifonik ong tamoyillarining qayta uyg□onishi bilan ifodalanib, lad va ritm mustaqilligida faktura tovushlarining tortilishi;
2. Garmonianing tembr – sonor qirralarini umumiyo rivojlanishida lad tovushqator asosining bo□yoq tomoni kuchayishi;
3. Lad o□zgarishlari jarayonida Yevropa davlatlaridan tashqari bo□lgan madaniyatlarga qiziqishning ortishi, aktivizatsiyalanishi;
4. Lad tovushqator asosining kengayishi va h.k.

Ana shu tomonlar zamonaviy lad tizimini keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Lad tizimining yangi qirralari nafaqat tashqi impulg□slar tahsirida

shakllandi, balki uni qayta qurishning ichki jarayonlari ham muhim ahamiyatni kasb etdi.

Adabiyotlar va tahlil uchun oʻquv qoʻllanmalar

1. Гуляницкая Н. Введение в современную гармонию. М., 1984.
2. A.Azimova, Sh.Ibragimova. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodiyotidaakkordlar tarkibi. T.,2015
3. I.Mirtalipova. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodiyotida mikroxromatika . T.,2015
4. G.Abdikayumova. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura. T.,2015.
5. H.Doʻsmatov. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodiyotida sonorizm. T.,2015.
6. H.Nuritdinova. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodiyotida modallik. T.,2016.

Yozma ish: Берков, Степанов. Задачи. № 5,6.

8. Oʻzbekiston kompozitorlari garmoniyasi

8.1. Akkord

XX asr musiqa tajribasi shuni koʻrsatdiki, vertikal oʻlchamining yangi-yangi muammolari paydo boʻlmoqda, chunki kompozitorlar tafakkuri, musiqiy tilning rivojlanishi, ifodalash vositalari xilma-xil uslubiy yoʻnalishlarni yuzaga keltiradi va ohangdoshliklarning turi koʻpayishiga hamda boyishiga olib keldi.

Ozbekiston kompozitorlari o‘z ijodida zamonaviy garmoniya uslublaridan keng foydalanib, turli janrlarda ko‘plab asarlar yaratishgan va zamonaviy garmonik tiliga xos barcha vositalardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Ko‘povozli tersiyaviy vertikallar – bu an’anaviy klassikakkordning tersiya (tersiyalar) qo‘shilishi bilan murakkablashishidir. Ushbu vosita tersiya bo‘yicha tuzilganakkordlarning murakkablashtirish uslublari ichida eng oddisi bo‘lib, amaliyotda muhim o‘rin tutadi. Ko‘povozli vertikallar XVII-XIX asr klassik va romantik musiqasida vujudga kelib¹¹, XX asr kompozitorlari ijodida yanada rivojlangan.

Ushbu ko‘povozli ohangdoshliklar guruhida birinchi bo‘lib shakllangan nonakkord, XIX asrdan boshlab qo‘llanilib kelingan. Nonakkorddan keyingi murakkablashgan ohangdoshliklar soni undetsimakkord (11), tertsdetsimakkord (13) va kvintdetsimakkord (15) lar bilan boyitilgan.

Ozbekiston kompozitorlari ijodi mazkur ko‘povozli vertikallar katta o‘rin egallaydi. Ayniqsa, nonakkord va undetsimakkordlar juda ko‘p uchraydi. Qolgan murakkablashtirilgan tuzilmalar – terstdetsimakkord va kvintdetsimakkordlar o‘zbek musiqasi tabiatiga mos kelmaganligi sababli, amaliyotda kamroq qo‘llanilgan. So‘nggi o‘n yilliklarda kompozitorlarimiz ijodida ushbuakkordlarga ham katta ahamiyat berilayotgani kuzatilmoqda.

Mazkur mavzuga taalluqli misollarni ko‘rib chiqamiz.

B.Gienko. «Masxarabozlar» konsertinosi.

Keltirilgan lavha alteratsiyalangan to‘liq dominant nonakkordlarning tonika nonakkordiga (D_9^{vb5} – T_9) yechilishiga misoldir:

¹¹ Ko‘povozli ohangdoshliklarning ilk namunalaridan birini D.Skarlatti re major sonata (№ 8)sidan olingan lavhada uchratamiz. Ushbu misolni T.Myuller o‘zining “Garmoniya darsligi” (-M., 1982, 61-b.)da keltiradi.

D_9^{vb5} T_9

Akkordning tersiya tarkibiga kirmaydigan tovushlarini shuakkord bilan birga qo'llanilishi **qo'shimcha** tonlarni¹² tashkil qiladi.

Qo'shimcha tonlar bilanakkordlarning murakkablashuvi zamonaviy garmoniyaning asosiy tamoyillaridandir. Akkordlarning tersiyaviy tuzilishining o'zgarishi boshqa tuzilmali (o'zga interval bo'yicha) ohangdoshliklarning vujudga kelishi bilan bog'liq.

Mazkur tonlar **almashuvchi va kiritilgan** turlariga ajraladi. Bunday tonlarga sekunda, kvarta, seksta tovushlari kiradi. Ular diatonik va xromatik tarzda ishlatilib, bir nechta bo'lishi mumkin.

O'zbek kompozitorlari ijodida tonikaga kiritilgan qo'shimcha tonlar vositasining qo'llanilishi keng tarqalgan. Ushbu tonlarni paydo bo'lishi ko'p holatlarda tabiiy ladlarga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik xususiyatlarni vertikalda aks topganligidan dalolat beradi.

Quyidagi misollarda uchtovushliklar sekunda va seksta tonlari bilan boyitilgan (№ 22-24).

M.Bafoev "Mardlar haqida qo'shiq". Si eoliy ladida tonika uchtovushligiga seksta toni kiritilgan:

¹² "Qo'shimcha tonlar" atamasini Yu.Tyulin o'z darsliklariga kiritib, uni ikki turga ajratadi: Ю.Тюлин, Н.Привано. Учебник гармонии. -М.,1959.



Juftlangan tonliakkordlar musiqa amaliyotiga XX asrda kirib kelgan bolib, tersiya boyicha tuzilganakkordlarni murakkablashtirish yollaridan biridir.

Akkord tonlarining juftlanishi har xil usullar orqali hosil bolishi mumkin:

- 1) Tabiiy va alteratsiyalangan tonlar – bir vaqtida sadolanishi bilan;
- 2) Ikki tomonlama algteratsiyalangan tonlar bilan. Akkorddagi tersiya, kvinta, septima tonlarining juftlanishi keng qollaniladi. Boshqa tonlarning juftlanishi kamdan-kam hollarda uchraydi.

Mazkur vosita kopincha ladning I va V pogonadagiakkordlariga xosdir. Ba'zi holatlarda bunday ohangdoshliklar IV, VII va boshqa pogonalarda ham qollanilishi mumkin.

Bundayakkordlarda tersiyalarni juftlanishi alohida ahamiyatga ega. Masalan, II pogonada tuzilganakkordning tersiya toni juftlanishi S va DD belgilarini oz ichiga qamrab olib, oziga xos jaranglash xususiyatiga ega bolganakkord shakllanishiga olib keladi

Otgan asrning yetuk kompozitori A.Shnitke esa,akkordda tersiya juftlanishini xalq musiqasiga xos tersiyani neytral kuylash¹³ an'anasing ifodasi deb tushunadi.

Ozbek musiqasida bundayakkordlarning vujudga kelishida shu ikki omil (major-minor va neytral tersiya) muhim bolib, major-minor asosida har xil tabiiy ladlarning k'rinishlari birlashgan.

¹³ А.Шнитке. Особенности оркестрового голосоведения в ранних произведениях Стравинского // Музыка и современность. Выш. В.–М 1967, 241-бет.

a)

b)

v)

T^{bv3} $T_6^{v\#}_5$ D_9^{bv5} $D_9^{#b5}$ S^{bv3} VII_7^{bv7} $VII_6^{b\#3}$ $VII_{65}^{v\#5}$ $II^{v\#3}$ $II_6^{b\#3}$

B.Gienko. “Masxarabozlar” konsertinosi. Quyidagi lavhada birinchi septakkord pasaytirilgan tersiya bilan murakkablashgan:

[Allegro]

a tempo

secco

XX asr tonal musiqasida **kvarta** va **kvinta** bo'yicha tuzilgan ohangdoshliklar juda keng tarqalgan.

Ushbu intervallar ozbek milliy musiqasiga xos bolganligi tufayli, aynan shular asosida qurilganakkordlar Ozbekiston kompozitorlari ijodida birinchi bolib mustaqil ohangdoshlik sifatida tasdiqlandi va hozirga qadar ko'povozli musiqaning asosiy unsurlaridan biri bolib qolmoqda¹⁴.

Kvarta va kvintaliakkordlar ladning har bir pogonasida tuzilib, diatonika hamda xromatika sharoitlarida qollanilishi mumkin.

¹⁴ Bu haqida qaralsin: С.А.Закржевская. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. –Т., 1979; Т.Б.Гафурбеков. Фольклорные источники узбекского профессионального музыкального творчества. –Т., 1984.

Mazkur ohangdoshliklarning ladogarmonik funksiyasini aniqlashda bas asosiy garmonik tayanch toni boʻladi. Masalan, aniq bir tovushli tuzilmadagi ohangdoshliklarning joylashuviga qarab, turli funksiyalarni aniqlash mumkin: D-major tonalligida *do-sol-re-lya* – tonika, *sol-do-re-lya* esa – dominant funksiyasini koʻrsatishi mumkin:



Quyidagi misollar **kvartakkordlarning** eng oddiy turiga – ikkitovushli sof kvartalardan iborat boʻlganakkordlarga namunalardir:

D.Saydaminova. “Koʻhna Buxoro devorlari” turkumidan “Gumbazlar” (“Kupola”). Keltirilgan misolda kuyning juftlanishi ikkitovushli kvartakkordlar parallel yoʻnalishi orqali ifodalangan. Ushbu kuy asarning boshida va oxirida qoʻllanib, leytgarmoniya ahamiyatiga ega.

Andante

a)

b)

Kvinta boʻyicha tuzilgan ohangdoshliklar **kvintakkord** deb yuritiladi. Ularning kvartakkordlarga oʻxshab, tashkil etadigan kvintalar soni ikki, uch, toʻrt, to oʻn ikkitagacha yetishi mumkin va tuzilish tarkibida ham sof va orttirilgan intervallar qoʻllanilishi mumkin.

Kvintakkordning yana bir keng tarqalgan funksional turi bu **“kvintotktava”**¹⁵

¹⁵ Akkordga ushbu nomni A.S. Zakrjevskaya qoʼygan. Bu haqida qarang: Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркмении. –Т., 1979, 83-б.

M.Tojievning Uchinchi simfoniyasidan keltirilgan parchada ikki tovushli kvintakkord pedal tarzida qo'llanilgan. Uning muhitida past registrda mavzu shakllanadi:



Zamonaviy musiqaning barchaakkordlari majmuida eng ajoyib va ḡayritabiyy tuzilmalar – bu sekunda bo'yicha shakllangan ohangdoshliklardir. **Sekundali ohangdoshliklarni** dastlabki paydo bo'lishi XIX asrda butuntonli lad hamda tersiyaviy tuzilmadagiakkordlarning ba'zi bir murakkablashuvlari (alteratsiyalar, qo'shimcha va juftlangan tonlar) dan kelib chiqqan. Ushbu ohangdoshliklar vertikalning mustaqil turiga ajralib, XX asr musiqasida keng tarqalgan.

S.A.Zakrjevskaya – “XX asr vertikalining asosi sifatida tasdiqlangan sekundadan tashkil topgan ohangdoshliklar keskin dissonansligi tufayli, boshqa xildagi intervallardan shakllangan ohangdoshliklar bilan solishtirilishi mumkin emas. Shuning uchun Ozbekiston, Tojikiston va Turkmaniston kompozitorlari ijodida ushbu ohangdoshliklarni qo'llanilishi chegaralangan”, deb yozgan.¹⁶

Bu xulosa 60-70-yillarga tegishli bo'lib, keyinchalik, sekunda bo'yicha tuzilganakkordlar Ozbekiston kompozitorlari asarlarida keng tarqalgan vosita sifatida o'rinn tutgan.

Sekundali garmoniyaga tegishli bir necha misollarni ko'rib chiqamiz. Quyidagi ikki misolda uch va beshtovushli hamda olti va to'rttovushli sekundakkordlarni fakturaviy rivojlanishini va har xil ko'rinishini kuzatamiz:
A.Ergashev. Fortepiano va orkestr uchun konsert.

¹⁶ Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. –Т., 1979, 84-б.

41

Allegro



Sekundali garmoniyaning yana bir aniq turi – bu **klaster** (ingl. cluster – gouj-gouj).¹⁷ Akkordlarning ushbu turi zich joylashgan sekundalardan iborat bolgan ohangdoshlikdir.

Klasterning shakllanish uslublari oddiy “tovush shingil”idan to murakkablashgan va xilma-xil fakturaviy korinishlarni qamrab olgan.

Kop hollarda asarlardagi klasterlarni ijro etish uslublarini kompozitorlarning ozlari izohlab beradilar. Misol tariqasida M.Tojievning 15-simfoniyasida fortepiano partiyasi uchun yozgan korsatmalarini keltiramiz: “Bir oktava hajmida ota pastki notalarni ikkita qolning kaftlari bilan chalinsin, shunda ong qol qora notalar, chap qol esa oq notalarni qamrab olish kerak” (№ 101 misolga qarang).

Klasterlar zamonaviy musiqa tajribasida juda keng tarqalgan. Bunday akkordlarning ifodalash imkoniyatlari kop bolib, kompozitorlar ijodiyotida samarali qollaniladi. Klasterlar ozbek mualliflarining garmonik ifoda vositalari doirasidan ham keng orin egallagan.

¹⁷ Klasterning garmonik vosita sifatida ilk bor amerikalik pianist va kompozitor Genri Kouell fortepiano ijrosida “tovushli shingillar” nomini kiritgan. U, birinchi bo’lib, mazkur ohangdoshlikni “Garmoniyadagi sarguzashtlar” nomli cholgu turkumida (1913) ishlatgan. Klasterlarning shovqinli, dahshatli eshitiltshi va gayritabiyy ijro etilishlari zamondoshlar ongida kuchli taassurot qoldirgan. Keyinchalik, Kouell klasterlarni nazariy jihatdan asoslab beradi. Uning fikricha, klasterlarni shakllanishi oberton qatorining o’zlashtirilishi jarayoni bilan (13-obertondan boshlab) uzviy bogliqlikda o’tgan. Kouell klasterlarni tasniflab, makroklasterlar – oktava hajmida, arpedjiolangan klasterlar, diatonik, xromatik va mikroklasterlarga bo’ladi.

Misolda quyidagi vosita e'tiborni jalg etadi: tovushlarning soni birin-ketin o'sishi natijasida diatonik beshtovushli sekundakkord hosil bo'ladi. Akkordning bunday gavdalanishi zamonaviy musiqada keng tarqalgan. U faqatgina sekundakkord va klasterlar qo'llanilishiga emas, balki umuman, barcha zamonaviyakkordlarni majmua sifatida kiritilishiga xosdir.

S.Varelas. "Dutor ovozida"

8.2. Lad asoslari

XX asr garmoniyasining muhim ahamiyatli hodisalaridan biri - lad tuzilishlarining yangicha talqini hisoblanadi. Bir tomondan qadimgi lad turlarining yanada ko'p qirrali rivoj topishiga amin bo'lsak, yana boshqa tomondan sun'iy atonal tovush tizimlarining ladotonal tashkiliy tamoyillariga qarshi bo'lgan negativ munosabatini ko'rishimiz mumkin.

XX asr garmoniyasida turfa lad tuzilishlari mavjud. Ular o'z tuzilishi, xarakteri, ko'rinishi va ifodaviy vositalariga ega. O'tgan davr kompozitorlari ma'lum miqdorda an'anaviy lad tizimlari bilan kifoyalanib qolishgan bo'lsa, hozirgi davr kompozitorlari esa ana shu vohada faol izlanishlar hamda eksperimentlar bilan ishlamoqdalar.

Zamonaviy O'zbekiston kompozitorlari ijodiyoti ham lad tuzilishlari borasida serqirralik, o'ziga xoslik va yorqinligi bilan ajralib turadi. Kompozitorlarimiz zamonaviy ruhda fikrlashishlari va san'atdagi yangi yo'nalishlarni belgilashda yangiliklardan foydalanishmoqda.

Xalq musiqasiga xos bo'lgan **diatonik ladlar** professional san'atga, asosan, xalq qo'shiqlari va raqslarini qayta ishlash yoki shunday qayta ishlashlar ruhidagi uslublashtirilish orqali kirib borib, bunday mualliflik asarlariga yorqin xalqona kolorit baxsh etdilar.

Tabiiy 7 pog \square onali ladlar¹ qadimgi diatonik ladlardan biri hisoblanadi.

Tabiiy ladlar - monodiyada, xalq qo \square shiqlarining qayta ishlovlardan, polifoniyyada hamda garmoniya tizimida qo \square llaniladi. Milliy kompozitorlik maktablarining namoyon bo \square lishida tabiiy ladlarning o \square rni beqiyosdir. Tabiiy ladlarga asoslangan garmonik vositalarni izlab topish jarayoni XIX – asrda (F.Shopen, E.Grig, M.I.Glinka, P.I. Chaykovskiy, M.A.Balakirev kabi kompozitorlar ijodida) hamda XX – asr boshlarida rivojlanib boradi. O \square zbekistonda ushbu jarayon XX – asr boshlaridan jadallahib borgan. Birinchilardan bo \square lib, V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, N.Mironov, 70-yillardan esa M.Tojiev, X.Zokirov, M.Maxmudov, M.Burxonov va boshqa kompozitorlarimizning yangi garmonik vositalarni kashf etishdagi xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Quyidagi O \square zbekiston kompozitorlari asarlari ketma-ketligida tabiiy ladlarning qo \square llanilishini ko \square rishimiz mumkin:

Iony ladi – A.Kozlovskiy “Po prochtenii S.Ayni” simfonik asari, kirish qismi, riccolo mavzusi, M.Bafoev “Bo \square lmagay” romansi, H.Rahimov “Oq qayin” qo \square shig \square i.

Lidiy lad – M.Otajonov “Marsh”, F.Alimov “Marhabo” qo \square shig \square i hamda fortepiano uchun pyesalar: M.Otajonov “Pyesa”, P.Holiqov “Kichik marsh”, X.Azimov “Xoy-xoy otamiz” .

Miksolidiy ladi – A.Kozlovskiy “Hind poemasi” simfonik asarining kirish qismi, P.Holiqov “Uvertyura” simfonik orkestr uchun, kirish qismi, trombon mavzusi, R.Abdullaev “Skerso”, F.Nazarov “Hayol fortepiano uchun”, M.Ashrafiy “Dilorom” operasi II qism.

Eoliy ladi – X.Izomov “Qutlug \square ayyom” qo \square shig \square i, H.Rahimov “Jasorat” qo \square shig \square i, N.Norxo \square jaev “Nikoh uzugi” orkestr va vokal uchun, D.Zokirov “Lirik poema” simfonik orkestr uchun, B.Zeyzman “Qo \square shiq” fortepiano uchun, T.Xasanov “So \square lim diyor” qo \square shig \square i.

Frigiy ladi – M. Burhonov “Shoir orzusi” qo \square shig \square i, R. Abdullaev “Vatan tongi” qo \square shig \square i, O. Hayitboyev “Maysa” qo \square shig \square i, M. Ashrafiy

“Dilorom” ariozosi, M. Ashrafiy “G□amim dildora izzor et” romansi, N. Norxo□jaev “So□zsiz qo□shiq” fortepiano uchun.

Doriy ladi – I.Ikromov “Sarvi gulro□ kelmadi” qo□shig□i, M. Yusupov “Gulchi” fortepiano uchun, T. Jalilov “Muqimiy” musiqiy dramasidan “Obidaxon” ariyasi.

Lakriy ladi – G. Mushel “Syuita” organ uchun, II qism, M. Bafoev “Najotiya IX” vokal siklidan, A. Kozlovskiy “Ulugbek” simfonik asari, F.Ya.Yanovskiy “Orkestr uchun konsert” va x. k.

Adabiyotlar va tahlil uchun o□quv qo□llanmalar

1. Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. Т.,1978.
2. A.Azimova, Sh.Ibragimova. O□zbekiston kompozitorlari ijodiyotidaakkordlar
tarkibi. Т., 2015
3. I.Mirtalipova. O□zbekiston kompozitorlari ijodiyotida mikroxromatika .
Т.,2015.
4. G.Abdikayumova. O□zbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura. Т.,2015.
5. H.Do□smatov. O□zbekiston kompozitorlari ijodiyotida sonorizm. Т.,2015.
6. H.Nuritdinova. O□zbekiston kom’ozitorlari ijodiyotida modallik. Т.,2015.

Seminar

Yozma tahlil: M.Otajonov “Pyesa”.

TEST SAVOLLARI

O'rta asr lad tizimidan XVI- XVII asr musiqa nazariyasining major-minor tizimiga o'tish

1. XIV-XVI asrlar garmoniyasini Yu. Xolopov nima deb atagan?
 - A) "Ilk modal garmoniya"
 - B) "Uyg'onish davri garmoniyasi!"
 - C) "Renessans garmoniyasi"
2. VII-XVI asrlarni o'z ichiga olgan Yevropa professional musiqasi qaysi ladga asoslangan?
 - A) cherkov ladlari
 - B) xalq ladlariga
 - C) major-minorga
3. Modal garmoniyaning dastlabki turlariga nimalar kiradi?
 - A)akkordsiz tovushlar va dissonanslar
 - B) organum va tabiiy cherkov ladlari
 - C) butun kuy davomida ushlab turilib, kadensiya xromatizmlar bilan bezatilgan tabiiy tovushlar
4. XV-XVI asrlar musiqasining estetik vazifasi nimadan iborat edi?
 - A) musiqani hissiyotlardan tozalash
 - B) musiqada yangi ifoda vositalarini shakllantirish
 - C) har tomonlama rivojlangan inson muammosini ko'tarish
5. Eski modal garmoniyaga qaysi ladlar asos bo'lgan?
 - A) 8 cherkov ladi
 - B) major-minor
 - C) gipoladlar

6. Modal garmoniyada ohangdoshliklarning almashuvi nima bilan belgilangan?

- A) kvarta- kvinta funksional aloqalar qonuniyati bilan
- B) ovoz yonalishi bilan
- C) kadensiyalardagi garmonik tuzilma bilan

7. Quyidagi musiqiy misol qaysi davr garmoniyasiga xos?

- A) eski modal garmoniya
- B) yangi modal garmoniya
- C) klassik garmoniya

